Muayyan shaxsning samaradorligi nafaqat ishda yoki maktabda bitta aniq vazifani bajarishga, balki umuman insonning aniq maqsadlariga intilishiga ta’sir qilishi mumkin.

Shaxsiy samaradorlik bilan biz nafaqat ish beruvchi tomonidan berilgan vazifani qanchalik tez bajarishingizni, balki martaba pog’onasiga qanday ko’tarilishingiz, yangi ma’lumotlarni olish, undan foydalanish va maqsadlaringizga erishishingiz mumkinligini ham bilib olasiz.

Bu haqida fikr yuritilganda birinchi bo’lib muxtaram Prezidentimizning gaplari hayolimga keladi. Bu borada Shavkat Miromonovich:

Bog‘imizda bir daraxtga qurt tushsa yoki dalamizda bug‘doya zang tushsa, darrov chorasini ko‘ramiz. Lekin ma’naviyatimizga «qurt tushsa», nima uchun e’tibor qilmaymiz? Bir haqiqatni barcha rahbarlar bilishi kerak: faqat hisobot uchun yig‘ilishlar vaqtি o’tdi» degan gaplarni aytgan edi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1) “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” PQ-4307 03.05.2019

2) “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” PQ-5040 26.03.2021

3) Sh.M.Miromonovich “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz” Toshkent O’zbekiston. 2017-yil

4) [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

5) [www.president.uz](http://www.president.uz)

**KITOBXONLIK MADANYATINI KENG TARG'IB QILISH VA UNING  
RIVOJLANISHIDAGI MUAMMOLAR**

**Mulaydinov Farxod Murotovich**

*Qo'qon universiteti, Kafedra mudiri*

**Jo'rayeva Aziza Raxmatova**

*Qo'qon universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu tezisda kitobning jamiyatlar yuksalishi va rivojlanishida tutgan o'rni, kitob bo'yicha buyuk ajdodlarimiz fikrlari, kitobxonlikni targ'ib qilish va uni yoshlarga yetkazishdagi turli muammolar haqida so'z yuritiladi. Tezis so'ngida yurtimizda kitobxonlikni keng targ'ib qilish, yoshlari o'rtasida kitob mutaalasiga qiziqtirish bo'yicha amalga oshirilgan ijobiliy o'zgarishlarga ham to'xtalib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar :** *kitob, kitobxonlik, ilm, ustoz, kitobxonlik madanyati, xazina .*

Kitob – umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, unga har qanday vaziyatda ham hamroh bo'lувчи sodiq do'st. Insonning ma'naviy kamolotini ta'minlashda kitob singari kuchli qudratga ega vosita yo'q. Shu bois azal-azaldan ma'rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o'qishga, undan ilmu odob sirlarini o'rganishga chorlab kelishgan. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, "kitob – beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai". Kitob o'qib bilim va munosib tarbiya olish, kasb-hunar o'rganishda ahamiyati juda katta. "Kitobsiz aql – qanotsiz qush", "Bilim – aql chirog'i". Bunday hikmatli naqlarni yana uzoq davom ettirish mumkin. Necha ming yillardan buyon insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatib kelayotgan, ularning bilimli, tarbiyalii, kasb-hunarli va albatta baxtli bo'lishining muhim omili – bu kitobga do'st bo'lish, va kitob o'qishni kanda qilmaslikdir.Ushbu maqolada kitobxonlikni keng targ'ib qilish va rivojlanishidagi muammolarga yechim topish haqida munozara bo'lib o'tadi.

Asosiy qism: Kitob insonni ezgulikka undaydi. Yaxshi-yomonni ajratishga ko'maklashadi. Eng muhimi, ishonchli sirdosh bo'ladi. Shu o'rinda istiqlol arafasida ayrim yurtdoshlarimizda kitobga, kitobxonlikka qiziqish bir qadar susaygan vaqtlar bo'lganini eslaylik. Hozirgi paytda yurtimizda kitobxonlik, kitobsevarlik fazilati yana yuksalib bormoqda. "Kitob javoni – haqiqiy ziyolining eng ardoqli davlati", degan an'ana qaytadan urf bo'lmoqda. Sohibqiron Amir Temur ta'biri bilan aytganda, "Kitob (bitig) barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni yaratuvchi murabbiyidir". Shu ma'noda, shaklidan qat'iy nazar, barcha kitoblar milliy o'zligimiz hamda umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etishga xizmat qilishi ayni muddao. Kitob insoniyatning tarixiy xotirasi, ma'naviy-ma'rifiy olami, ilmiy zaminini mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko'rsatib borishga qodir mash'ala hisoblanadi. Axloq-odob borasida buyuk asarlar yaratgan Muhammad Jabal Rudiy kitob haqida shunday deydi: "Ey, aziz! Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdosh yo'qdir. Kitob fasohat, balog'atda, latofatda tengi yo'q, munofiqlikdan xoli hamrohdir, kitob aql qal'asidir". Bugungi kunda kitobxonlik

madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida quyidagi muammolar mavjud: Kitobxonlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash tizimi mavjud emas; badiiy, ma'rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni chop etish, ular bilan ta'lim muassasalarini ta'minlash, milliy va jahon adabiyoti namoyandalarining yetuk asarlarini saralash, tarjima qilish ishlari puxta o'yangan tizim asosida tashkil etilmagan. Chop etiladigan kitoblarni nashriyotlardan hududlarga arzon narxlarda yetkazish, onlayn buyurtma berish va manzilga yetkazish tizimi ancha jonlanganiga qaramay aholini ushbu xizmatlardan foydalanish malakasi sust shakllangan (aksari aholi bunday xizmatlar borligidan xabari ham yo'q), shuningdek, aholiga xizmat ko'rsatishda elektron kitob shakllaridan keng foydalanish yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Ta'lim va madaniyat muassasalarini uchun kitob xarid qilishga mablag'lar yetarli darajada mavjud bo'lgan manbalar hisobidan jaib etilmayapti, kitob sotishga ixtisoslashgan korxonalar tomonidan ta'lim muassasalarini, kutubxonalar va mahallalarda yangi kitoblar taqdimotini o'tkazish, mutolaa madaniyatini oshirish, shu jumladan, ommaviy-axborot vositalari orqali targ'ibot-tashviqot qilishga qaratilgan tadbirlar yetarli emas Aholi, ayniqsa, yoshlar orasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o'stirishga xizmat qiladigan kitoblarga bo'lgan talab chuqur tahlillar asosida o'rganilmagan. Kitoblarni chop etish hamda aholiga yetkazib berishni o'z ichiga olgan boshqaruv tizimining, shuningdek, jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga va o'zbek adabiyotining eng yaxshi asarlarini chet tillariga tarjima qilish ishlari tizimli yo'lga qo'yilmagan. Iqtisodiyot jihatdan qaraydigan bo'lsak, kitob nashri uchun QQS qo'llanilishi ham kitob narxlarini oshishiga olib kelgan.

Zero shuncha muammolar bo'lishiga qaramay, kitobxonlikni ommaga keng yoyishda qator ishlar yo'lga qo'yildi va qarorlar qabul qilinmoqda. Jumladan 2018-2019-yillarda nashriyotlarda darsliklardan tashqari 1 587 nomda 21 640 mingdan ortiq nusxada kitob chop etilgan. 2017 — 2019-yillarda O'zbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan nashriyotlarga 16 018 ta (2017-yilda 4911 ta, 2018-yilda 5334 ta, 2019-yilda 5773 ta) ISBN (International Standard Book number) kitobning xalqaro standart tartib raqami taqdim etilgan. Birinchi marta 2019-yil 2 — 4-oktabr kunlari mamlakatimizda ixtisoslashgan "Tashkent book fest — 2019" I Xalqaro kitob ko'rgazma-yarmarkasi tashkil etilib, unda Buyuk Britaniya, Germaniya, Janubiy Koreya, Rossiya, Turkiya, Qozog'iston va Qirg'iziston davlatlarining 20 ga yaqin va 30 dan ortiq mahalliy nashriyotlar, 15 ming nafardan ortiq soha mutaxassislari, keng jamoatchilik vakillari hamda yoshlar ishtirok etdi. "Ma'rifat karvonii" tadbirlari doirasida 3 milliondan ortiq kitob yoshlarga yetkazib berildi. An'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Yosh kitobxon" tanlovi bilan 2017 — 2019-yillar davomida 2 mln 170 mingdan ortiq yoshlar qamrab olinib, 9 nafar tanlov g'oliblari bo'lgan yosh kitobxonlar Prezident sovg'asi "Spark" avtomashinasi sovrindori bo'ldi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki Grow for Knowledge tarkibidagi NOP World tashkiloti dunyo bo'yicha eng ko'p kitob o'qiydigan aholi Hindiston bo'lib, hindlar haftasiga o'rtacha 10 soat 42 daqiqa o'qiydi. Biz ham o'z mamlakatimizda buni targ'ib qilishimiz kerak. Badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, joylarga, ta'lim muassasalariga vaqtida va maqbul narxlarda yetkazish, milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima

qilish, yoshlarda bolalikdan boshlab kitob, jumladan, elektron kitob o‘qish ko‘nikmasini shakllantirish bugungi kundagi muhim ustuvor vazifamiz hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrdagi "2020 - 2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida" gi 781-sonli Qarori
2. Munavvarov. A. Pedagogika – Pedagogika Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo’llanma. Toshkent: O’qituvchi, 1996-2008
3. A.Avlonyi. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O’qituvchi, 1992.
4. Grow for Knowledge tarkibidagi NOP World tashkiloti ma`lumotlari, 2019 -yil .20 .08
5. Yoshlar va kitobxonlik: an’anaviy va zamonaviy usullar
6. <https://uzedu.uz/uploads/2019/07/press-reliz-uzbek.doc>
7. <https://old.xs.uz/index.php/homepage/madaniyat/item/9477-mutolaa-madaniyati-va-intellektual-salo-iyat>

**BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INTERFAOL  
METODLARDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI**

Kodirova Nafisa Muzrabbekovna

Andijon viloyati Andijon Shahar

31-umumtalim maktabi

biologiya fani o'qituvchisi

**Anotatsiya:** *Mazkur maqolada biologiya darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda interfaol foydalanishda qo'shmcha manbalarning ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Innovatsiya, konsepsiya, interfaol, "Insert,, "BBB,, "FSMU,, "Keys stadi,, "Evrika,, shafof jonzotlar.*

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilab berilganidek, xalq ta'limi sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish zamonaviy darsliklar o'quv uslubiy qo'llanmalar, multimedya ilovalarini yaratish ta'kidlangan. Pedagogik texoalogiyalarini amaliyatga tadbiqi jarayonida ta'limni shakillari, metodlari, usullari hamda vositalari takomillashib boradi. Bu albatta o'qituvchilarni nisbiy pedagogik mahorati bilan bog'liq bo'lib har doim o'quvchini izlanishga o'z ustida ishlashga va ijodkorlikka undaydi. Hozirgi kunda biologiya fanida zamonaviy darslarni tashkil etishda quydagi interfaol medodlarda "Aqliy hujum", "Insert", "B.B. B", "FSMU", "Rolli o'yinlar", "Keys stadi", "Evrika" kabi medolardan foydanilmoqda.

Biologiyani o'qitishda lokal darajadagi pedagogik texnologiyalardan «Keys», «Aqliy hujum»,

«Kichik guruhlarda ishlash», «Atamalar zanjiri», «Atamalar varag'i», tezkor o'yinlar va o'yin mashqlaming turli shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Biologiya kursi mazmunidagi muammoli masalalami o'qitishda «Keys»dan foydalanish yuqori samara beradi. «Keys» — case studies ingliz tilidan olingan bo'lib, jarayon yoki vaziyat degan ma'noni beradi. Biologiyani o'qitishda dastur mazmunidagi evolutsion tushunchalar yetakchilik qilgan, shuningdek, munozarali «o'simliklarning paydo bo'lishi va rivojlanishi», «hayvonot olamining paydo bo'lishi va rivojlanishi» kabi mavzulami o'qitishda foydalanish mumkin. Ta'lim-tarbiya jarayonida keysdan foydalanish uchun o'qituvchi: dastur mazmunidagi muammoli mavzulami aniqlashi, shu mavzularni o'qitish uchun muammoli savol-topshiriqlar tuzishi; dars davomida muammoli savol-topshiriqlaming qiyinchilik darajasiga ko'ra yakka tartibda yoki o'quvchilarning kichik guruhlarida mustaqil ishlami tashkil etilishini aniqlashi;

o'quvchilarning bilish faoliyatini mazkur muammolarni hal etish, o'quv munozaralari orqali bahsda qatnashtirish yo'llarini rejalashtirishi;

muammoli savol-topshiriqlar asosida tashkil etilgan o'quv munozaralarida yakuniy fikrni vujudga keltirishi lozim.

Dastur mazmunidagi faqat faktik materiallarni o‘rganish nazarda tutilgan mavzularda Insertdan foydalanish tavsiya etiladi. Insert — lokal darajadagi pedagogik texnologiya bo‘lib, o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialidagi asosiy g‘oya va faktik materiallarni anglashiga zamin yaratish maqsadida qo‘llaniladi. O‘quvchilarni Insert yordamida ishslash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ularga o‘rganiladigan o‘quv materiallari va maxsus jadval tarqatiladi. O‘quvchilar har bir jumlanı o‘rganib chiqib, maxsus jadvalga muayyan simvollar yordamida belgilash tavsiya etiladi. Agar jumlada berilgan ma’lumot shu kungacha o‘zlashtirgan bilimlariga mos kelsa, «Bilaman» - V, agar ma’lumotlar tushunarli va yangi bo‘lsa, u holda «Ma’qullayman» +, agar ma’lumotlar o‘quvchilar o‘zlashtirgan bilimlariga mos kelmasa, u holda «o‘rganish lozim» o‘quvchilar o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda qiyinchilik his etsa, u holda «Tushunmadim» ? belgisini qo‘yadi.

Insert bilan ishslashning afzallik tomoni aval kichik guruh a’zolari o‘rtasida kichik guruuhlar bilan o‘zaro o‘quv bahsi o‘tkazilishi, bahsda o‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni to‘ldirish, bilimidagi bo‘shliqlarni to‘ldirish yuzasidan o‘qituvchi tomonidan berilgan axborot ta’lim samaradorligiga xizmat qiladi.

Bugungi kunga kelib, ta’limning bunday noan’anviy usullarni qo‘llash dars jarayonida kompyuter va texnik a vositalaridan katta samara berayotgani va bu ta’lim –tarbiya usullarining bosh mezoni sifatida tan olingani hech kimga sir emas. Ta’limda axborot texnalogiyalarini qo‘llanilishi tarbiyachilarninig mavzular yuzasidan tayyorgalik ko‘rishlarida erkinlik va tezkorlikga erishishlarga asos bo‘lishi bilan birgalikda tarbiyalanuvchilarga mavzularning tez va oson yetib borishi hammda qiziqishlarining ortishga sabab bo‘ladi. Chunki darslarning axborot texnalogiyalari va qo‘sishma internet ma’lumotlaridan qo‘sishma manbalaridan foydalinilgan holda olib borilishi bolalarning hozirgi tezkor axborot davrida bir xildagi va zerikarli mashg‘ulotlardan farqli ravishda mavzuni aniq va maqsadli tarzda o‘zlashtirib olishlariga imkon yaratadi. Internetdan olingen qo‘sishma manbalarni biologiya darslarida qo‘llasak, darslarimiz yanada sifatli bo‘ladi. Masalan quyidagi internet ma’lumotida shafof jonzotlar to‘g‘risida so‘z boradi. Dunyo ilm-fan mo‘jizalarga boy, bu borada biologiya fani yetakchilardandir. Nma deb o‘ylaysiz shaffof jonzotlar to‘g‘risida eshitganmisiz yoki ko‘rganmisiz. Dunyo mo‘jizalarga boy desak, bir o‘ylab ko‘ring-chi, bularning bunday bo‘lishlariga sabab nima? Balki bu hayvonlarning yashash muhiti atrof muhit ekologiya sababdir, balkim bu jonzotlar evolyutsiyada o‘z turlarini saqlab qolish dushmanlaridan himoyalanish uchun shunday tuzilishga yashashga majburdirlar, bu jonzotlarning aksariyati suvda yashaydi, qizig‘i shunda-ki ular shaffofdir bu hayvonlar quydagilar.

Umumta’lim maktablarida o‘quvchilar biologiya fanidan laboratoriyo mashg‘ulotlarini o‘tkazish jarayonida mashg‘ulot maqsadini bilishi, asboblarni tanlay olishi, yig‘ishi va ulardan foydalanishi tajribani amalga oshirish sharoiti va natijalarini yozishiva xulosalay olishi kerak.

Biologiya fanlarini nazariy bilimlarga asoslangan holda amaliyat asosida kengroq o‘rganish muhimdir. Barcha bo‘limlar bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tkazishning muvaffaqiyati uning mazmuni va tashkil etilishi ko‘p darajada o‘qituvchiga bog‘liq.

Ta'lim sohasida respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi hozirgi ilmiy texnika davrida ijtimoiy munosabatlarga kirisha oladigan, faol ma'naviy yetuk har tomonlama bilimdon komil insonni tarbiyalashdan iborat.

Biologiya tabiiy fanlarning bir tarmog'i bo'lib, insoniyatni borliq, jonli tabiat bilan tanishtiradi. O'quvchilarni tabiatni sevishi, tabiiy borliqni tushunib yetishi, tabiatdan o'rinli foydalanib uni ezozlashga tabiiy boyliklarni muhofaza qilishga o'rgatadigan fanlardan biridir.

Biologiya darslarida virtual va visual labaratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda multimedia vositalaridan foydalanish o'quvchilarda tayanch kompitensiyalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda o'qituvchilarning darslarda qo'shimcha manbalardan foydalanishi va ularning amalda samarali qo'llay olishi bo'yicha tayyorgaliklarini zamonaviy talablar darajasida muntazam oshirib borishdan iborat.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoev 2019 yil 29 aprel Toshkent. PF- 5712- son
2. Tabiiy va aniq fanlarni o'qitishda innovatsion yondashuvga asoslangan ta'lim mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiysi materiallari Samarkand-2018
3. "Maktabda biologiya"- ma'naviy-ma'rifiy ta'limiy jurnal 2018 yil 8-son
4. Internet materallari.
5. Dunyo saytlari - 2019 yil.

**MOVAROUNNAHR DIYORIGA TAFSIR ILMINING KIRIB KELISHI****Yangiboyev Adhambek Esanovich***O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,  
manbalar xazinasi bo'limi ilmiy xodimi*

Movarounnahrdi tafsir ilmining vujudga kelishi va rivojlanishi islom dinining boshqa ilmlari kabi bu diyorga islom dini kirib kelishi bilan bog'liq bo'lgan jarayondir. Butun islom olamiga hadis ilmida, fiqh ilmida, kalom ilmida, arab tili grammatikasi va boshqa barcha islom ilmlarida yetuk ulamolarni tarbiyalab chiqargan ushbu diyordan buyuk mufassirlar ham yetishib chiqdi. Dastlab, boshqa joylar kabi bu yurtlarda ham Qur'oni karim tafsiriga oid rivoyatlar, ma'lumotlar muhaddis ulamolar to'plagan hadis kitoblari tarkibida bo'lган. Tafsir ilmi va alohida tafsir kitoblari esa biroz keyiroq paydo bo'lган. Shunga ko'ra Movarounnahr tafsir ilmining asoschilari sifatida bu zamindan yetishib chiqqan muhaddis ulamolar e'tirof etiladi. Ushbu muhaddis ulamolar o'z sohasining yetuk olimlari bo'lish bilan birga Qur'on ilmlari, ayniqsa, tafsir sohasining shakllanishida ham o'zlarining beqiyos hissalarini qo'shishgan.

Ushbu olimlardan birinchisi, hadis ilmining sultonim imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriydir. Uning Qur'on tafsiriga oid alohida "At-tafsir al-kabir" nomli asari bo'lib, u bizgacha yetib kelmaganligi "Kashfuz-zunun" deb nomlangan kitobda zikr qilinadi. Shunga qaramasdan, Imom Buxoriy tafsir ilmiga oid ulkan meros yozib qoldirgan va u bizgacha yetib kelgan. Uning "al-Jome as-sahih" asarida Qur'oni karim tafsiriga oid mingdan ortiq hadis keltirilgan. Shuningdek, ushbu sahih to'plamda "Qur'on tafsiri kitobi" deb nomlangan alohida bob ham bor. Mazkur bobda Fotiha, Baqara, Oli Imron, Niso, An'om kabi sakson beshta suradagi oyatlarning tafsirlari va jami uch yuz ellik sakkizta oyatga sharh berilgan. Bundan tashqari ushbu asarda Imom Buxoriy Qur'on o'rganish va o'rgatish fazilatlariga doir "Qur'on fazilatları kitobi" bobida ham Qur'onga oid ko'plab hadislarni keltiradi. Ushbu zikr qilingan ma'lumotlar uning buyuk mufassir bo'lganligi va yozgan tafsirlari naqliy tafsirlar sirasidan ekanligini anglatadi.

Yana bir hadisshunos olim, kitobi olti sahih to'plamning to'rtinchisi sifatida tan olingan muhaddis Imom Termiziyyidir. Uning to'liq ismi Abu Iyso Muhammad ibn Iyso ibn Savra ibn Muso ibn Zahhok as-Sulamiy al-Bug'iy Termiziyy bo'lib, Termiz yaqinidagi Bug' qishlog'ida tug'ilgan. U Imom Buxoriyning shogirdi bo'lgan va o'z asarlarida tafsiriga oid ko'plab hadislар rivoyat qilgan. Imom Termiziyy o'zining "Sunan" asarida Qur'oni karim va uning tafsiriga oid bir nechta boblar keltirgan. Bu boblardan biri "Kitob fazoil al-Qur'on" deb nomlanadi. Ushbu bobda alloma Qur'oni karim va uni o'rganish fazilatları, Fotiha surasi, Baqara surasining oxiri, Oli Imron, Kahf, Yasin, Mulk va boshqa bir qancha suralarning fazilatları haqidagi hadislarni va Qur'onidan bir harf o'qigan kishiga beriladigan ajrlar hamda Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning Qur'oni karimni qanaqa qiroat qilishlari haqidagi hadislarni keltiradi. U "Sunan" asarida keltirgan boblardan yana biri "Kitob al-qiroat" deb nomlanadi. Ushbu bobda qiroat turlari va Qur'oni karimning yetti harfda nozil bo'lganligi to'g'risidagi hadislар mavjud. Ushbu kitobda Qur'on tafsiriga

aloqador alohida bob ham bo‘lib, u “Kitob tafsir al-Qur’on” deb nomlanadi. Ushbu bobda Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning Qur’oni karim oyatlariga o‘z ra’ylari bilan ma’no aytishlari va Fotiha surasidan to Nas surasigacha bo‘lgan barcha suralardagi ko‘pgina oyatlarni tafsir qilib berishlari to‘g‘risida kelgan hadislarni suralarning ketma ketligi asosida keltirib o‘tadi. Ushbu ma’lumotlar imom Termiziyning tafsir sohasi yo‘nalishiga qo‘sghan ulkan hissasidan dalolat beradi.

Movarounnahrlik yana bir mashhur muhaddis, hofiz, shayxulislom Ahmad ibn Shuayb ibn Ali ibn Sinon ibn Bahr ibn Dinor Abu Abdurrahmon Xurosoniy Nasoiy (vaf. 303/915) o‘zining “Sunan” asarida “Kitob at-tafsir” nomli alohida bob ajratib, Qur’oni karim tafsiriga oid juda ko‘p hadislarni kiritadi. Ushbu bob keng bo‘lib, o‘z ichiga Fotiha surasidan to Nas Surasigacha bo‘lgan barcha suralardagi ko‘plab oyatlarning tafsiriga doir hadislarni jamlagan.

Ushbu zamindan chiqqan yana bir mashhur muhaddis Hofiz al-Kabir Abu Muhammad Abdulloh ibn Abdurrahmon ibn Fazl ibn Bahrom ibn Abdussamad Tamimi Samarqandiy Dorimiyning (vaf. 255/868) ham Sunan asarida “Kitob Fazoil al-Qur’on” nomli bob bor. Unda Qur’on o‘quvchining va eshituvchining fazli, Qur’onni yod olib so‘ngra uni esdan chiqarib yuborgan kishi, suralarning fazilatlari haqidagi hadislarni jamlagan. Movarounnahr zaminida tafsir ilmining paydo bo‘lishi va rivojlanishida muhaddis ulamolarining xizmati nihoyatda katta bo‘lganligiga yuqoridagi ma’lumotlar dalil bo‘ladi. Shuningdek, ular qoldirgan beباho meros nafaqat ushbu diyorlarda, balki, butun islom olamida keyinchalik tafsir ilmining rivojida, hamda bu borada ko‘plab qimmatli asarlar yozilishida asosiy manbalar sifatida muhim ahamiyat kasb etdi.

## YANGI O'ZBEKISTONDA IQTISODIY YUKSALISH

Maxamatovna Zulhumor Mukarramova

*Farg'ona viloyati Farg'ona shahar 25-IDUMning iqtisodiy bilim asoslari fani  
o'qituvchisi*

**Annontatsiya:** *Ushbu maqola yangi O'zbekistonda iqtisodiy yuksalish hamda iqtisodiyotning muhim omillari to'g'risida fikr yuritilgan.,*

**Kalit so'zlar:** *O'zbekiston, yurt, taraqqiyot, bozor iqtisodiyoti, iqtisodiy yuksalish.*

Jahon miqyosida moliyaviy va iqtisodiy inqiroz davom etayotgan bir paytda, ko'pchilik mamlakatlarda o'sish o'rniga pasayish holatlari yuz berayotganiga, jiddiy ijtimoiy muammolar va yon-atrofimizda keskinlik, turli qarama-qarshilik kuchayib borayotganiga qaramasdan, O'zbekistonda iqtisodiyot barqaror sur'atlar bilan rivojlanib, bu boradagi ko'rsatkich 8,2 foizni, oxirgi uch yil yakuni bilan 27,7 foizni tashkil etgan.

Shu bilan birga o'tgan yilda davlat byudjeti umumiy xarajatlarining 59 foizi aynan sotsial sohalarga, ya'ni aholining ehtiyojini qondirishga yo'naltirilganini alohida ta'kidlab o'tdi. 2012 yilda aholining real, ya'ni amaldagi daromadlarning o'rtacha 17,5 foizga oshgan, davlat byudjetidan oylik oladigan xodimlarning ish haqi, nafaqa va stipendiyalar miqdori o'rtacha 26,5 foizga o'sgan.

«Daromadlar oshishi bilan aholimizning banklarda saqlanayotgan omonatlari hajmi o'tayotgan yilda 34,6 foizga, oxirgi uch yilda esa 2,4 karraga ko'paygani hayotimiz tobora farovon bo'lib borayotganining yaqqol ko'rsatkichi, desam, ayni haqiqatni aytgan bo'laman. O'z yakuniga yetayotgan yilda mamlakatimiz miqyosida 9,3 million kvadrat metr, shu jumladan, qishloq joylarda 7,2 million kvadrat metr uy-joy foydalanishga topshirilganining o'zi ham shunday xulosa chiqarishga asos bo'lishi muqarrar.

“O'zbekiston qo'lga kiritayotgan bunday marralarning mustahkam zamini odamlarimizning, avvalo hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan yoshlarimizning dunyoqarashi, siyosiy va ijtimoiy faolligi, grajdaniq pozitsiyasi tobora kuchayib borayotganida, desak, hech qanday xato bo'lmaydi. Bularning barchasi shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o'zining, oilasining taqdirini biz uchun yagona Vatan bo'lmish O'zbekiston taqdiri bilan uzviy va chambarchas bog'liq holda ko'rayotganidan dalolat beradi va hayotga bunday yondashish ertangi kunimizning mustahkam poydevoriga aylanib bormoqda

Ayni shu fursatdan foydalanib, hayotimizda yuz berayotgan ana shunday o'zgarish va yangilanishlarning ijodkori va bunyodkori bo'lmish aziz yurtdoshlarimiz mamlakatimizning taraqqiyoti, uni dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga ko'tarishdek ezgu maqsadlarimizni amalga oshirish yo'lidagi munosib xizmatlaringiz uchun chin qalbimdan minnatdorlik bildirishni ham qarz, ham farz deb bilaman.

Koronavirus pandemiyasi boshlanishidan oldin O'zbekistonda olib borilgan islohotlar mamlakatga ijobjiy iqtisodiy o'sishni ta'minlashga imkon berdi. Bu haqda iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vaziri Jamshid Qo'chqorov aytib o'tdi.

«Pandemiyaga qaramay, biz erishgan iqtisodiy o'sish pandemiya boshlanishidan oldin amalga oshirilgan islohotlarning natijasidir.

Eslatib o'tamiz, 2020 yil yakuni bo'yicha O'zbekiston iqtisodiyoti 2019 yilga nisbatan 1,6 foizga o'sdi. Pandemianing salbiy ta'siriga qaramay, 2020 yilda davlat budgeti daromadlari 128,7 trillion so'm prognozga nisbatan 132,9 trillion so'mni tashkil etdi.

Daromadlar 2019 yilga nisbatan 20,8 trln so'mga o'sdi. Qo'chqorov pandemiya iqtisodiy siyosat kun tartibiga bir qator jiddiy o'zgarishlar kiritganini ta'kidladi. Natijada, 2020 yilning dastlabki uch choragida O'zbekiston sog'liqni saqlash sohasini qo'llab-quvvatlash va pandemiyaga qarshi kurashish bo'yicha iqtisodiy choralar bilan band etilmoqda.

Shunga qaramay, , hukumatda «davom ettiriladigan qat'iy islohot dasturi mavjud».

«Mamlakat rahbariyati aynan iqtisodiy islohotlar iqtisodiy o'sish, odamlar farovonligini yuksaltirish va kambag'allikni kamaytirish uchun asos bo'ladi, deb hisoblaydi. Bizning oldimizda iqtisodiy o'sish va aholi jon boshiga YAIMni oshirish bo'yicha juda katta vazifalar turibdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev budget xarajatlari ochiq-oshkora bo'lishi, vazirlik va idoralar, hududlar uning har bir so'mini oqilona sarflashi kerakligini ta'kidladi. Moliya vazirligiga tashkilotlarda ichki audit tizimini mustahkamlash, noqonuniy xarajatlar va kamomadlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ko'rsatmalar beriilmoqda.

Bundan buyon xarajatlar tarkibi va natijadorligi davlat idoralarining rasmiy saytlarida e'lon qilish tartibi joriy qilinadi va bunga amal qilmagan rahbarlarga jarima qo'llaniladi. Buni Oliy Majlis palatalari va mahalliy kengashlar nazorat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1./daryo.uz/2
- 2./mineconomy.uz
- 3./kun.uz/
- 4./nbu.uz/uz.denemetr.com
- 5.fayllar.org

**PRINCIPLES OF FORMATION OF STUDENTS' READINESS FOR  
INTERCULTURAL RELATIONS IN THE PROCESS OF TEACHING ENGLISH**

**Menlimuratova Elmira Azatovna**

*Karakalpak State University named after Berdakh*

**Menlimuratova Indira Azatovna**

*Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural*

*Mechanization Engineers*

The principles of teaching are the initial didactic provisions that reflect the course of objective laws and patterns of the learning process and determine its focus on personality development. Knowledge of the principles of teaching makes it possible to organize the educational process in accordance with its laws, to reasonably determine the goals and select the content of the educational material, to choose the forms and methods of teaching adequate to the goals. With the development of the theory and practice of teaching, the discovery of new patterns of the learning process, new principles of teaching were formulated, the old ones were modified, therefore they are historically transient [2; p.184].

All the principles of teaching are related to each other and penetrate one into the other; they can be presented as a system consisting of "substantive and procedural" (organizational and methodological) principles. The pedagogical principle indicates how best to act in the appropriate pedagogical setting. At the same time, the principle subordinates to itself both the content and the forms of organization of activity and education, that is, it exerts a system-forming influence on all components of the pedagogical process. At the same time, the principle should act as a normative requirement and thus serve as a criterion for increasing the effectiveness of pedagogical practice.

In order to improve the readiness of university students for intercultural relations, we focus on the following principles: the principle of cultural saturation of the content of educational material; the principle of orientation towards humanitarian values; the principle of tolerance; the principle of the dialogue of cultures, the principle of activity; the principle of the formation of traits of the secondary linguistic personality [3; 69].

So, the principle of culturological saturation of the content of educational material is inextricably linked with the content of education.

The cultural formation of a modern person during the period of democratic transformations of society is associated with a reassessment of life values. The change in human thinking and the reorientation of consciousness to new sociocultural norms and patterns is a characteristic feature of our society, where there is a discrepancy between emerging new cultural values and old forms and means of their development. The resolution of this contradiction is associated, first of all, with a change in the forms and means of the cultural development of the personality, which in reality makes the problem of the formation of a cultural personality more urgent [3; 9].

As the second pedagogical principle, we consider the principle of orientation towards humanitarian values.

The specificity of the educational sphere is determined by the socio-economic and political context. Command-administrative pedagogy was replaced by humanistic pedagogy. Humanism (from Lat. – “human, humane”) in the philosophical sense is a historically changing system of views that recognizes the special value of a person as a person, his right to freedom, happiness, development and manifestation of his strengths and abilities, considering the welfare of a person as a priority criterion in assessing activities of social institutions.

From the standpoint of a broader understanding, the humanization of education is the development of educational systems, taking into account the recognition of one of the priority values of the personality of the teacher and the student, the harmonization of their interests, relationships and conditions for their developed and self-development.

The next principle of formation of readiness for intercultural communication is the principle of tolerance. The term “tolerance” (from the Latin “tolerantia” - patience) is interpreted as the body’s ability to endure the adverse effects of one or another environmental factor and as tolerance for other people’s opinions, beliefs, and behavior [1].

So, the next principle of the formation of intercultural relations is the principle of the dialogue of cultures. Education and culture are inseparable. This means that the education sector should be interested in initiating and actively supporting the idea of a dialogue of cultures. The dialogue of cultures is seen as a necessary element of teaching English. According to L. Porsche, teaching English can never be independent of teaching the culture it serves. In his opinion, interpenetration in this process is inevitable, and it is better to understand one's own culture through the perception and understanding of the other [4; 126].

A student of a foreign language must master intercultural competence, its main components, which are: knowledge and understanding of their own culture, comprehension of the picture of the world of another socioculture, the ability to see the similarities and differences between the communicating cultures, and mastery of the skills of intercultural dialogue. [5; 109].

In the process of learning English, it is necessary to explain to students that the center is not only the culture of the linguistic majority, but also the culture of various groups of people. This will just allow students to form an idea of cultural diversity as a norm for the coexistence of cultures in the modern multicultural world. In turn, this will contribute to the formation of tolerance towards representatives of other cultures.

**REFERENCES:**

1. Bondyreva, S.K. Tolerance (introduction to the problem) / SK Bondyreva, DV Kolesov. - M.: Publishing house of the Ministry of State Social Communications; Voronezh: MODEK, 2003 .- 240 p.
2. Polat, E.S. New pedagogical and information technologies in the education system. M.: Academy, 1998 .- 272 p.
3. Safonova, V.V. Studying the languages of international communication in the context of the dialogue of cultures and civilizations. Voronezh: Istoki, 1996, 238 p.
4. Khaleeva, I.I. Secondary linguistic personality as a recipient of a foreign text // Language - system. Language - text. Language is ability. - M., 1995. - 160 p.
5. Tsvetkova, T.K. Teaching a foreign language in the context of the socio-cultural paradigm / Tsvetkova T.K.// Questions of philology. - 2002. - No. 2. - P.109-115

**O`ZBEKISTONDA MILLIY UMUMBASHARIY QADRIYATLARNING  
TIKLANISHI VA MADANIYAT TARAQQIYOTI.**

Mingbayeva Feruza Mamarajabovna.

Surxondaryo Viloyati "Termiz" davlat muzey-qo'riqxonasi  
katta ilmiy xodimi

**Annotatsiya:** *Maqolada ma'naviy meros qadim zamonlardan beri ajdodlarimiz, ota-bobolarimizdan bizgacha etib kelgan ma'naviy boyliklar siyosiy, falsafiy, huquqiy va diniy qarashlar, axloq odob me'yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san'at asarlari majmui yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tafakkur, ma'naviy merosimiz, axloqiy qadriyatlar, an'ana, urf-odat, ilm-fan, axloq, huquq, adabiyot, san'at.*

Jamiyat ma'naviyati mamlakat taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Shu narsa haqiqatki, biron-bir mamlakat o'z ma'naviy imkoniyatlarga tayanmay, odamlar ongi, tafakkurida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg'otmay turib, yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi. Tarixdan ma'lumki, mamlakatimiz bir necha bor ajnabiy bosqinchilar hujmiga duchor bo'lgan, qaramlik va julm ostida qolgan. Buning oqibatida xalqimizning boy ma'naviy merosi, urf-odatlari qadrsizlanishga mahkum bo'lgan. Ona tilimiz, boy ma'naviy merosimiz qadrsizlantirildi, ko'plab masjidu-madrasalar, milliy maktablar, tarixiy yodgorliklar buzildi, qarovsiz qoldi. O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan kundan boshlaboq mamlakatimizda boy ma'naviy merosimizni tiklash va rivojlantirish, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Ma'naviy meros qadim zamonlardan beri ajdodlarimiz, ota-bobolarimizdan bizgacha etib kelgan ma'naviy boyliklar siyosiy, falsafiy, huquqiy va diniy qarashlar, axloq odob me'yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san'at asarlari majmuidir. Ma'naviy qadriyatlar, boyliklar inqilobiy yo'l bilan hosil qilinadigan hodisa emas, u jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida uning ehtiyojlari tufayli yuzaga keladi va o'sha davr hayotini aks ettiradi, u jamiyat o'zgarishi bilan yo'qolib ketmaydi, keyingi avlodlar uchun meros bo'lib qoladi. Har bir avlod ma'naviyatni yangidan yaratmaydi, balki mavjud ma'naviy merosga tayanadi. Biroq uni qanday bo'lsa shundayligicha, ko'r-ko'rona qabul qilavermaydi, taraqqiyparvarlik, insonparvarlik, adolat nuqtai nazaridan qabul qiladi va rivojlantiradi.

Istiqlol tufayli milliy madaniyatimiz, jahon sivilizasiyasi taraqqiyotiga bebaho hissa qo'shgan buyuk bobokalonlarimizning ma'naviy merosi qaytadan o'rganildi va tiklandi. Xalqimiz ulardan bahramand bo'la boshladi. Mustaqillik yillarda xalqimiz ma'naviyati yulduzları bo'lgan buyuk allamalarimizning tavallud topgan tarixiy sanalari YuNESKO bilan hamkorlik mamlakatimizda va xalqaro miqyosida keng nishonlandi. Shuni aloxida aytish mumkinki. Voqelikdag'i muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiyaxloqiy, madaniyma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat

uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat va boshqalar hisoblanadi. Ijtimoiy fanlarning qaysi sohasida qadriyatga mga doir tadqiqot olib borilgan bo'lsa, bu tushunchaga shu jihatdan ta'rif berishga intilishgan.

Qadriyat» tushunchasi juda keng tushuncha. Uning bir qismi ma'naviy qadriyatlardir. Milliy ma'naviy qadriyatlar «milliylik», «ma'naviyat» va «qadriyat» tushunchalari kesishgan nuqtada jamlangan ijtimoiy hodisalarini o'z ichiga oladi. Milliy madaniyatning birlik va hamkorlikka, millat tarixini xolisona anglashga, milliy til va madaniyatni qadrlashga, milliy axloq-odob va boshqa ma'naviy xislatlarni saqlashga xizmat qiluvchi tomonlari milliy ongning negizini tashkil etadi. Bundan tashqari, agar milliy ongimiz to'xtovsiz yuksala bormasa, mustaqilligimizning ma'naviy zamini mustahkam bo'lmaydi. Chunki milliy ong mustaqilika yo'naliш beradi, xalqini yaktan, yakdil qiladi. Shu bilan birgalikda milliy ong muayyan millat va xalqning ijtimoiy birligi, ijtimoiy shart sharoitlari, urf-odatlari, an'nalari, turmush tarzi asosida vujudga kelgan kishilarning (millat yoki xalqning) xissiyotlari, kechinmalari, tushunchalari, qarashlari, g'oya va nazariyalari majmuuni ham anglatadi. Milliy ong mahalliy borliqni (ijtimoiy borliqni) aks ettirsada, u hech qachon sust bo'lmaydi. Aksincha, milliy ong ajdodlarning avlodlarga qoldirgan ma'naviy merosi orqali yangi sharoitda vujudga kelgan muayyan ta'lim va tarbiya jarayoni bilan qo'shilib rivojlanadi. Shu bois ta'lim tarbiyaning milliy ongining shakllanishi hamda taraqqiy etishdagi o'mni va ahamiyati nihoyatda ulkandir.

Ta'lim-tarbiya tizimini ana shu asosda qayta ko'rib chiqish hozirgi davrda ayniqsa muhimdir. Bu esa, o'z navbatida, ilm-fan, axloq va huquq, adabiyot va san'at oldiga bir qator masalalar qo'yadi. Binobarin, mакtab yoshlarga fan asoslardan bilim beribgina qolmay, balki ularni tarbiyalaydi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga ko'maklashadi, komil inson degan oliy maqsad sari etaklaydi. Umuminsoniy qadriyat esa butun insoniyatga, jahon xalqlariga tegishli bo'lgan ma'naviy boyliklardan tashkil topadi. Milliy qadriyat, avvalo tarixiy hodisa ekanligi bilan ajralib turadi. U bir kun yo bir yilda shakllanmasdan, balki insoniyatning milliy ma'naviy tarixi, millatning ma'naviy kamol topish jarayoni bilan bog'lanib ketadi. Milliy qadriyatning asosiy belgisi va o'zagi, milliy axloq, milliy histuyg'u, milliy ruhiyat kabi masalalar bilan bog'liq, shu bilan birga, milliy qadriyatda milliy manfaat masalalarini ham o'rganib chiqish maqsadga muvofiqdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. J. O. Tolipova. "Pedagogik kvalimetriya". T.: 2015.
2. M.Mirsolieva., G.Ibragimova . Ta'lim texnologiyalari va pedagogik mahorat. T. 2015

MATEMATIKA FANIDAN DARS O'TISH JARAYONIDA  
O'QUVCHILARNING FAOLLIGINI OSHIRISH HAMDA DIDAKTIK  
O'YINLARNING AHANIYATI

Mirzakulova Zamira Davronovna  
*Samarqand viloyati Urgut tumani 62-maktabning  
matematika fani o'qituvchisi*

**Annontatsiya:** *Ushbu maqolada matematika fanidan dars o'tish jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish hamda boshlang'ich sinflarda dars o'tishda didaktik o'yinlarning ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Matematika, dars jarayoni, o'quvchi, o'qituvchi, interfaol, boshlaqng'ich, didaktik o'yinlar.*

Hozirgi kunda o'quvchilarni matematika faniga bo`lgan qiziqishlarini yanada oshirish maqsadida darslarni didaktik o'yinlar orqali tashkil etilmoqda. Ta`lim-tarbiya jarayonida pedagogning innovatsion texnologiyalarni qo'llashi, o`quv jarayonini yangilangan dastur va standart talablariga javob beradigan darslar asosida tashkil etish, o'quvchilar bilim, ko`nikma malakalarini oshirish zarurdir.

Darslarda didaktik o'yinlardan foydalanish natijasida o'quvchilar to`g`ri va aniq fikrlay olish, xulosalarni to`g`ri qabul qilish, muammolarni birgalikda hal etish, hayotda o`z fikriga ega bo`lish ko`nikmalari shakllanadi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilariga dastlabki matematik tushunchalarni o`rgatish ushun o`qituvchi ta`limning eng qulay usullaridan foydalansa maqsadga muvofiq bo`ladi.

Bunda didaktik o'yinlarning ahamiyati juda katta. Shuning uchun o'quvchilarga berilayotgan bilimlar ularning yosh xususiyatiga muvofiq o`yin tariqasida tashkil etiladi. Bunday o'yinlar orqali o'quvchilar matematika fanidan darslikda berilgan, o`zlashtirish qiyin bo`lgan mavzularni oson o`zlashtiradi va shu bilan birga atrof-muhit, voqealarini kuzatishga, solishtirib ko`rish, ular to`g`risida fikrlash, ulardan to`g`ri xulosa chiqarishga o`rganadilar. O`quvchilarni matematika faniga qiziqtirish va bilim, ko`nikma va malaka egallashga yordam beradi.

Didaktik o'yinlar asosan ta`lim jarayonida yosh xususiyatlari va tayyorgarliklariga qarab amalga oshiriladi, ularga bilim va ma'lumotlar berishni yengillashtiradi, ta`limda ko`rgazmalilikni ta`minlashga yordam beradi. Ayniqsa, matematika darslarida olib boriladigan ta`limiy o'yinlarning ahamiyati katta. O`yin faoliyati bolalarning jismoniy va psixik jihatdan har tomonlama rivojlanishi uchun hizmat qiladi. O`quvchilarning tabiatiga mos tushuvchi o'yinlar o`quv -tarbiyaviy jarayonni faol tashkil etishga yordam beradi.

Didaktik o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati tajribada shuni ko`rsatdiki, ular hamjihatlik va intizomlilikni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o`yin g`alaba qozonishga intilish bilan bog`liq bo`lib, o`yin shartlari va qoidalariga qat`iy.

“Kim aniqroq va tezroq”, “Bo`sh kelma”, “Eng yaxshi hisobchi”, “Ko`rganni eslab qolish” kabi o'yinlarni o'tkazish paytida o'quvchilarni sinf xonasida jumjilik bo`lishiga,

ularning o`zlarini tuta bilishlariga, partadan tovush chiqarmay turib, oyoq uchida doskaga chiqa olishlariga, joylariga osoyishtalik bilan kelib o`tirishlariga, tovushlarni diqqat bilan tinglashlariga, narsalarga zehn bilan qarashlariga yordam beradi.

Didaktik o`yinlarda tirishqoqlik, matonatlilik, boshlagan ishini oxirigacha yetkaza bilish, eng kerakli irodaviy sifatlar tarbiyalanadi. Didaktik o`yinlar orqali o`qituvchi bilan o`quvchilar orasida yaqinlik, hamkorlik paydo bo`ladi. O`quvchilarda tortinchoqlik, uyatchanlik kabi fazilatlar yo`qolib, o`ziga ishonch paydo bo`ladi.

Didaktik o`yinlarda tirishqoqlik, matonatlilik, boshlagan ishini oxirigacha yetkaza bilish, eng kerakli irodaviy sifatlar tarbiyalanadi. Didaktik o`yinlar orqali o`qituvchi bilan o`quvchilar orasida yaqinlik, hamkorlik paydo bo`ladi. O`quvchilarda tortinchoqlik, uyatchanlik kabi fazilatlar yo`qolib, o`ziga ishonch paydo bo`ladi.

Matematika o`qitish metodikasi eng avvalo kichik yoshdagi o`quvchilarni umumiy tizimda o`qitish va tarbiyalash vazifasini qo`yadi..Har bir bo`limni o`qitishning o`ziga xos xususiy metodlarini o`rgatadi. Xususiy metodika matematika o`qitishning asoslangan metodlarini va o`qitish formalarini, shuningdek o`quv faoliyatini tashkil qilish yo`llarini ko`rsatadi. Ma'lumki o`qitish tarbiyalash bilan o`zaro mustahkam bog`liqdir.

Ushbu metodika o`qitishni tarbiyalash bilan qo`shib olib borish yo`llarini o`rgatadi. Boshlang`ich matematika o`qitish metodikasi bir necha fanlar bilan chambarchas bog`liqdir.

- 1) O`qitish asosi bo`lgan matematika bilan;
- 2) Pedagogika;
- 3) Psixologiya;
- 4) Boshqa o`qitish metodikalari bilan (ona tili, mehnat ...).

Boshlang`ich matematika o`qitish kursi o`quv predmetiga aylangan.

Shunday qilib, didaktik materialarni o`quvchilarning o`quv materialini o`zlashtirish darajasini nazorat usullaridan biri sifatida qarash lozim. Shu bilan birga muayyan usul mazkur sinf, mazkur o`qituvchi uchun eng yaxshi usul bo`lmasligi ham mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

- 1.cyberleninka.ru
- 2.fayllar.org
- 3.hozir.org
- 4./arxiv.uz/
- 5.<https://arm.tdpushf.uz>

**BOLALARNI MAK TABGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH****Nazarova Sevara Furqat qizi***Jizzax viloyati Baxmal tumani**10-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi*

**Annontatsiya:** *Ushbu maqolada bolalarni maktabga psixologik tayyorlashda hamda bolalarni intelektini oshirish to'g'risida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Bolalar, tarbiyachi, psixologik, fizioligik, qobiliyat, rivojlanish.*

Bolani maktabga tayyorlash - bu maktabgacha yoshdagi bolada bo'lishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning butun doirasidir. Va bu nafaqat zarur bilimlarning to'liqligini o'z ichiga oladi.

Xo'sh, maktabga sifatli tayyorgarlik nimani anglatadi? Rossiya Fanlar akademiyasining Rivojlanish fiziologiyasi institutida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolani maktabga tayyorlash bo'yicha ishlar 6-7 yoshdagi bolalar rivojlanishining psixofiziologik qonunlarini hisobga olgan holda qurilishi kerak. Aks holda, biz rivojlanishni rag'batlantirmasligimiz mumkin, lekin uni sekinlashtiramiz. L.S.ning tezisini yodda tutish muhimdir. Vygotskiy "faqat bolalikdagi ta'lim yaxshi, bu rivojlanishdan oldin boradi va rivojlanishga olib keladi. Ammo bolaga faqat u allaqachon o'rganishga qodir bo'lgan narsani o'rgatish mumkin".

Maktabga qabul qilish bolaning hayotida yangi yosh davri - boshlang'ich maktab yoshi boshlanishini anglatadi, uning yetakchi faoliyati ta'lim olishdir. Olimlar, o'qituvchilar va ota-onalar maktab ta'limi nafaqat samarali, balki ularga g'amxo'rlik qilayotgan bolalar uchun ham, kattalar uchun ham foydali, yoqimli, kerakli bo'lishi uchun barcha sa'y-harakatlarini qiladilar.

Maktabgacha ta'lim tizimining eng muhim vazifasi - bu bolaning shaxsini har tomonlama rivojlantirish va uni maktabga tayyorlash. Bola qaysi yoshda maktabga borishiga qaramay, o'qishga oldindan tayyorgarlik ko'rish kerak.

Bolalarni maktabga tayyorlash - bu bola hayotining barcha sohalarini qamrab oladigan ko'p qirrali vazifa. Uning mazmuni o'quv jarayonida bolaga taqdim etiladigan talablarning ma'lum tizimini o'z ichiga oladi va u ularga bardosh bera olishi muhimdir.

L.I. Bozovich ta'kidlaydi: "... maktabgacha yoshdagi bolani beparvoligi, tashvishi va mas'uliyati bilan to'la hayot bilan almashtiradi - u maktabga borishi, maktab dasturi bilan belgilanadigan fanlarni o'rganishi, o'qituvchi talab qilgan narsani sinfda bajarishi kerak; u maktab rejimiga qat'iy rioya qilishi, maktabdagi xulq-atvor qoidalariga bo'ysunishi va dastur tomonidan belgilangan bilim va ko'nikmalarni yaxshi o'zlashtirishiga erishishi kerak."

Muallif maktabga kirayotgan bolada ma'lum bir qiziqish, ijtimoiy pozitsiyani o'zgartirishga tayyorlik, o'rganishga bo'lgan ishtiyoq rivojlanish darajasi bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi; bundan tashqari, u vositachilik motivatsiyasi, ichki axloqiy holatlar, o'z qadr-qimmati bo'lishi kerak.

- qat'iy tartibga solingan maktab tipidagi o'qitishdan voz kechish;

- turli xil shakllarda bolalarning jismoniy faolligini ta'minlash;
- ta'limni tashkil qilishning turli shakllaridan, shu jumladan bolalarning turli xil maxsus faoliyatidan foydalanish;
- faoliyatning bolalarning kundalik hayoti, ularning mustaqil faoliyati (o'yin, badiiy, konstruktiv va boshqalar) bilan o'zaro bog'liqligini ta'minlash;
- tezlikldan foydalanish va o'quv mazmunini loyihalashtirish;
- bolalar faoliyati mazmunini funksional ravishda simulyatsiya qiladigan va uni boshlaydigan rivojlanayotgan mavzu muhitini yaratish;



Shu bilan birga, bolalarni maktabga tayyorlash masalalarining dolzarbligi boshlang'ich maktab to'rt yillik o'qish davriga o'tganligi bilan bog'liq bo'lib, bu bolalar bog'chasi va maktab ishlarida uzluksizlikni tashkil etishda muvofiqlashtirilgan o'zgarishlarni talab qildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://fayllar.org/>
2. [hozir.org](http://hozir.org)
3. <https://monster-evo.ru/>
4. [Archive.uz](http://Archive.uz)

**PAXTA TOZALASH ZAVODLARIDA PAXTANI QABUL QILISH VA  
DASTLABKI ISHLASHNI TASHKIL ETISH.**

**Otabayev Muxammad Faxriddim o'g'li**

*Guliston Davlat Universiteti 2-kurs magistranti*

**Yuldasheva Dilorom Xusniddin qizi**

*Guliston Davlat Universiteti 2-kurs magistranti*

**Annotasiya:** Bugungi kunda paxta xom ashyosidan olinadigan mahsulotlar kundalik hayotimizdan tashqari sanoatning turli tarmoqlarida ham keng foydalanilmoqda. Yuqori sifatli tola olish uchun xo'jalikda g'o'zaning tezpisharligi, hosildorligi, kasalliklarga, joyning tuproq-iqlim va boshqa noqulay sharoitlarga chidamliligi bularning hammasi g'o'zaning eng maqbul seleksion navlarini tanlash va ularni oqilona joylashtirishga bog'liq. Paxta tozalash sanoati uchun tola chiqishi, uning chigitdan oson ajralishi, pishiqligi kabi ko'rsatkichlar katta ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar :** Oqdaryo-6 navi, Buxoro-6 navi, Qo'l terimi –I/I navi Qo'l terimir –I/2 navi, Mikroneyr, Klassifikator, Dag'al tola.

Paxta tozalash sanoati uchun tola chiqishi, uning chigitdan oson ajralishi, pishiqligi kabi ko'rsatkichlar katta ahamiyatga ega. Mazkur korxonalarda sifatli mahsulot etishtirish hamda ish unumdoorligini oshirish, daromadni ko'paytirish yuqoridagi omillarga bog'liq. Hozirda, mamlakatimizda tayyorlanayotgan paxta tolasini 2020 yildan boshlab 100% o'zimizda qayta ishlab tayyor mahsulotni eksport qilish masalasi dolzab hisoblanadi. Dunyo bozorida tolanning oqligi, ifloslanish darajasi va ayniqsa, mikroneyr ko'rsatkichiga alohida e'tibor beriladi. Mikroneyr ko'rsatkichi 4,8-4,9 dan yuqori bo'lsa tola dag'al hisoblanadi va jahon bozorida raqobat qilaolmaydi. Dag'al tolanning xarid narxi ham past bo'ladi. Paxta tolasiga narx belgilashda asosiy va maqbul ko'rsatkich 23,5-26,4 gk/teks uning solishtirma uzilish kuchi hisoblanadi. Namunani olish uchun shiypon qilish kerak, bu shiyponning ichida namunalarni quyosh nuridan va issig'idan, chang, yog'in-sochindan asrash uchun, hamda chigitli paxtaning namligini va iflosligini aniqlash maqsadida namunalarni idishlarda saqlashga himoyalangan joy ajratish kerak. Tekshirish uchun olingan bir bo'lak chigitli paxtaning ma'lum bir qismi namuna bo'lib hisoblanadi. Bir nuqtadan olingan namuna - ayni bir paytda uyumning bir joyidan olingan namunaga aytildi. Umumlashtirilgan namuna - nuqtadan olingan namunalar seriyasidan tashkil topgan namunalar hisoblanadi. O'rtacha kunlik namuna - bir qancha birlashtirilgan namunalardan iborat bo'lgan namunalar turkumiga aytildi. Har bir xo'jalikdan bir kun davomida olingan namunalar to'plami umumlashgan namunalar hisoblanadi. Chigitli paxtani nuqtali namunasining namligi va iflosligi bo'yicha asbobiyl tajriba uchun qopqog'i zinch yopiladigan kichkina idishga joylashtiriladi. Idishga paxta topshirgan xo'jalik nomi, idish ichiga esa ma'lumotnomasi (unda to'plam tartibi (partiyasi), terim turi, sanoat navi, seleksion navi, terilgan sana) yozib qo'yiladi. Mayda idishlarga joylab olingan chigitli paxtaning namunalari 6-8 kg hajmidagi katta idishlarga solinadi (katta idishning taxminiy o'lchami: bo'y 0,7 m va eni (diametri 0,4

m). Katta idishga paxta topshirgan xo'jalik nomi, bo'lim yoki brigada, seleksion va sanoat navi, terim turi, uyum tartibi yorliq (etiketka) ga yozib qo'yiladi.

Masalan:

Uyum № 9 Uyum № 6  
Oqdaryo tumani Oqdaryo tumani  
“Mustaqillik” j/x “Mustaqillik” j/x  
Oqdaryo-6 navi Buxoro-6 navi  
Qo'l terimi –I/1 navi Qo'l terimi –I/2 navi  
Urug'lik paxta-R1 05.10.2016 yil  
25.09.2016 yil

Katta idishlar qizdiruvchi asboblardan uzoqlikda maxsus ajratilgan joylarda yoki laboratoriyalarda joylashtiriladi. Og'irligi 3-4 kg dan kam bo'limgan o'rtacha kunlik namuna qabul qilish kuni bo'yicha yig'iladi, u bo'yicha bir kunda bir marotaba namunaning namligi va iflosligi har bir xo'jalik jamlangan uyumlar qirqimidagi bo'lim yoki brigada uchun laboratoriya tahlillari o'tkaziladi. Namunalarni bunday tahlildan o'tkazish terimning turiga seleksion va sanoat navlariga va boshqa belgilariga qarab aniqlanadi. Bu namuna paxtaning namligini nazorat qilish zarur bo'lganda foydalanish uchun bir sutka mobaynida saqlab turiladi. Namunalarni namlik va iflosligini bilish maqsadida analiz olishda (ajratish, aralashtirish va boshqalar) hamda og'irligini tortishni iloji boricha tahlildan oldin va keyin iloji boricha o'tkazilishi kerak. Taftish nazorat qilishda hamma holatda birinchi ko'rsatkichdan (nisbat) prosentlar quyidagi farqlar bo'lishiga ruxsat etilad: Ifloslanishi bo'yicha - 10 % namuna bir qaytarilishda, namligi 5 % namuna esa uch qaytarilishda. Agar namunaning birinchi va taftish nazorat qilish natijalari bo'yicha olingan ko'rsatkich farqlanish mana shu yuqorida ko'rsatilgan chegaradan baland bo'lmasa, unda birlamchi tahlil to'g'ri deb topiladi. Munozara, baxs va baholash paytida sifatga bo'lgan va paxtani topshiruvchi ishtirokida paxta punktining klassifikatori hamma navlar uchun har 2 tonna paxtaning uchta joyidan nuqtali namuna oladi. Hamma olingan namunaning umumiyligi og'irligi 1 kg dan kam bo'lmasligi kerak. Har bir katta idishga o'rtacha kun bo'yicha olingan namunalarga sifatlarga ajratuvchi kishi shakl № 2-XL bo'yicha paxtani tahlil qilish natijalari ma'lumotlarini yozib qo'yadi. Bu ma'lumotga namuna olgan sinfga ajratuvchi kishi va xo'jalik paxtasini topshiruvchi kishi imzo qo'yadi. Klassifikator paxtani navi, namligi va iflosligini aniqlab, natijalarini shakl №2-XL ma'lumotnomasi va laboratoriya jurnaliga yozib boradi va qo'l qo'yadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

- 1.O“zDst 615-2008. Paxta. Texnikaviy shartlar.
2. O“zDst 643-2006. Paxta. Namuna tanlab olish usullari.
3. O“sDst 644-2006. Paxta. Ifloslikni aniqlash usullari.
4. O“zDst 604-2001. Paxta tolasi. Texnikaviy shartlar.
5. O“zDst 614-2009. Paxta tolasi. Namuna tanlab olish usullari.
6. O“zDst 619-2009. Paxta tolasi. Solishtirma uzilish kuchini aniqlash usullari.

## TEXNOLOGIYA FANINI ASOSIY JIXATLARI

Qambarova Gulnigora Anvarovna

*Andijon shahar 27- umumiy o'rta talim maktabi  
texnologiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada texnologiya fanini asosisy jixatlari, innovatsion texnologiyalardan foydalanishning foydali jihatlari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so`zlar:** *Ilg`or pedagogik texnologiyalar, texnologiya fani, interfaol metodlar.*

Yangi O'zbekistonda buyuk o'zgarishlar "Islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun" degan ezgu g'oyaga xizmat qilmoqda. Jonajon Vatanimiz milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'yib, barcha soha va tarmoqlarda demokratik yangilanish jarayonlari amalga oshirilayotgan bugungi kunda biz uchun bebafo ne'mat bo'lgan mustaqillikning qadr-qimmati va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6-aprelda "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb- hunar ta`limining davlat ta`lim standartlarini tasdiqlash to`g`risida"gi 187-sonli Qarori bilan tasdiqlangan texnologiya fanidan o`quvchilarga kompetensiyalarni shakllantirishga yo`naltirilgan davlat ta`lim standarti va Xalq ta`limi vazirligining 2017 yil 3-iyundagi "Umumiy o'rta ta`limning davlat ta`lim standartlari talablari asosida takomillashtirilgan o`quv dasturlarini tasdiqlash va amliyotga joriy etish to`g`risida" gi 190-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Texnologiya fani o`quv dasturi asosida texnologiya faniga yangidan bo`lim va bo`limga oid mavzular kiritilishi haqida alohida to`xtalib o`tilgan.

Amaliy mashg`ulotlar o`quvchilarning kasbiy va mehnat ko`nikmalarini rivojlantirib, mustaqil kasb tanlashi, ijodkorlikka, hunar egallashiga zamin yaratadi. Shunday ekan texnologiya fani o'qituvchilari ilg`or pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalangan holda darsni tashkil etishlari, o`quvchilarning o`zlashtirish darajasiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

O`qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo`lib, o`qituvchi oldindan tayyorlangan sxemalarni kompyuter va elek-tron doska yordamida namoyish etib, jarayonlarni multimedya orqali tushuntirish imkoniyatiga ega bo`ladi. Bu esa o`qituvchining ishini ancha osonlashtiradi va vaqtadan unumli foydalanish imkonini beradi.

Misol tariqasida 5-sinf "Qo'l choklari" mavzusini slayd shaklda namoyish etiladigan bo`lsa, mavzuning kengroq yoritilishi va qo'l choklaridan ko`proq namunalar bilan tanishtirish imkoniyatiga ega bo`linadi.

Bugungi kundagi texnologiya fani xonalari ham zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan jihozlanishi ta`lim berish jaryoniga ijobiy ta`sir etadi.

Darsda ko`rgazmali qurollar va texnik vositalardan foydalanishning ahamiyatini ta`kidlab o'tishimiz kerak.

Dars jarayonida avvalo natural obyekt asbob, moslama, tayyor detallar va buyumalar, stanok va tikuv mashinalari, yaxlit uskuna va hokazolar, ya`ni o`quvchilar qaysi uskunada

va nima yordamida ishlashlari kerak bo`lsa, shularning barchasi ko`rgazmali qurollar elektron didaktik vositalar hisoblanadi.

Bundan tashqari texnologiya fani jarayonida plakatlar, sxemalar, modellar, maketlar va boshqa tasviriylar ko`rgazmali qurollardan ta`lim vositasi sifatida foydalaniladi.

Ko`rgazmali vositalar tomosha emas, balki bilim olishning manbai, izlanuvchanlik, ijodkorlikka o`rgatuvchi omildir.

Ko`rgazmalilik maqsad emas vosita ekanligini, tushuncha va bilim aniq dalil va ko`rgazma bilan samarali ekanligini unutmasligimiz kerak.

Dars jarayonida faqat ko`rgazmali vositalardan foydalanib cheklanib qolmasdan, ta`lim sohasida rivojlanib borayotgan yo`nalishlardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarni o`quv jarayonida qo`llash yaxshi samara beradi. Bu vazifalarni amalga oshirishda o`qituvchi o`zining ijodkorligi va mahoratidan foydalanishi lozim. Ta`lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, maqsadga erishishning eng maql yo`lidir.

Texnologiya darslarida pedagogik texnologiyalaridan oqilona foydalanish bilan birga ularni ijodiy rivojlanish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun tanlangan metod dars maqsadi va mazmuniga mos bo`lishi lozim.

Shu bilan bir qatorda o`qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o`qituvchi o`quv predmetining o`ziga xos tomonini, joy va sharoitini eng asosiysi, o`quvchining imkoniyati va extiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olish kerak. Shundagina kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Texnologiya fani bo`yicha o`quvchilarga fanga oid kompetensiyalarni shakillantirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birgalikda fanni o`qitishda aniq maqsad sari harakat qilish zarur. O`qituvchi o`z oldiga quyidagilarni maqsad va vazifa qilib olishi kerak:

Fanga bo`lgan qiziqishni rivojlantirish; Ilg`or tajribalarni o`rgatish; Kasb tanlashga yo`llash; Ilmiy dunyoqarashni shakillantirish; Ijtimoiy foydali mehnatga jalg` etish”

Ushbu vazifalarning ijobiy yechimini ta`minlash uchun, albatta darslikdagi o`quv materiallarini loyihalashda tarixiy tajriba hamda ilm-fanning eng so`ngi yutuqlariga tayanish zarur.

**Biz quyidagilarni tavsiya qilamiz:** Texnologiya fanida kompetensiyalarni shakllantirishga yo`naltirilgan davlat ta`lim standartini amaliyatga joriy etish yo`llari, fanni o`qitishda pedagogik va axborot texnologiyalarini tadbiq etish orqali ta`lim samaradorligini oshirish, o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish kabi muhim masalalar asosiy maqsad va vazifalar hisoblanadi.

**ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

- 1) O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini bирgalikda barpo etamiz”. “O`zbekiston” nashriyoti.
- 2) Milliy taraqqiyot yo`limizni qat`iyat bilan davom ettiri, yangi bosqichga ko`taramiz. “O`zbekiston” nashriyoti.
- 3) 5-sinf —Texnologiya darsligi.

**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA  
BADIY ADABIYITLARNING O'RNI**

Sayfiddinova O'g'iloy Odil qizi

*Jizzzax viloyati Baxmal tumani 10-sonli Davlat maktabgacha ta'lism tashkiloti  
tarbiyachisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarni tarbiyalashda badiiy adabiyotlarning o'rni va ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Maktabgacha ta'lism, bolalar, tarbiyachi, axloq, adabiyot.*

Maktabgacha ta'lism – ta'lism tizimining ilk bo'g'ini, barkamol shaxs shakllanishi uchun – ilk poydevor. Kelajagimiz egalari bo'lgan bolalarini tarbiyalash davlat ahamiyatiga ega bo'lgan jarayondir, chunki unda jamiyatning barcha a'zolari ishtirok etadilar. Shuning uchun ham respublikamizda ushbu jarayonga xususan, maktabgacha ta'lism tizimiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Zero yoshlar bizning kelajagimiz biz ularga qanchalik ko'p bilim va tarbiya bersak kelajagimiz shunchalik farovon, mamlakatimiz tinch va osoyishta bo'ladi aks holda keljakda o'quvchini o'qitish qiyin bo'ladi, bu nafaqat ma'lum bir bolaning rivojlanishiga, balki umuman jamiyatning ma'naviy va axloqiy salohiyatiga ham salbiy ta'sir qiladi. Bolalarga bilim va tarbiya berishning asosiy manbalardan biri kitobdir.

Tarbiyachi bolalarga tarbiya va bilim berishda asosiy manba bo'lgan matbuot va kitobdan keng foydalanadi. Kitob kichkintoylar fikricha hamma narsani bor, hamma narsaga javob beruvchi vosita sifatida tan olinadi. Bolalarga atalgan kitoblarning maqsadi ularga tabiat ato etgan his-tuyg'ularni o'stirishdan iborat. Bunday kitoblarning bilvosita ta'siri bolalarning aqliga emas balki ularning his-tuyg'ulariga qaratilmog'i kerakuyg'ulariga qaratilmog'i kerak.

Badiiy adabiyot bolalarini aqlan, axloqan va estetik tarbiyalashning qudratli, ta'sirchan quroli sifatida xizmat qiladi, u bola nutqining rivojlantirish va boyitishga ulkan ta'sir ko'rsatadi. Badiiy didning shakllanishida kitoblar muhim rol o'ynaydi. Kitoblar bolalarning yoshiga mos, mavzu va mazmuni bilangina emas, balki shu bilan birga bayon qilish usuli hamda bezatilishi bilan ham ajralib turishi muhimdir. Kichkintoylar, ayniqsa, 2-3 yoshli bolalar uchun atalgan kitoblarda so'zlardan ko'ra rasmlarning ta'siriga katta e'tibor beriladi. Bola kitobdagagi rasmlarni qaytaqayta o'z o'rtoqlariga, kattalarga, qo'g'irchog'iga "o'qib" berish bilan uning mazmunini o'z xotirasida mustahkamlaydi. Kitobdagagi yorqin, chiroyl rasmlar bolalarning badiiy didini tarbiyalaydi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lism tashkilotlarida bolalarini badiiy asarlar bilan tanishtirish, ularda kitoblarga nisbatan mehr-muhabbatni oshirishga katta ahamiyat berilmoqda. Davlat talablari asosida va, albatta, yurtbosimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus doirasida ishlar to'g'ri yo'lga qo'yilib, samarali tarzda olib borilmoqda.

Aynan to'rtinchi tashabbus esa yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan edi.

Kelajak avlodning bolalik chog‘idan kitobga mehr uyg‘otish, mustaqil fikr va keng dunyoqarashni shakllantirish ularning hayot yo‘llarining faravon bo’lishida mustahkam zamin yaratadi. Komil inson bo’lib shakllanishida asosiy o’rin tutad

. Badiiy adabiyot she’riy obrazlar orqali bolaga jamiyat, tabiat hayoti, insoniy histuyg‘ular va munosabatlarni tushunishga yordam beradi, emotsiyani boyitadi. Bolalar badiiy asarlardan estetik va axloqiy tasavvur oladilar. Bugun davlatimizda amalga oshirilayotgan qator islohatlar kelajak avlodning har tomonlama barkamol, jismonan va ma’nan sog’lom, dunyoqarashi keng, insonparvarlik hislatlari yuksak shaxslarning kamol toptishi uchun ta’lim-tarbiya jarayonlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan

Tariximiz, milliy an’analaramiz, qadriyatlarimizning tiklanishi, yoshlarda o’zlishini bilishga bo’lgan hissiyotning kuchayishi xilma – xil axborotlarga bo’lgan ehtiyojning kuchligiga, jamiyatning, davrning tezkor rivojlanishiga munosib, dunyo yoshlari orasida o’z bilimini ko’rsatishga qodir, hozirjavob bo’lishida axborot vositalari va matbuotning o’rni beqiyosdir.



#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. [hozir.org](http://hozir.org)
2. [fayllar.org](http://fayllar.org)
3. <https://moscsp.ru/uz>
4. <https://cyberleninka.ru/>

**SHAHRISABZ TUMANIDAN AFSONAVIY AJDAHOLARNING  
HAYKALCHALARI TOPILDI**

**Xolmatov Oybek Ilhomovich**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi*

*O'zbekiston Milliy unvirseteti*

*Tarix fakulteti 2-kurs magistranti*

Qashqadaryo viloyati Shahrисabz tumani Eshonqishloq qishlog'inинг janubi-g'arbida joylashgan Oq to'g' Ota va Bobo Arslon qabristonlari oralig'ida kichik xo'jalik ekin maydoni mavjud bo'lib, bu hudud yuzasida ko'p yillardan buyon behisob sopol siniqlari yoyilib yotadi. Yosh arxeolog Oybek Xolmatov tomonidan manzilgohning shimoli-g'arbida arxeologik qidiruv ishlari olib borildi. Tadqiqot ishlari jarayonida bu yerdan ko'plab moddiy manbalar qo'lga kiritildi.

Jumladan: ikkita sopoldan ishlangan ajdaholarning haykalchalari topildi. Bu topilmalar davri va shakli jihatidan o'z qimatiga ega.

Birinchi topilma uch shoxli ajdaho terakotikasi bizgacha faqatgina bosh qismi saqlanib qolgan xolos. Loyi qizg'ish rangda, yuz tuzilishiga keladigan bo'lsak, bosh chanog'iga nisbatan bo'yin qismi kattaroq bo'lib, bo'yin orqa tomonida qirrali bo'rtma shakl berilgan. Tumshuq sohasi kichik, og'zi o'yma shaklda ochiq holda ishlangan. Ko'zlari yuzidan doira shaklida bo'rtib chiqqan, qorachig'i chuqurroq qilib ishlangan. Shoxlariga keladigan bo'lsak, ikkita shoxi bir deometrda o'rtasidagi shoxi esa ularga nisbatan uzunroq va orqaga qayrilgan.

Ikkinci ajdar haykalchasi birinchi topilmaga nisbatan kattaroq va shakli jihatidan ham keskin farq qiladi. Bosh va bo'yin qisimlari bir xil deometrda ilon shaklini eslatadi. Bu tirakotada shox o'rniga quloqlar mavjud. Joylashuvi esa bosh va bo'yin tutashgan qismida. Peshonasiga esa bo'rtma shaklida ishlov berilgan bo'lib, burun qismiga kelib tugagan. Ko'zlari bo'rtma, qorachig'i chuqurroq qilib ishlangan. Og'iz qismi shikastlangan. Bu shakldagi haykalchalarni yasashga nima turki bo'lgan, nimaga asoslangan? Yoki bu ajdaholar mavjud bo'lganmi? Shunisi qiziqliki, hozirgi kunda ham Bobo Arslon qabristonida ajdaho mavjudligini mahalliy aholi hech ikkilansmasdan so'zlab beradi. Ajdaho behisob boyliklarni qo'riqlab yotarmish, ayrim hollarda kechalari daryodan suv ichishga tushganini ko'rganlar hayajon bilan voqeani so'zlab berishgan.

Ajdaholar sayyoramizning turli burchaklarida istiqomat qiladigan ko'p xalqlarning ertak va afsonalarida uchraydi. Ular ulkan, ilonsimon, odamlarga sirtdan dahshat solib turuvchi maxluq tarzida tasvirlanadi. Ertaklarda ko'plab ajdaholar behisob boyliklarni qo'riqlagani haqida ma'lumotlar keltiriladi. Shuni aytish lozimki, odamlar ba'zi paytlarda ajdaholar chindan ham borligiga ishonishgan. Dengiz sayyoohlari go'yo dengizlar qa'rida yashovchi, ajdaholar kemalarni yamlamay yutib yuborishadi, deya, cho'chib, notanish dengiz yo'llaridan suzishga ahyon-ahyon jur'at etganlar. O'z-o'zidan ayonki, ular yanglishganlar, chunki ajdaholar faqat ertak va afsonalarda yashaydi.

Manzilgohdan topilgan ajdaho haykalchalari shundan dalolat beradiki, qadimgi davrda ham bu afsonalar mavjud bo'lgan. Mahalliy haykaltaroshlarning afsonaga bag'ishlangan bo'rtma ijod maxsuli bo'lgan albatta.

**SUN'iy INTELEKT TIZIMI ASOSIDA O'ZBEK-RUS TILLARI NUTQINI  
TA'LIM ALGORITMLARI VA MOBIL TA'MINOTINI YARATISH**

**Ziyadullayev Zuxriddin Ilxom o'g'li**

*Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot  
texnologiyalari universiteti Kompyuter injineringi fakulteti  
Multimediya texnologiyalari 213-20-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Ko'pgina dasturiy ilovalarni ishlab chiqishda turli xildagi dasturlash tizimlaridan foydalaniлади. Sun'iy intellektda qo'llaniladigan eng yaxshi dasturlash tili sifatida ko'rsatadigan mukammal dasturlash tili yo'q. Rivojlanish jarayoni ishlab chiqilayotgan AI ilovasining kerakli funksionalligiga bog'liq. AI hozirgacha biometrik razvedka, o'ziyurar avtomashinalar uchun avtopilotlar va boshqa loyihalarni ishlab chiqish uchun sun'iy intellektni kodlash uchun boshqa tillarni talab qildi. Ushbu maqolada, sun'iy intelekt tizimi asosida o'zbek-rus tillari nutqini ta'lim algoritmlari va mobil ta'minotini yaratish bo'yicha fikr yuritiladi. Bu esa o'z navbatida bir nechta soha va tarmoqlarning ham rivojlanishiga hissa qo'shadi.

**Kalit so'zlar:** Sun'iy intellekt, AI dasturlash tizimi, ilovalar ishlab chiqarish, o'zbek va rus tillari, ta'lim algoritmlari, mobil ta'minot, zamonaviy dasturlash tizimi, C++, Java, Python, LISP va prolog.

To'rtinchchi sanoat inqilobi (4IR yoki 4.0) ning hozirgi davrida raqamli dunyoda internet, kiberxavfsizlik ma'lumotlari, mobil ma'lumotlar, biznes ma'lumotlari, ijtimoiy media ma'lumotlari, sog'lijni saqlash ma'lumotlari asosan sun'iy intellekt orqali boshqariladi. Bu ma'lumotlarni oqilona tahlil qilish va unga mos keladigan aqli va avtomatlashtirilgan ilovalarni ishlab chiqish uchun sun'iy intellekt (AI), xususan, mashinasozlik va axborot texnologiyalari haqidagi bilimlar kalit hisoblanadi. Bu hududda nazorat ostida, nazoratsiz, yarim nazoratli va mustahkamlovchi ta'lim kabi har xil turdag'i mashinalarni o'rganish algoritmlari mavjud. Hozirgi kunda sun'iy intellekt kundalik hayotimizning har bir sohasiga kirib kelganga o'xshaydi. Mashinalarni haydashdan tortib, pollarni supurishigacha, AI ilmiy fantastiyani ancha oldin tark etib, ilmiy haqiqatga aylandi.

Sun'iy (kompyuter) intellekt - informatika va kompyuter texnikasining eng istiqbolli sohalaridan biri. Sun'iy intellekt sohasidagi ishlar an'anaviy intellektual muammolarni hal qilish uchun kompyuter tizimlarini (o'qitish, ekspert, konsalting, robot va boshqalar) loyihalash usullari, vositalari va texnologiyalarini yaratishga qaratilgan. Aniqlangan dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan oddiy dasturchilardan farqli o'laroq, sun'iy intellekt sohasidagi mutaxassislar bu funktsiyalarni shakllantira oladilar, bu har qanday dasturiy mahsulotni ishlab chiqishda eng muhim vazifalardan biridir. Sun'iy intellekt nima? Sun'iy intellekt - informatika fanining alohida bo'limi bo'lib, u inson aqlining imkoniyatlarini kompyuter yordamida amalga oshirishga qaratilgan. Sun'iy intellekt tez rivojlanmoqda. Bugungi kunga kelib, sun'iy intellektni yaratish uchun ko'plab echimlar taklif qilingan.

Sun'iy intellekt mashinalarning intellektini anglatadi. Bu odamlar va hayvonlarning tabiiy aqlidan farq qiladi. Sun'iy intellekt yordamida mashinalar o'rganish, rejalashtirish, fikrlash va muammolarni hal qilish kabi vazifalarni bajaradi. Shunisi e'tiborga loyiqliki, sun'iy intellekt - bu inson aqlini mashinalar yordamida simulyatsiya qilish. Sun'iy intellekt 4 toifaga bo'linadi:

➤ Reaktiv mashinalar - vaziyatlarga javob berishi mumkin. Shunisi e'tiborliki, shaxmat dasturi mashhur shaxmat afsonasi Garri Kasparovga qarshi g'alaba qozondi. Bu mashinalar, albatta, o'tmish tajribasidan foydalanib, kelgusini xabardor qila olmaydi. U barcha mumkin bo'lgan variantlarni tahlil qiladi va eng yaxshisini tanlaydi.

➤ Cheklangan xotira - bu sun'iy intellekt tizimlari o'tmishdagi tajribalardan foydalanib, keljak haqida ma'lumot beradi. O'z-o'zidan boshqariladigan mashinalar bunga yaxshi misol bo'la oladi. Bunday mashinalarda qaror qabul qilish tizimlari mavjud. Avtomobil yo'llarni o'zgartirish kabi harakatlarni amalga oshiradi.

➤ Aql nazariyasi - bu boshqalarni tushunishni anglatadi. Eng muhimi, bu boshqalarning e'tiqodi, niyati, istagi va fikri borligini tushunishdir. Biroq, bu turdag'i AI hali mavjud emas.

➤ O'z-o'zini anglash-bu sun'iy intellektning eng yuqori va murakkab darajasi. Bunday tizimlar o'z-o'zini anglashga ega. Bundan tashqari, ular ong, ong va hissiyotlarga ega. Shubhasiz, bunday texnologiya hali mavjud emas. Bu texnologiya, albatta, inqilob bo'ladi.

Sun'iy intellekt tizimi asosida o'zbek-rus tillari nutqini ta'lim algoritmlari va mobil ta'minotini yaratishda biz 2-tur sun'iy intellektdan goydalanamiz. Til o'rganuvchilarga so'z boyligini kengaytirish uchun vaqt kerak bo'ladi (ko'p hollarda umr bo'y), lekin tilni ishlatuvchilarning jumlalar tuzilmalarini qanday boshqarishi bilan bog'liq bo'lgan asosiy "ravonlik" ni yaratish, so'z boyligining mustahkam to'plamini yaratishga qaraganda ancha kam vaqtni oladi. Darslar va haftalik rejalar qo'llaniladigan an'anaviy yondashuvlardan farqli o'laroq, sun'iy intellektning tillarga (o'zbek -rus) iqtisoslashib, ular algoritm da turli xildagi ilovalarda uyg'unlashishi orqali zamonaviy va talaba-o'quvchilarning til o'rganishlarida interfaol yondashuv bo'ladi. Bu orqali yaratilgan ilovalar foydalanuvchilari intervalli takrorlashdan foydalanishni tan olishadi, bunda o'quvchi uchun qiyin bo'lgan narsalar tez-tez takrorlanadi, muvaffaqiyatli o'rganilganlar esa keyinchalik ko'rib chiqish uchun saqlanadi.

Python sintaksis soddaligi va ko'p qirraliligi tufayli sun'iy intellektni rivojlantirishda dasturlash tillarini sevuvchilar orasida. Python dasturchilar uchun mashinani o'rganishni rag'batlantiradi, chunki u C++ va Java -ga qaraganda ancha murakkab. Bu juda ko'chma til, chunki u Linux, Windows, Mac OS va UNIX kabi platformalarda ishlatiladi. Shuningdek, u interfaol, talqin qilingan, modulli, dinamik, ko'chma va yuqori darajadagi xususiyatlarga ega, bu uni Java -dan ko'ra o'ziga xos qiladi. Java va C++ bilan taqqoslaganda, Python tezroq rivojlanadi.

Mashina tarjimasi va inson nutqini tushunish borasida o'zbek va rus tillarining algoritmini ta'lim hamda texnologiya tizimiga olib kirishda turli dasturlash tillaridan keng foydalaniladi. Lug'at yordamida odam nutqining jumlalarini tahlil qilish vazifasi sun'iy

intellekt tizimlarida keng tarqalgan vazifadir. Uni hal qilish uchun turli tillardagi iboralarni solishtirishni osonlashtiradigan oraliq til yaratildi. Keyinchalik bu vositachi tilga tarjima qilinishi kerak bo'lgan matnlarning ma'nosini ifodalash uchun semantik modelga aylandi. Semantik modelning evolyutsiyasi bilimlarni ichki ifodalash uchun til yaratilishiga olib keldi. Natijada, zamonaviy tizimlar matn va iboralarni to'rtta asosiy bosqichda tahlil qiladi: morfologik tahlil, sintaktik, semantik va pragmatik tahlil. Bu esa o'zbek tilining sun'iy intellekt uchun algoritmlarini yaratish va o'zbek-ingiliz, o'zbek-rus va boshqalar asosida tezkor, sifatli tarjima hamda til o'rganuvchilar ucbun qulay imkoniyat yaratiladi.

Sun'iy intellektning uzoq muddatli maqsadlariga inson tilini taniy oladigan va mazmunli iboralar yaratish uchun foydalanadigan dasturlar yaratish kiradi. Tabiiy tilni tushunish va ishlatish qobiliyati inson ongining asosiy xususiyatidir. Bu imkoniyatni sun'iy intellekt tizimi asosida o'zbek-rus tillari nutqini ta'lif algoritmlari va mobil ta'minotini yaratish muvaffaqiyatli avtomatlashtirish mobil, elektron, axborot va ta'lif tizimida samaradorlikni oshiradi. Bugungi kunda tabiiy tilni tushunadigan ko'plab dasturlar cheklangan sharoitda muvaffaqiyatli yozilgan va ishlatilgan, biroq umumiy insoniyat va moslashuvchanlik bilan tabiiy tillardan foydalanadigan tizimlar hali ham yo'q. Gap shundaki, tabiiy tilni tushunish jarayoni oddiygina jumla komponentlarini tahlil qilish va alohida so'zlarning ma'nosini lug'atlarda izlashdir. Dasturlar bu vazifani muvaffaqiyatli bajara oladilar. Inson nutqidan foydalanish suhbat mavzusi, unga bog'liq idiomalar haqida keng bilimga ega bo'lishni, shuningdek, noaniqlik, e'tiborsizlik, professionallik, jargon, og'zaki ifodalar va boshqa oddiy odam nutqiga xos bo'lgan boshqa narsalarni tushunishni talab qiladi.

Misol tariqasida "hujumchi", "penalty", "himoyachi", "sardor" va hokazo so'zlarni ishlatadigan futbol haqida gapirish mumkin. Bu so'zlarning har biri bir nechta ma'noga ega va alohida -alohida so'zlar juda tushunarli, lekin ulardan tuzilgan ibora futbolga qiziqmaydigan va bu o'yin tarixi, qoidalari va tamoyillari haqida hech narsa bilmaydigan har kimga tushunarsizdir. Shunday qilib, tabiiy inson tilini tushunish va ishlatishni avtomatlashtirishning asosiy vazifalaridan biri bu bilimlarni yig'ish va tizimlashtirishdir.

Xulosa qilib aytganda, AI dasturlash turli sohalarga aqli texnologiyalarning yana bir darajasini olib keldi va uning potentsiali istiqbollari hali ham inson aql -idrokiga erishish umidida o'sib bormoqda. Buning sababi shundaki, ishlab chiquvchilar inson va tashkilot ehtiyojlarini ko'proq qondirish uchun o'z imkoniyatlarini o'rganishga, tajriba o'tkazishga va amalga oshirishga xizmat qiladi. Zero, zarurat - bu ixtironing onasi. Java, Python, Lisp, Prolog va C ++ - bu sun'iy intellekt uchun ishlatiladigan, dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va loyihalashda har xil ehtiyojlarni qondira oladigan AI uchun asosiy dasturlash tili. Sun'iy intellekt til o'rganuvchilarga mustaqil o'qish vaqtini tejashga yordam beradi, lekin inson tili bo'yicha sherigi yoki yaxshi o'qituvchisiga ega bo'lish oson emas. Shunisi aniqki, bunday vositalar, ayniqsa, an'anaviy o'qitish usullari bilan birgalikda qo'llanilsa, til o'rganuvchilarning tilni mukammal egallashiga katta yordam berishi mumkin. Talabalar bir usulni boshqasidan ustun qo'yishi shart emas, balki o'zlari uchun eng yaxshi keng qamrovli til dasturini yaratish uchun o'zlari yoqtirgan usulni ko'plab variantlar bilan birlashtirishlari kerak. Bu borada agar o'zbek va rus tillari nutqini mukammal tarzda sun'iy intellekt

algoritmiga kiritilib, mobil ta'minoti mukammallashtirilsa, bu deyarli barcha axborot tarmoqlarini aynan Osiyo mamlakatlari, jumladan yurtimizda ham jadallik bilan rivojlanishiga yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. T. R. Mukhallafi. "Using Artificial Intelligence for Developing English Language Teaching/Learning: An Analytical Study from University Students' Perspective" 2020-y 68-69-p
2. New Synthesis, Morgan Kaufmann Publishers, 1998 -- another fine introductory textbook on artificial intelligence. 112-115-p
3. Stuart Russell and Peter Norvig, Artificial Intelligence: A Modern Approach, Second Edition, Prentice-Hall, 2003 -- the leading introductory textbook in the field. 157-p
4. <https://www.telc.net/en/about-telc/news/detail/is-artificial-intelligence-the-future-of-language-learning.html>
5. <https://tuit.uz/specialnost-iskusstvennyy-intellek>
6. Sun'iy intellektning asosiy yo`nalishlari yo`nalishlari <https://fayllar.org/xulosa-foydalanilgan-adabiyotlar.html?page=2>
7. <https://community.uzbekcoders.uz/post/pythonda-sun-iy-intellekt-yaratish-uchun-eng-yaxshi-kutubxonalar-5ef5180d72894c29824bdd06>

**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARNING NUTQ  
QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH**

**Suvonqulova Shohista Sayfiddin qizi**

*Jizzzax viloyati Baxmal tumani 10-sonli Davlat maktabgacha ta'lism tashkiloti  
tarbiyachisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning nutq qobiliyatini rivojlanntirish to'g'risida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Maktabgacha ta'lism, tarbiyachi, bolalar, qobiliyat, rivojlanntirish.*

Maktabgacha ta'lism muassasasida bolalar nutqini rivojlanntirish o'qituvchilar tomonidan turli xil faoliyat turlari bo'yicha amalga oshiriladi: to'g'ridan-to'g'ri o'quv mashg'ulotlarida, shuningdek mashqlar o'tkaziladi, ularning maqsadi nutqning sog'lom tomonini rivojlanntirish va bolalar lug'atini boyitish; Nutqning grammatik tuzilishini va bog'liq nutqni rivojlanntirish bo'yicha o'yinlar va mashqlar o'tkaziladi.

O'qituvchilar o'zlarining mavzularini, qismlarini to'g'ri va aniq nomlash, uning xususiyatlarini, xususiyatlarini turli xil faoliyat turlarida (yurish uchun, guruhda, turli xil rejim jarayonida, o'yinda) tavsiflash imkoniyatidan foydalanadilar. Shu bilan birga, o'qituvchilar vazifani aniq ifodalaydilar, savollarni aniq ko'taradilar. Bu so'zlarni tushunish va ishlatish o'rtasidagi munosabatni saqlab turishga imkon beradi, bu o'z navbatida bolalarning o'z fikrlarini aniq va to'liq ifoda etish qobiliyatini yaxshilaydi, og'zaki muloqotning samaradorligini oshiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning tavsifiy shaklini tezda o'zlashtirishlari uchun ularga jumboqning lingvistik xususiyatlariga e'tibor qaratish, badiiy obrazning go'zalligi va o'ziga xosligini payqashni o'rganish, nutq nimani anglatishini tushunish, aniq va majoziy so'z uchun ta'mni yaratish uchun yaratilgan.

To'g'ri talaffuz, boy so'z boyligi, tinglash, muvofiq so'zlarni va intonatsiyani yig'ish - bularning barchasi nafaqat yuksak ma'naviy madaniyatga, aqlii va aqlii, bilimdon va aqlii kishilarga xosdir. Shunday emasmi, har bir ona bolasini ko'rishni orzu qiladimi? Shu bilan birga, bolaning muvaffaqiyatlaridan mamnun bo'lishini ta'minlash uchun, avvalo, maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanntirishga alohida e'tibor berish kerak, xususan, nutqni rivojlanntirishga e'tibor qaratish lozim.

Hayotning birinchi yilda chaqaloqlarning vokal apparatining asosiy yutuqlari ma'lum ma'noli so'zlarni chalg'itish va talaffuz qilishning ko'rinishi hisoblanadi. Ularning kattaligi kichikroqdir, ularda buzilib qolgan odamlarning soni tushuniladi. 1-3 yoshda maktabgacha yoshdagi bolalar ehtiyojlari kengayishi tufayli faol rivojlanmoqda.



Ushbu bosqichda chaqaloqlar kattalar bilan muloqotga muhtoj. Asosan, bu so'zlashuvni oshirishga yordam beradi, chaqaloqni ko'plik va intonatsiya kabi tushunchalar bilan tanishtiradi. Uch yildan so'ng, ko'plab bolalar tovushlarni talaffuz qilishda muayyan qiyinchiliklarni boshdan kechirishadi. Maktabgacha ta'lif tashkilotida bolada nutqni egallash qobiliyatini jadal rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish lozim. Nutqni rivojlantirishga oid qo'yiladigan asosiy talablar bolani individual qiziqishlarini inobatga olish, mashg'ulotlarni jonli o'tkazish, harakatlanish va sinab ko'rish, original didaktik materiallardan foydalanish.

Hozirgi kunda barcha maktabgacha ta'lif tashkilotlarida nutqni rivojlantirishda yangi pedagogik texnologiya sifatida kompyuter texnologiyalaridan foydalanib kelinmoqda. Kompyuter texnologiyasi nutqni rivojlantiruvchi samarali vositalardan biridir. Shu sababli, ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lif tashkilotlarida ham kompyuter texnologiyalaridan foydalanish faol joriy qilinmoqda.

Hozirgi kunda maktabgacha yoshdagি bolalar uchun mo'ljallangan ko'plab kompyuter animatsion dasturlar ishlab chiqilgan. Ushbu dasturlar bolani diqqat, xotira, tafakkur jarayonlari va nutqini rivojlantiradi. Lekin mantiqsiz yaratilgan ba'zi dasturlar talabga javob bermaydi. Maktabgacha ta'lif tashkilotida kompyuter texnologiyadan foydalanish bolaga kompyuterni o'rgatish emas, balki atrof-muhitga nisbatan qiziqishini orttirish, bolada faol ijodiy faoliyatni shakllantirishga qaratilgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. hozir.org
2. fayllar.org
3. uz.inditics.com
4. uz.tierient.com

## TARBIYACHILIK MASHAQQATLI KASB

**Qurbanova Mohlaroy Raxmatovna**

*Farg'ona viloyati Oltiariq tumani maktabgacha ta'lim bo'limi  
tasarrufidagi 95-sonli Malenkiy universitet tarbiyachisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada tarbiyachilik kasbi haqida bu kasbning qiyinchiligi hamda muhim jihatlari to'g'risida fikr yuritilgan*

**Kalit so'zlar:** Tarbiyachilik, bola, tarbiya, bilim, ko'nikma, maktabgacha ta'lim.

Tarbiyachilik ishi-mas'uliyatli kasblardan biri hisoblanadi. Shu sababli mutaxassis o'z faoliyati davomida psixologiya, gigiyena, ta'lif va pedagogik talablariga javob bera olishi kerak. Odatda tarbiyachi bo'ynida bir guruh bolalarga g'amxo'rlik qilish yotadi. Bu jarayon bino ichida va xuddi shu bilan bir qatorda tashqarida xam o'tkazilishi mumkin. Kutilmagan jarohatlanish vaziyatlarida shifokor kelguniga qadar birinchi tibbiy yordam ko'rsata oladigan darajada bilimga ega bo'lishi talab etiladi.

Tarbiyachi vazifasiga yosh bolalarni maktabgacha bo'lgan tarbiyasi, bilimi bilan belgilangan qoidalar asosida ishlab boradi. Bunga o'qish, chizma, tabiat va og'zaki nutq bilan shug'ullanish kiradi. Mutaxassis diqqatni bir joyga jamlovchi, mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi, nutqni o'stiruvchi va etika-estetikani rivojlantiruvchi o'yinlar, turli xil qiziqarli topshiriqlar bilan bolalarni mashg'ul qiladi. Bolaning sog'ligi va hayoti uchun javobgar shaxs hisoblanadio'yinlar, turli xil qiziqarli topshiriqlar bilan bolalarni mashg'ul qiladi. Bolaning sog'ligi va hayoti uchun javobgar shaxs hisoblanadi.

Men, tarbiyachi, buni tanladi tasodifan kasb... Ammo bolalar bilan ishlash bu to'g'ri tanlov bo'lganligini tushunaman, bu mening kasbim. Agar inson o'z ishini yaxshi ko'rsa, u quvonch va xohish bilan u muvaffaqiyatli ishlaydi, yaratadi, ko'paytiradi, professional tarzda o'sadi va yaxshi natijalarga va muvaffaqiyatga erishadi va bu tanlovdagi asosiy masalani hal qilishdir kasb. Tarbiyachi birinchi, onadan keyin, hayot yo'lida bolalar bilan uchrashadigan o'qituvchi.

Odamlar o'qituvchilar doimo qalblarida bolalar bo'lib qoladilar. Aks holda, bolalar qabul qilmaydi, ularni o'z dunyosiga qo'yib yubormaydi. Bizdagi eng muhim narsa kasb - bolalarni sevish, xuddi shunday sevish uchun, bejizga ularga yuragimni beraman.

Tarbiyachilik kasbi qiyin kasblardan bo'lib tarbiyachi kasbini tanlaydigan inson, avvalo bolalarni sevishi bolani har tomonlama yaxshi ko'rishi kerak. Ko'pchilik odamlar tarbiyachilik kasbini oson kasblardan deb o'ylashadi. Bu noto'g'ri tushunchadir. Uyda bir bolaga qancha vaqt sarflab uni qaysarliklarini ko'tarishning o'zi qiyin. Tarbiyachi esa ko'p bolalarni o'zi qarab parvarishlab katta ma'sulyatni bo'yniga iladi. Har bir bolani injiqligini zimmasiga oladi va har bir bolani ovqatlanishiga kiyim-kechagiga hamda tarbiya va bilim ko'nikmasini zimmasiga oladi.

Jamiyat hayotida tarbiyachi bo'lmoqchi bo'lgan insonlar bolalarni ardoqlab shirinso'z bo'lishi mehribon bo'lishi kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'lif-tarbiyasidagi sifat o'zgarishlar va samaradorlik ko'proq milliy pedagogika tariximizning ildizlari va zamonaviy ta'iim- tarbiya sohasidagi yutuqlari bilan uyg'unlashtirish bilan yuksakdir.

Maktabgacha pedagogika fanining rivojida Respublikamizda olib borilgan bir qator islohotlar, talablar, «Ta'lif to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», shuningdek, «O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lif to'g'risida Nizom», ((Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lif tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari», O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lif Kontseptsiyasi» kabi davlat hujjalari qabul qilindi.

Maktabgacha pedagogikaning nazariy asoslari insonning aqliy kamolotini yuksaltirishga qaratilgan. Maktabgacha pedagogikaning milliy asoslari xalq merosi va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi.

Tarbiya— o 'qituvchi va o 'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o 'rtasida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat bo'lib, tarbiyalanuvchini malum bir maqsadga muvofiq takomilashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta'sir etish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni bar tomonlama shakllantirish, lining xulq-atvori va dunyoqarashini, ijtimoiy ongini tarkib toptirishda xalqning boy mafkuralariga yo'naltirilgan qizg'in faoliyat jarayonidir.

Tarbiya asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma'naviy boyligi va histuyg'ulari rivojlanadi, o'zida ijtimoiy hayotda o'z o'rnnini topish uchun zarur bo'lgan, kishilar bilan o'zaro munosabatni to'g'ri tashkil etishga xizmat qiladigan axloqiy odatlar hosil bo'ladi Tarbiya xususida taniqli o'zbek adibi Abdulla Avloniyning "Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot ~ yo falokat, yo saodat - yo razolat masalasidur" deb aytgan fikrlari barcha millat vakillarining tarbiyasiga mos keluvchi haqiqatdir. Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy va davlat ishidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. <https://lawyer-great.ru/uz/>
2. <http://kasbtanla.uz/so>
3. Fayllar.org
4. hozir.org

МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТ РИВОЖИДА ЕТУК МУТАХАССИСЛАР  
ТАЙЁРЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ

О.Ш.Жонузоков,  
Н.Р.Жураева  
71-Мактаб Ўқитувчиси

**Аннотация:** Мазкур мақолада Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириши стратегиясида рақобатбардош кадрларнинг ўрни ва аҳамияти кўриб чиқилган. Муаллифлар томонидан юқори малакали мутахассислар тайёрлаш иқтисодиётни ривожлантиришининг асосий омили сифатида кўриши таклифи киритилган.

**Калитли сўзлар:** ривожланиши стратегияси, иқтисодиёт реал тармоқлари, малакали кадрлар.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается место и значение конкурентоспособных кадров в реализации Стратегии по дальнейшему развитию Республики Узбекистан. Авторами предложено рассматривать подготовку высококвалифицированных кадров в качестве основного фактора развития экономики.

**Ключевые слова:** Стратегия развития, реальные отрасли экономики, квалифицированные кадры.

**Abstract:** This article discusses the place and importance of competitive personnel in the implementation of the Strategy for the further development of the Republic of Uzbekistan. The authors proposed to consider the training of highly qualified personnel as the main factor in the development of the economy.

**Keywords:** Development strategy, real sectors of the economy, qualified personnel.

Мамлакатимизда олиб борилаётган ислоҳотларнинг янги босқичи бугун макроиктисодий барқарорликни, иқтисодиётнинг юқори ўсиш суръатларини таъминлаб, халқимизнинг ижтимоий-иктисодий шароитларини тубдан яхшилашда асосий замин бўлмоқда. Айни вақтда, тараққиёт йўлимизнинг таҳлили бугунги кунда жаҳон бозорида конъюнктура кескин ўзгариб, рақобат тобора кучайиб бораётганини албатта ҳисобга олишни, шу асосда давлатимизни янада барқарор ва жадал суръатлар билан ривожлантириш учун янгича ёндашув ва тамойиллар билан ишлашни тақозо этмоқда. Бу борада мамлакатимиз Президенти Шавкат Мирзиёев ташаббуси билан ишлаб чиқилган ва жаҳон ҳамжамияти томонидан алоҳида эътироф этилаётган 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантиришнинг бешта йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида белгиланган устивор йўналишлар ва вазифалар айнан ана шу мақсадларга қаратилганлиги билан аҳамиятлидир. Бугунги кунда саноатни янада ривожлантиришнинг янги имкониятларини ишга солиш, худудларнинг мавжуд ҳом ашё ва ресурс салоҳиятидан оқилона фойдаланиш эвазига уларни жадал ва мувозанатли ривожланишини таъминлашга қаратилган чора-

тадбирларнинг кўрилаётганлигини алоҳида таъкидлаш жоиз. Жумладан, ташқи бозорларда рақобатбардош маҳсулот ишлаб чиқарувчи замонавий корхоналарни кўпайтиришга оид фаол инвестиция сиёсати юритилмоқда.

Айни вақтда мамлакатимизда ишлаб чиқаришни модернизация қилиш, уларни энг замонавий, илғор техника ва технологиялар билан жиҳозлаш, инновация жараёнларини такомиллаштириш, илм-фан, техника соҳаларида янги ишланмаларни яратиш ва жорий қилиш, уларнинг ҳуқуқий ва иқтисодий механизмларини замон талаблари асосида ташкил қилишга катта аҳамият қаратилмоқда. Шу билан бирга бугун яратилаётган имкониятлардан янада самарали фойдаланиш, сифатли, арzon ва харидоргир маҳсулотлар ишлаб чиқариш ва хизматлар кўрсатишни йўлга қўйиш асосида хизматлар соҳасида миллий брендларни ташкил этиш, ишлаб чиқарилаётган товар ва маҳсулотларни жаҳон бозорларига “Ўзбекистонда ишлаб чиқарилган” бренди билан олиб чиқиши талаб этилмоқда. Юқоридагилар билан бир қаторда бугунги кунда ижтимоий-иқтисодий жараёнларга мамлакатнинг келажакка йўналтирилган мақсадлари йўлида таъсир кўрсатувчи бошқарув тизимларини, унинг энг илғор усулларини жорий этиш зарур бўлиб қолмоқда. Буларнинг барчаси ўз навбатида замонавий бошқаришни талаб этишидан келиб чиқиб, барча соҳа ва тармоқларга замонавий менежмент ва маркетингни жорий қилиш ва бу соҳада кадрлар тайёрлаш бўйича ўрта ҳамда узок муддатли “Йўл хариталар”ини ишлаб чиқиши тақозо этмоқда.

Бугунги яна бир ўта муҳим вазифа – бу мамлакатнинг экспорт салоҳиятини ошириш ва иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини таъминлашдан иборат бўлмоқда. Жаҳон иқтисодиётида кечеётган мураккаб жараёнлар шароитида ўзимиизда мавжуд имкониятларни янада самарали ишлатиш, иқтисодий ўсишнинг янги омилларини излаб топиш, янги ташқи бозорларни ўзлаштириш, айниқса худудларнинг ресурс солоҳияти ҳамда мавжуд имкониятларидан оқилона фойдаланиш эазига миллий иқтисодиётимизнинг самарадорлигини, унинг рақобатбардошлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирларни амалга оширишимиз зарур. Таъкидлаб ўтилганлар кўп жиҳатдан етук мутахассис кадрларга боғлиқлиги барчамизга аён. Бугунги давр, айниқса, замонавий билим ва малакага эга бўлган мухандис-технологлар, иқтисодчилар, корпоратив бошқарув менежерлари, маркетологлар, шунингдек, ахборот технологиялари соҳасида дастурчиларни тайёрлашни тубдан кучайтириш ва мазкур соҳаларда истеъодли ёшларни қўллаб-кувватлашни талаб қилмоқда. Чунки, айрим тармоқ ва корхоналарда маҳсулот бозорлари ва ташкилот ҳолатини таҳлил қилиш, унинг кучли бош омилларини баҳолаш, стратегик ривожланишини белгилаш, ички ва ташқи хўжалик боғланишларини мувофиқлаштириш, шартномавий муносабатларни тартибга солиш, айниқса, ишлаб чиқариш самарадорлигини таъминлаш ва бошқаришда ҳамон оқсоқликка йўл қўйилаётгани ҳеч кимга сир эмас. Мамлакатимиз Президенти таъкидлаганидек бунга олий маълумотли кадрлар тайёрлашдаги тизимили камчиликлар сабаб бўлмоқда. Инсон омилини иқтисодиётнинг реал соҳалар ва тармоқларини ривожлантиришда асосий омил сифатида қабул қилиш мамлакатимиз олдида турган вазифалардан бири ҳисобланади.

Бугунги шароит ходимлар манфаати ва ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, моддий рағбатлантириш механизмларини тубдан янгилаш, уларнинг бурч ва мажбуриятларини бажаришлари бўйича масъулиятини ошириш, юқори фойда билан ишлашга ундовчи омилларни кучайтиришни талаб этмоқда. Буларнинг барчаси, шубҳасиз, хўжалик юритувчи субъектларнинг юқори малакали, масъулиятли ва етук кадрлар билан қай даражада таъминланганлигига боғлиқ. Бунинг учун таълим тизими, айникса, барча соҳага бўлажак кадрларни тайёрлашнинг таянчи бўлган олий ўқув юртлари фаолиятини замон талаблари асосида янада такомиллаштириш, таълим хизматлари сифатини жаҳон андозалари даражасида таъминлаш масалаларига алоҳида эътибор қаратиш муҳим аҳамиятга эга. Шунингдек, республикамиз ва ривожланган хорижий мамлакатларда тўпланган илғор тажрибани атрофлича ўрганиш, чуқур таҳлил қилиш, кадрлар малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш тизимини мутлақо янгилаш лозим бўлмоқда. Чунки бу жараён мунтазамлик ва давомийликни талаб этади.

Ҳатто энг ривожланган мамлакатларда ҳам кадрлар тайёрлаш, уларнинг малакасини ошириб боришга катта аҳамият қаратилади. Бу борада айникса, Япония, АҚШ ва Евropa мамлакатларида бошқарув соҳасида кадрлар тайёрлаш борасида тўпланган жуда катта тажрибани ўрганиш асосида ўзимизни қадриятларимизни, урфодатларимизни ва халқимиз менталитетини ҳисобга олган ҳолда уларни жорий этиш аҳамиятли бўлади. Давлатимиз раҳбари томонидан олдимизда турган кенг кўламли вазифаларни бажариш учун кадрлар билан ишлашнинг бутун тизимини такомиллаштиришга доир қатор ишларни амалга ошириш лозимлигига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Хусусан, кадрларнинг амалий захирасини шакллантириш, уларни тайёрлаш ва қайта тайёрлашнинг муҳим масалаларини ўз ичига оладиган мақсадли дастурни ишлаб чиқиш вақти келганини, шунингдек, бугунги замон барча соҳалар қаторида илм-фанни ҳам янги босқичга кўтаришни талаб қилаётгани, жамият олдида турган долзарб масалаларни илм-фансиз ечиш қийинлиги, фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграциясини янада такомиллаштириш муҳимлиги алоҳида эътироф этилмоқда. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида ҳам кадрлар тайёрлаш масалаларига устувор аҳамият қаратилган. Айникса, олий ўқув юртлари талабаларини бозор иқтисодиёти талаблари ва иш берувчиларнинг эҳтиёжларига жавоб берадиган йўналишлар ва мутахассисликлар бўйича тайёрлаш ҳамда ишга жойлаштириш борасидаги ишларни такомиллаштириш, олий таълим муассасалари ва илмий-тадқиқот институтлари ҳузурида ихтисослаштирилган илмий-экспериментал лабораториялар, юқори технологияли марказлар ва технопаркларни ташкил этиш юзасидан вазифалар белгилангани эътиборга молик.

Алоҳида таъкидлаш жоизки, Президентимиз томонидан қабул қилинган “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ти Қарор айнан ана шу белгиланган вазифаларни амалга ошириш, ушбу соҳада бугун долзарб бўлиб турган масалаларни ҳал этиш ва хаётга жорий этишнинг кенг камровли ва комплекс чора-тадбирларини кўзда тутаётганлиги билан жуда катта аҳамиятга эга. Шу билан

бирга Қарорда белгиланган чора-тадбирларнинг ҳуқуқий, ташкилий ҳамда молиявий жиҳатдан кафолатланганлиги улар ижросининг кафолатланганлигидан далолатдир. Энди уларнинг рўёби фақат мутасаддиларнинг фидойилигига, масъулият билан ишлашига, белгиланган вазифаларни ўз вақтида ва самарали амалга оширишларига боғлиқ. Бир сўз билан айтганда, бугун мамлакатимизда ҳар бир соҳа ва йўналишда амалга оширилаётган ислоҳотлар изчиллигини таъминлаш юқори билимли ва малакали мутахассисларга, юксак интелектуал салоҳият ва тажрибага эга бўлган кадрларга бевосита боғлиқ. Шу муносабат билан олий таълим тизимида ишлаб чиқаришда кадрларга бўлган талабларни тўлиқ ҳисобга олиш, амалий кўникмаларга эга бўлган мутахассислар тайёрлашга йўналтирилган тартиб жорий этилиши зарур бўлмоқда.

Етук салоҳиятга эга қадрлар келажакда эркин бозор талабларига тўла жавоб берадиган иқтисодиётни бошқариш тизимларини янада мукаммаллаштириш, ишлаб чиқаришни изчил ва мунтазам модернизация қилиб бориш, иқтисодиётнинг ички ва ташки рақобатбардошлигини ошириш, мамлакатимиз экспорт салоҳиятини юксалтириш, ички бозорларимизни сифатли, арzon ва харидоргир маҳсулотлар билан тўлдириш, энг асосийси, халқимиз турмуш фаровонлигини янада юксалтириш каби эзгу ниятларимизга етишишда муҳим омил бўлади.

**TILNI O`RGANISH JARAYONIDA O`SHA XALQNING ICHKI DUNYOSIGA  
KIRIB BORISHNING AXAMIYATI VA XUSUSIYATLARI**

Tojiboyev Islom Odil o`g`li

*Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi*

**Annotasiya:** *Ushbu maqola orqali tillarni bir-biri bilan qiyoslab o`rganish o`z navbatida til tarixini, milatning urf-odatlarini, bayramlari, madaniyati kabi muxim tomonlariga etibor qaratish kerakligi ko`rsatib beriladi. Xar qanday tilni o`rganish jarayonida o`sha xalqning ichki dunyosiga kirib borish muxim ekanligi va ba`zida shunday so`zlar uchraydiki u so`zning ma`nosini faqat o`sha xalq urf-odatlari, madaniyati yoki tarixi xaqida aniq tushunchaga ega bo`lgandagina tarjima qilish yoki tushunish mumkinligi xaqidagi fikr -muloxazalar keltirib o`tiladi.*

**Kalit so`zlar:** *Qiyoslab o`rganish, til tarixini, milatning urf-odatlarini, bayramlari, ichki dunyosi, xalq, tilshunoslik, Qirollik akademiyasi, etimologiya.*

Tilshunoslikning qadimi davri, qadimgi Yunoniston va Hindistondan boshlanadi. U davrda tilshunoslik asosan mantiq yo`nalishiga qurilgan bo`lib, til mantiqning yordamchi vositasi sifatida o`rganilgan. Til fikrni shakllantiruvchi va ifodalovchi qurol sifatida qurilgan. Aristotel qadimi mutafakkirlardan birinchi bo`lib tilning grammatik formalariga e`tibor berdi va so`z turkumlari to`g`risidagi g`oyani rivojlantirdi. O`rta asrga kelib Yevropada hamma ilmiy soxalardagi kabi tilshunoslikda ham turg`unlik yuzaga keldi. Ko`prok qiziqish lotin tiliga qaratilgan edi. Chunki o`sha davrda lotin tili tilshunoslikda hukmronlik qildi, desak mubolag`a bo`lmaydi. U hamma yerda o`qitilar va o`rganilar, dunyoviy va diniy ilmlar lotin tilida olib borilar edi. Shu sababli lotin tili har tomonlama tadqiq qilindi. Ko`proqq lotin tilining yozuv tomoni o`rganildi, u rivojlanmagan til bo`lganligi sababli, og`zaki nutq tomoni, ya`ni tovush tomoni o`rganilmadi. Bularidan tashqari, lotin tili grammatikasi avtomatik tarzda boshqa tillar grammatik normalariga ko`chirib o`rganildi.

XVII asrga kelib tilshunoslikda ancha til materiallari to`planib qoldi va ko`p tilli lug`atlar tuzish davri yuzaga keldi. 1723-yili Ispaniyada qirollik akademiyasi ochildi. Qirollik akademiyasida bir qancha mashxur tilshunos olimlar ijod qilishi uchun sharoit yaratildi. O`sha davrning tilshunos olimlaridan bo`lmish Andres Bello, Amado Alonso, Martin Alonso, Allarcos Lorac ishtirokida bir qancha ispan tili grammatikasiga oid kitoblar va lug`atlar nashr etildi. Bu lug`atlarda xatto ba`zi bir Afrika, Amerika va Lotin Amerika tillari xam kiritilgan. 1490-yili Isidor De Seillyaning etimologiyaga oid lug`ati, 1505 yilda Arab va Kastilya tili lug`ati va Ispanya Qirollik akademiyasi tomonidan 1926-1939 yillari 6 tomlik ensiklopedik lug`at yaratildi.

Ispan monarxi Lorenzo Ervasi Pandura avval italyan, so`ng ispan tilida o`zining mashxur tillar katalogini, ularning bo`linishi, klassifikasiyasi, shevalari

xaqidagi (1800—1804 yillar) asarini chop etdi. U 300 ga yaqin tillar xaqida ma`lumot va 40 tilning grammatikasiga tavsif berdi. Bular esa o`z navbatida ispan tili rivojiga katta hissa qo`shdi. Millatning shakllanishi yozuvli tillarning mustahkamlanishiga olib bordi. Yozuv tilining rivoji Ispanyada, Italiyada, Fransiyada, Germaniyada va Rossiyada normativ grammatikaning tuzilishini taqozo etdi. O`sha davrda Antonio Nebrixaning “Kastilya tili grammatikasi” 1492-y, P.Ramening (1552) «Fransuz tili grammatikasi», I.Uollisning (1653) «Ingliz tili grammatikasi», Lavrentiy Zizaniyaning (1656) «Slovenskaya grammata»si va boshqalar yuzaga keldi.

XIX asrning boshlariga kelib tilshunoslikda yangi bir yo`nalish, izlanish shakllana boshladi. Bu yo`nalishning nomi «qiyosiy-tarixiy tilshunoslik» deb ataladi. Bu yo`nalishning tug`ilishi va oyoqqa turishiga uzoq izlanishlar sabab bo`ldi. Birinchi bo`lib XVI asrda yashagan italiyalik sayyoh va olim F.Sosetti o`zining Hindistonga qilgan safarida qadimgi hind tili — sanskrit bilan italyan tilidagi so`zlarning ajoyib o`xshashliklari, kelib chiqishida bir xillik borligi haqida yozadi. Masalan, u rus tilidagi mama, ispan tilidagi mama yoki brat, tojik tilidagi birodar, tamat yoki pomidor ispan tilida tomate, dat bermoq ispan tilidagi dar, parte qism partiya, bo`lim yoki tashkilot, den –dia, dengi-dinero, marshirovat–marchar, materinskiy–maternal, matros–marino, monax-monje, nash-nuestro va boshqa shunga o`xshash qarindosh—urug`chilikni ifodalovchi so`zlarni ko`zda tutgan bo`lsa kerak. Bu vaqtida sanskritni o`rganishga e`tibor kuchaydi. Olmon olimi F.Shlegelning hind madaniyati va tiliga qiziqlishi tufayli «Hind tili va hindlarning donoligi» asari paydo bo`ldi, unda sanskrit tilining lotin, grek, fors, german tillaridagi o`zak so`zlar bilan yaqinligiga e`tibor qaratildi. Bundan tashqari bu tillarning grammatik strukturasida xam yaqinlik mavjudligi e`tirof etildi.

Shunday qilib, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik quyidagi prinsiplarga asoslandi:

1) Xar bir til boshqa tillardan farqli o`laroq o`z xususiyatiga egadir;

2) Bu farqlar qiyoslashda namoyon bo`ladi;

3) Qiyoslash orqali ko`plab tillar oilalarga guruxlashtiriladi;

4) Qarindosh, oiladosh tillar o`rtasidagi farqlar to`xtovsiz tarixiy o`zgarishlar orqali asoslanishi, tushuntirilishi mumkin, darvoqe tarixiy o`zgarish har bir tilning zaruriy xususiyatlaridandir;

5) Til tovushlari boshqa elementlardan ko`ra ko`proq o`zgaruvchan bo`ladi va ularning bir oila ichidagi o`zgaruvchanligi, so`zning o`zagi, fleksiya va affikslar ba`zan ming yillar davomida o`zgarmay, turg`un bo`ladi. Olimlar tomonidan xatto hind—yevropa «Bobo tilini» to`liq tiklash xam mumkin deyiladi.

Umumiy tilshunoslik nazariyasi buyicha qiyosiy-tarixiy yunalish keyinchalik katta, murakkab evolyusiyaga uchradi. Xozirgi davrda tarixiy — qiyosiy lingvistik o`zga tillar tipologiyasini va madaniyat tarixini jalb etib, ancha muvaffaqiyatli izlanishlar olib bormoqda.

1820 — 1831-yillari Xumboldt tillarni o`rganishning keng qamrovli rejasini tuzadi.

«Tilda nimaiki mayjud bo`lsa — bu absolyut ruh orqali paydo bo`lgan, tillarning har xilligi bu faqat tovush va belgilar har xilligi emas, bu dunyoqarashning har xilligidadir», — deydi Xumboldt. U yozadi: «Xalqning ruhiy (Ma`naviy) o`ziga xosligi va tilning qurilishi shunday bir —biriga chuqur kirishib ketganki, tez orada ularni bitta hodisa deb tan olinadi, hatto ularni bir —birlari orqali ajratib olish ham mumkin. Ongli faoliyat va til o`zlarini qoniqtiradigan shakllarni yaratadilar. Til huddi xalq ruhining tashqi ko`rinishidir, xalq tili uning ruhidir, xalq ruhi esa uning tilidir. Bunday bir butunlikni boshqa narsalarda ko`rish qiyin. Til ruhning doimiy faoliyatidir, tovushni to`xtovsiz fikr ifodasiga aylantiruvchidir». Olimning fikricha, til orqali xalq harakterini ham anglab olish mumkin. Milliy, ruhiy xususiyati orqali tilning o`ziga xosligi ham aniqlab olinishi mumkin. Til avloddan avlodga an`anaviy tarzda o`tadi va xar bir individning til faoliyatani belgilab beradi. Til sistemasining sinxron taxlili tilni tadqiq qilishning muxim vositasidir. Tilda yangiliklar ayrim shaxslar tomonidan yaratiladi, lekin ular barcha so`zlovchilar qabul qilganlaridagina muomalada qoladi. Shuning uchun ham til jamoasi ruxsati xal qiluvchi ma`no kasb etadi. Individ o`z bilganicha til belgisini yarata olmaydi. Shu boisdan til taraqqiyoti psixik yoki fizik sabablarga ko`ra aniqlanmaydi, balki uni ijtimoiy — tarixiy sharoit aniqlaydi.

Buyuk tilshunos Ferdinand De Sossyur (1857—1913) Shveysariyada tug`ildi, millatiga ko`ra fransuz. Uning "Hind— yevropa tillari unlilarining dastlabki tazimi xaqida ma`lumotlar" kitobi tilshunoslikda ma`lum va mashxurdir. 1916 yili Sossyur vafotidan keyin uning shogirdlari o`z ma`ruza daftarlardan ustozlari kursini kitob qilib chiqardilar. Ushbu kitob original g`oyalari, novatorlik fikrlariga to`laligi bilan umumiyl e`tirofga sazovor bo`ldi. Sossyur ta`limotining asosiy qoidalari quyidagilardir: Sossyur til - bu grammatik tizim va lug`at tarkibidir. Nutq faoliyati esa — muayyan xalqning ifoda imkoniyatlari tizimidir. Til bilan nutq sotsial va individual xususiyatlariga ko`ra farq qiladi. Bundan tashqari Sossyur ichki va tashki lingvistikani farqlaydi. Sossyur til tarixini jamiyat tarixi, kishilik madaniyati tarixi bilan bog`laydi. Uning e`tiroficha millat urf — odatlari tilda aksini topadi.

Xulosa qilib aytganda, tillarni bir-biri bilan qiyoslab o`rganish o`z navbatida til tarixini, milatning urf-odatlarini, bayramlari, madaniyati kabi muhim tomonlariga etiborni qaratish kerakligini ko`rsatib beradi. Har qanday tilni o`rganish jarayonida o`sha xalqning ichki dunyosiga kirib borish muxim. Chunki ba`zida shunday so`zlar uchraydiki u so`zning ma`nosini faqat o`sha xalq urf-odatlari , madaniyati yoki tarixi xaqida aniq tushunchaga ega bo`lgandagina tarjima qilish yoki tushunish mumkin bo`ladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. M.E.Umarxo'jayev "Umumiy tilshunoslik" Andijon -2010 y
2. G.Ya.Turover "Posobiye po ustnomu perevodu s ispanskogo yazyka dlya institutov i fakultetov inostrannix yazykov" Moskva ,1980 g
3. M.A.Baranov,A.S .Abduazimov "Umumiy tilshunoslik" Toshkent.,1979 y.
4. B.A.Serebrennikov "Obshcheye yazykaznaniye" , "Vnutrenyaya struktura yazyka" Moskva., 1972g
5. A.Nurmonov "O'zbek tilshunoslik tarixi" Toshkent.

**YUQORI SINF O'QUVCHILARINI HARAKATGA O`RGATISH VA  
MASHG`ULOTLARDA JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH  
PRINSIPLARI**

Zaripova Venera Sergeyevna

Farg'ona shahar 13- umumiy o'rta ta'lif maktabi

2-toifali jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ta'lif tizimida muktab yoshining ahamiyati, yuqori sinf o'quvchilariga harakatni o'rgatish va u orqali umumiy metodik prinsiplarni qo'llash hamda ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirish haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *muktab yoshi, yuqori sinf o'quvchilari, harakat, jismoniy sifatlar.*

Muktab yoshi harakatga o'rgatish uchun eng qulay yoshtir. Xuddi mana shu yillarda bolalar yuqori egiluvchanlikga, kuchli va tez nerv qo'zg'olishiga ega bo'ladilar va shunga ko'ra harakatlarning shartli reflekslarini engil hosil bo'lishi bilan ajralib turadilar. 14-15 yoshda harakat analizatorlarining rivojlanganligi me'yoriga yetadi. Muktobni tugallash davriga kelib o'quvchilar xilma-xil darajadagi harakat malakalariga ega bo'ladigan. Bu o'z navbatida jismoniy mashqlarni, mehnat faoliyatida va ijtimoiy hayotda turmushda, o'zlarining sog'ligini mustahkamlashga, jismoniy tayyorgarlikni oshirishga qo'llay oladilar.

Harakat o'rgatish shug`ullanuvchini jismoniy rivojlanganligi va jismoniy tayyorgarligi hamda jismoniy sifatlarini darajasiga qarab amalga oshiriladi. Katta, yoshdag'i o'quvchilarni harakatga o'rgatishda umumiy metodik prinsiplarni qo'llashga alohida eotibor beriladi.

**Onglilik va faollilik** printsipiga muvofiq yildan yilga bolalar o'rgatilgan harakat faoliyati haqida bilimlarga ega bo'la borishlari, bajarilgan harakat nimaga faqat aynan shunday bajarilishi kerakligi, boshqacha bajarilsa qanday xatolar sodir bo'lishi mumkinligi haqida fikr yurita oladigan bo'lishlari lozim. Bu bilan ularning fikrlash doirasi kengayadi. Kichik yoshdag'i jismlarni ko'rish orqali fikrlaydiganlarda hayotiy misollar bilan, jismoniy mashqning ahamiyati uni kundalik turmushda qo'llanilishi shug`ullanuvchini sog'ligi uchun ahamiyati va boshqalar haqida hayotiy misollar keltirilsa bas. Bundan tashqari, yuqori sinf o'quvchilariga yangi adabiyotlar, sport taktikasi haqida tushunchalar, mustaqil shug`ullanishlari uchun maslahatlar berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Bajarib ko`rsatish prinsipi** o'quvchilarda o'sha harakatlar haqida aniq tushunchalar hosil qilishda muhim rol' o'ynaydi. Kichik va o'rta yoshdagilarda taqlid qilish refleksi juda rivojlangan bo'ladi. ular ko`rsatilgan harakatlarni aynan o'zini, nusxasini, tezda va butunligiga qaytara oladilar. Shuning uchun bu printsipiga rioya qilish o'qituvchidan alohida e'tiborni hamda o'quvchilar bajarayotgan mashqni ahamiyatini mukammal tushuntirish lozimligi talabini qo'yadi.

Yuqori sinf o'quvchilari turli xil tayyorgarliklarni o'tadilar, harakatlarni o'zlarini mustaqil kuzatib baholay olib malakalariga ega bo'lib qoladilar. Mashqlarni yaxshi bajaradiganlarini, yaxshi namoyish qila oladiganlarini tarbiyalash maqsadga muvofiq bo'lib, ulardan o'qituvchilar mashg`ulotlar paytida yordamchi sifatida foydalanishlari mumkin.

**Harakatni bo`laklarga ajratish bilan o`rgatish va o`qitishni individuallashtirish prinsipi** – kichik maktab yoshdagilarga qo`llanganda ayrim harakatlarni ajratib olish va uni aniq bajarishi qiyinroq kechadi. Ular tez charchaydilar va tez tiklana oladilar. Ayniqsa bir xil harakatlar tez charchashni tezlashtiradi. Bulardan tashqari tananing ayrim muskullarini ma`lum muddatga ushlab turish (statik holatdagi) mashqlari tez toldiradi va shuning uchun bunday mashqlarni qillashdan qochish lozim.

**Muntazamlilik prinsipi** harakatga o`rgatish rejalashtirilgan materialni qator mashg`ulotlarda ko`proq qaytarish talabini qillyadi. Mavzu o`zlashtirilgandan so`ngina boshqa vazifaga o`tiladi. Kichik, o`rta va katta maktab yoshdagilar bir yoki bir necha darsni (yoki trenirovka mashg`ulotini) qo`yib yuborishi, ularda tizimli qatnashmasligi, ta`lim jarayoniga salbiy ta`sir ko`rsatadi va o`zlashtirish jarayonini cho`zilishiga sabab bo`ladi.

**Talablarni asta-sekinlik bilan oshirish prinsipi** harakatga o`rgatishda bajarilayotgan mashqni asta-sekinlik bilan qiyinlashtirish, yuklama me`yoriga nisbatan kerak bo`lgan talablarni qo`yish, nerv-muskul jarayonida koordinatsion o`zgarishlar sodir bo`lishi bilan bog`liq qoidalarga rioya qilishni taqazo etadi. Yuqori sinflarda bajariladigan harakat turlarini tez-tez o`zgartirish maqsadga muvofiqdir. Mashq bajarayotganda zo`riqqan muskul navbatdagi muskullarga nisbatan dam berishi amaliyotdan maolum. Muskullarni 5-8 sek oshiq zo`riqqan holda tarang ushlab turish bu yoshdagilar uchun tavsiya etilmaydi. Mashqni bajarish va urinish oldidan o`quvchini ko`p kuttirish tavsiya qilinmaydi. Navbat kutish tik turishdan iborat bo`lmay asosiy harakatni bajarishda ishtirok etmaydigan boshqa muskul guruhlari uchun zo`riqish beradigan harakatlar bilan almashtirilishi, qorin, ko`krak, bel muskullarini rivojlantiradigan, normal nafas olish malakasini shakllantiradigan mashqlarni bajarish tavsiya qilinishi ham mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, mashq uslubiyotini o`smirlarga qo`llar ekanmiz diqqatni, gavdani to`g`ri tuta bilish, ratsional ritmda nafas olish (ayniqsa yurish va yugurish mashqlari)ga qaratishimiz zarur. V-IX sinfdagilar ko`rganini ilib olish qobiliyatiga ega bo`ladilar. Har bir harakatini tez o`rganadilar. Ularda ayniqsa engil atletika mashqlariga qiziqish katta bo`ladi. Mashqlarni bajarishda aynan o`sha mashqni nimasiga kuch sarf qilish yoki mashqdan so`ng mashqni bajarish uchun zo`riqgan muskulni bo`shashtirishni bilishga o`rgatish, chiroyli, yuqori darajali kuch sarflagandagidek harakatlarni bajarishga o`rgatish kerak bo`ladi.

Yuqori sinfdagi bolalarda jismoniy mashqlarni ko`proq kuch talab qiluvchilarini, chidamlilik va boshqa jismoniy sifatlarni rivojlanishiga olib keladiganlarini berish tavsiya qilinadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. F. Xo`jaev, T. Usmanxodjaev. Boshlang`ich sinflarda jismoniy tarbiya, o`quv qo`llanmasi, Tashkent, "O`qituvchi" 1996.
2. A. Abdullaev. Jismoniy tarbiya vositalari. O`quv qo`llanmasi, Farg`ona 1999.
3. Abdumalikov R., Yunusov T.T. va boshqalar «O`zbekistonda jismoniy tarbiya ta`limining rivojlanishi», metodik tavsyanoma., T., UzDJTI nash., 1992
4. Tursunov U., «Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi», o`quv qo`llanmasi, Qukon 1992.
5. <http://library.ziyonet.uz/>

**YANGI O'ZBEKISTONDA ERKIN VA FAROVON YASHAYLIK.****Zokirova Mayjuda Orifovna**

*Farg'onan viloyati Qo'shtepa tumani 26-umumiy o'rta ta'lismaktaabi Boshlang'ich  
sinf o'qituvchisi*

**Annontatsiya:** *Ushbu maqola O'zbekistonning 30yilligiga bag'ishlanadi*

**Kalit so'zlar:** *O'zbekiston, yurt, islohot, kelajak, mustaqillik, ta'lism*.

Bu qutlug‘ yilda mamlakatimiz mustaqilligining 30 yillik yubiley bayramini katta tantana, shoduxurramlik bilan nishonlaymiz. Bu qutlug‘ va shonli ayyom xalqimiz uchun yangi tariximizdagi eng ulug‘ sanadir. Zero, ushbu fursat tarix uchun qisqa davr bo'lsa-da, bunga osonlik bilan erishilgani yo'q.

Binobarin, mustaqillik har bir yurtdoshimiz hayotiga yangicha mazmun, turmushiga farovonlik olib kirdi. Shu sababdan istiqlol degan ulug‘ ne'mat, avvalo, xalqimizga erkinlik va ozod hayotni, barchamizga o'zligimizni anglash tuyg‘usini bergen, Vatanimiz tarixida hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydigan buyuk sana hisoblanadi.

Aytish mumkinki, bu betakror bayram barcha ezgu niyatli insonlarni birlashtiradi, ularning qalbida eng go'zal va olijanob tuyg‘ularni uyg‘otadi. —Inson manfaatlari – hamma narsadan ustun va —Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak tamoyillari asosida fuqarolarning ijtimoiy muammolarini hal etish, huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashdek ezgu ishlarga chorlaydi, kishini.

Bugungi kunda barcha soha va tarmoqlarda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Hududlarda yangi korxonalar ishga tushirilib, ijtimoiy infratuzilma rivojlantirilmoqda. Oldinda yana katta reja va maqsadlar bor.

Bularning barchasi malakali mutaxassislarga bo'lgan talabni oshirmoqda. Chunki har bir sohaning rivoji, loyihalarning ijrosi yetuk kadrlarga bog‘liq.

Shu bois keyingi yillarda ta'lismizimi modernizatsiya qilinib, o'qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalari joriy etilmoqda. Hududlarda yangi, shu jumladan, xorijiy ta'lismuassasalari tashkil etilib, talab yuqori bo'lgan mutaxassislar tayyorlashga sharoit yaratilmoqda

Prezidentimizning qo'shni mamlakatlar bilan yaqin, do'stona munosabat o'rnatishga qaratilgan shaxsiy tashabbusi mintaqada yangi siyosiy haqiqatni shakllantirdi.

Xulosa qilib aytganda, taraqqiyot, yuksalish, obodlik va farovonlik o'zo'zidan bo'lmaydi. Bugun O'zbekistonda qaysi sohani olmang, istiqlol in'om etgan ulkan imkoniyatlar hayotda o'zining yorqin ifodasini topayotganini ko'rasiz. ZOTAN, biz qanday yutuq va natijalarga erishgan bo'lsak, bularning barchasi mustaqillik, istiqlol sharofatidir.

Hozirda O'zbekistonda ta'lismi sohasida ulkan yutuqlar qo'lgaga kiritilmoqda. Yaqin o'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak, sovet mustamlakachiligi davrida O'zbekiston hududida sanoqli ta'lismuassasalari bo'lib, ularning aksariyati talab darajasida bo'lmagan. Ularda yetishib chiqgan mutaxassislar mamlakat aholisining juda oz qismini tashkil etgan.

Ba'zi hollarda odamlar savodsiz hatto oralaridan umumiy 11 yillik ta'limni egallamaganlari ham bor edi.

Bu sovet hukumatining chuqur o'yangan nayrangi bo'lib, o'zbek xalqi uchun yod bo'lgan komunistik mafkura bilan millat ongini zabt etishga harakat qilgan. Shu asnoda xalqni qaramlikda, kuchli tazyiq ostida tutib turish, ularning pirovard maqsadi bo'lgan. Ammo ularning ko'zlagan rejasi amalga oshmadidi, ozodlik ruhi ostida kamol topgan xalqimiz mustaqillik uchun kurash olib bordi va uzoq kutilgan kunga erishdi.

Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab har bir sohaga ulkan e'tibor qaratildi shu bilan bir qatorda ta'lim sohasida ham tub burilish yuz berdi. Yildan yilga yoshlarga ko'rsatiladigan e'tibor ortib bordi. Jumladan, jahonning sanoqli mamlakatlaridagina mavjud majburiy 12 yillik bepul ta'lim tizimi yaratildi. Bir qancha oliy ta'lim muassasalarini biz kabi yoshlarni chuqur ta'lim olishi uchun eng ilg'or ta'lim texnologiyaliri bilan jihozlandi. Buning samarasi o'laroq, o'zbek yoshlari xalqaro fan olimpiadalarida g'oliblik shohsupasiga ko'tarilib kelmoqda. Yurtboshimiz har bir nutqida: "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart" deb takror va takror ta'kidlab kelmoqdalar. Buni biz kabi yoshlarga bildirilgan yuksak darajali ishonch deb bilaman. Buguni o'tmishidan, ertasi bugunidan nurafshon bo'ldan yurtda yashayotganidan faxrlanaman.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.tersu.uz

2 dunyo.info/uz/

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori № 6332. 17.12.2020 yil

4. <https://medium.com/>

## O'ZBEKISTON YOSHLARI-BUZG'UNCHI G'OYALARGA QARSHI

A.N.Davronov

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti,**Qarshi sh., Mustaqillik shoh ko'chasi, 225-uy.*

O'zbekiston mustaqillikka erishgach jahon hamjamiyatida tutgan o'rni yanada mustahkamlandi. Globallashuv sur'atlari ortayotgan, xalqaro raqobat kuchayayotgan jarayonda ko'plab yangi iqtisodiy, siyosiy, ijimoiy va madaniy aloqalarni shu jumladan yangi muammolarni vujudga keltirdi. Yurtimizning kundan kunga o'sib borayotganini uni har jabhada katta qadam tashlayotganini ko'ra olmaganlar tomonidan turli yet g'oyalar kirib keldi. Buzg'unchi g'oyalar xalqlar boshiga qanchadan-qancha kulfatlar keltirdi. Bunga olis va yaqin tarixdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Inson va jamiyat bor ekan, ezgu g'oyalarning ziddi bo'lган zulm va zo'ravonlik, qabohat va jaholat yangi-yangi shakllarda namoyon bo'lishga urinadi. Bugungi globallashuv davrida aqidaparastlik, terrorizm "Ommaviy madaniyat" harakatlarining jahon miqyosida tobora avj olayotgani umuminsoniyat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda. Tahdidlarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirish ma'naviy xavfsizlikning ishonchli vositasidir. Hozirgi kunda jahon siyosatida "Mafkuraviy kurash" tobora avj olib borayotgan bir davrda yoshlarda ayniqsa o'smirlarda "Mafkuraviy immunitet"ni shakllantirish yo'llari dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Bugungi kunda ijtimoiy-ma'naviy muhitni va aholi turmush sharoitini yaxshilash, yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlar ta'siridan asrash masalasi barchamiz uchun eng asosiy masala bo'lib turibdi" deb aytgan so'zлари yoshlarni diniy ekstremizm, terrorizm va "Ommaviy ma'daniyat" balosidan ogohlantirishi, ularni bunday yet g'oyalar ta'siriga tushib qolmasliklari va bunday baloni oldini olish uchun qanday tizimli ijtimoiy profilaktik amaliy ishlarni amalga oshirish kerakligini davlat va jamoat tashkilotlari oldiga bir qator aniq vazifalar qilib belgilab berdilar. Ayniqsa shiddat bilan rivojlanib kelayotgan biz uchun yet bolgan "Ommaviy madaniyat"dir. Bu madaniyat g'arb dunyosida o'tgan asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Uni G'arbda «populyar» yoki qisqartirilgan holda, «pop-kultura» ya'ni «Ommaviy madaniyat» deb atashadi. Garchi «madaniyat» deb atalsa-da, aslida, tub mazmun-ma'nosiga, maqsad-niyatiga ko'ra «Ommaviy madaniyat» chinakam madaniyatning kushandasidir. «Ommaviy madaniyat»da «Pop-muzika» alohida o'rin tutadi. Faqatgina musiqa sohasida emas balki g'arbning adabiyot, televedinea, kino va kiyinish madaniyatidagi yengillik, shahvatparastlik, zo'ravonlik xudbinlik, "Kim kuchli bo'lsa-o'sha haq" degan g'oyalar bizning mentalitetimizga umuman xos emasdir. "Ommaviy madaniyat" targ'ib etayotgan ma'naviy tubanliklar, behayoliklar, qabohatlar naqadar chuqurlashib ketganligini tasavvur etish qiyin emas. Hozirga kelib esa bu tamoyillar yanada g'ovlab, tomir otyapti. Masalan, «pop-muzika»ga xos o'sha ritmik zarbli, qo'shiq niqobidagi alahsirash, valdirashga yaqin didsiz «repp»lar ta'siri dunyo miqyosida tarqalib, milliy mumtoz va xalq musiqa san'ati maqom san'atidan uzoqlashtirmoqda. G'arb davlatlarining ayrimlarida «Ommaviy madaniyat» tarqatayotgan sharmsizlik, hayosizlik hamda

zo'ravonlik targ'iboti yo'lidagi g'ovlar, sud qarorlari asosida, birin-ketin olib tashlanmoqda. Afsuski, yer yuzidagi axborot almashinuvi mislsiz tezlashgan hozirgi globallashuv sharoitida g'arbdagi markazlar bundan foydalanib, boshqa davlatlar va xalqlar o'rtasida g'arb hayoti «jozibalari»ni, jumladan, «Ommaviy madaniyat» ta'sirini «erkinlik shabadalari» tarzida imkon qadar keng yoyishga harakat qilmoqdalar. Muhtaram 1-Prezidentimiz o'zlarining "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarlarida ommaviy madaniyatning zararli xataridan ogohlantirib jumladan, shunday deydilar: "Hozirgi vaqtida axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko'pchilik butun jahonda bamisolli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda". Darhaqiqat, hozirda mobil telefon, kompyuter orqali turli behayo, milliy mentalitetimizga yot bo'lgan har xil uyatsiz, pornografik mavzudagi kliplar, qo'shiqlar, rasmlarni tomosha qilish yoshlarimizning kundalik hayotidagi oddiy holatlardan biriga aylanib bormoqda. Badiiy adabiyotimizda ham ma'naviyatimizga yot bo'lgan "Ommaviy madaniyat"ga xos bo'lgan xarakterdagi asarlar ham ming afsuski, sotuvga chiqarilgan bo'lib, yoshlarimiz tomonidan "sevib" o'qilmoqda. Jumladan, "Daydi qizning daftari", "Milliarderga qo'yilgan tuzoq", "Tiriklayin ko'milgan yigit" kabi asarlardagi tub mazmun balki, tubanlik girdobiga kirib qolgan yoshlarni ezgulik sari yetaklar, lekin undagi berilgan sujetlar bizning millatimizga xos bo'limgan behayolik, uyatsizlik, jangarilik kabi yoshlarimiz ma'naviyatiga salbiy ta'sir qiladigan unsurlar orqali ifodalanganligini hech oqlab bo'lmaydi. "Ommaviy madaniyat"ning eng xavfli tomoni u to'satdan kirib kelmaydi. Avvalo, juda kichik detallar, arzimas veqealar orqali odamlarni o'ziga o'rgatadi, ko'niktiradi. Oxirgi paytlarda internet tarmoqlariga kirsangiz "Ommaviy madaniyat" haqida bir dunyo ma'lumotlarga ega bo'lasz. Lekin ularni ko'pchiligida aynan nimani «Ommaviy madaniyat» deb tushunish kerak ekanligi aytilmagan, nazarimda. Internetni kovlashtirar ekanman bu mavzuda yozilgan ayrim maqolalar, bloglarga ham ko'zim tushdi. Masalan rassom Salvador Dali, Leonardo Davinchi tomonida chizilgan mashhur "Mona Liza" ya'ni "Jakonda" asarini buzib kulgili holatga keltirib Mona Lizaning lablari ustiga mo'ylov chizgan va hunuk "Mo'ylovli Jakonda" asarini yaratgan ekan. Mana shunday achchiq istehzoli, qora mazmunli, kulgi "Ommaviy madaniyat" faoliyatining eng yetakchi belgilaridan biridir deb talqin qilingan. Boshqa saytlarga kirib borar ekanman ushbu tushunchaning g'oyaviy taraflariga e'tibor berilgan. Men internet tarmog'idagi ko'plab maqolalarni, gazeta va jurnallarni o'qib shunday xulosaga keldimki meni tushunishim bo'yicha "Ommaviy madaniyat" bu biror narsani, tushunchani yoki g'oyani ommaviylashishi emas balki biror bir jamiyatdagi odamlar uchun aslida yot bo'lgan qarashlarni yoki avvaldan shakllanib kelgan tushunchalarni boshqacha talqinini ommalashishiga aytilarkan. Masalan, biz olgan tarbiyada qizlarimizning ochiq kiyinishi, yirtiq shimda yurishi sochlarni butunlay olib tashlaganlari yoki bir necha hil rangda bo'yaganlari, yigitlarimizning esa zirak taqib olishganligi, sochlarni o'stirishlari, jamoat joyida qiz va yigitning o'pishishini madaniyatsizlik deb qarash u yoqda tursin, balki bunaqa bo'lishini hatto tasavvurga ham sig'dirish qiyin bo'lishi kerak edi aslida. Lekin, yer yuzini

boshqa mintaqasida bu narsa yillar mobaynida allaqachon oddiy holga aylanib bo‘lgan. Bunday holatlarni komunikatsion vositalar orqali ko‘rgan bizning yoshlarimiz o‘rtasida ham ommalasha borishi o‘sha madaniyatning ta’siridir.

Xulosa qilib aytganda dunyoda ikki kuch bunyodkorlik va buzg‘unchilik hamisha o‘zaro kurashadi. Bunyodkor g‘oyalar insonni ulug‘laydi, uning ruhiga qanot bag‘ishlaydi. O‘zbekistonlik yoshlar har sohada katta marralarga erishmoqda. Jumladan joriy yilda Yaponiyada bo‘lib o‘tgan yozgi olimpiyada o‘yinlarida O‘zbekistonlik sportchilar 5 ta medal sohibi bo‘lishdi: 3 ta “oltin” va 2 ta “bronza”. Tokio-2020 yozgi Paralimpiada musobaqalarida paralimpiyachilarimiz 8 ta oltin, 5 ta kumush va 6 ta bronza medalini qo‘lga kiritishib, terma jamoamiz umumiylis hisobda 19 ta medal bilan medallar jamg‘arish reytingida 16-o‘rinni egalladi. Har birimizning qalbimizda faqat bitta tilak yurtboshimiz ishonchini oqlash, bayrog‘imizni butun dunyoga tanitish, O‘zbekiston yoshlari faqat va faqat 1-o‘rinda turishdir. Biz tadqiq qilayotgan ichki va tashqi tahdidlarning salbiy illatlari har doim ham yaqqol namoyon bo‘lavermaydi. Ammo mayda-chuyda ikir-chikirlar bo‘lib ko‘ringan masalalar kelajak avlod tarbiyasi va milliy ma’naviyatimiz xavfsizligiga chuqr salbiy ta’sir o‘tkazishi mumkin. Bu borada asosiy e’tibor aholining turli qatlam vakillarini, yoshlarni ichki va tashqi tahdidlardan xabardorlik darajalarini baholab borish, milliy urfodatlarimiz va milliy qadriyatlarni avaylab asrash hamda yosh avlodni ajdodlar namunasi asosida tarbiyalash ularda mustahkam mafkuraviy immunitet shakllantirish bugungi kun haqiqatidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI:**

- 1.Sh.M.Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz” Toshkent: O‘zbekiston – 2017.
- 2.Sh.M.Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz” – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
- 3.I.A. Karimov «Yuksak ma’naviyat–yengilmas kuch» T.:«Ma’naviyat», 2008.

**«ДИАГНОСТИКА ЛЕГОЧНОЙ ГИПЕРТЕНЗИИ У БОЛЬНЫХ С  
ХРОНИЧЕСКОЙ СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТЬЮ И ОЦЕНКА  
ЭФФЕКТИВНОСТИ КОМПЛЕКСНОЙ ТЕРАПИИ»**

**Сайдов Камолиддин Шахриддин угли**  
*Магистрант 2 го курса направление кардиологии*  
*Ташкентский Медицинский Академии*

**Аннотация:** в данной статье рассматривается диагностика легочной гипертензии у больных с хронической сердечной недостаточностью и оценка эффективности комплексной терапии. Проблема легочной гипертензии, начальные этапы повышения давления в легочной артерии и др.

**Ключевые слова:** легочной гипертензия, заболевания, терапия, давления, артерия, гипертензия, орган, недостаточность, характер, функция, миокард.

Лёгочная гипертензия (ЛГ) — группа заболеваний, характеризующиеся прогрессивным повышением лёгочного сосудистого сопротивления, что ведёт к правожелудочковой недостаточности и преждевременной смерти. Лёгочная гипертензия протекает тяжело с выраженным снижением физической выносливости и приводит к сердечной недостаточности. Она была впервые выявлена доктором Эрнстом фон Ромбергом в 1891 году. Согласно последней классификации, различают 5 типов ЛГ: артериальная, венозная, гипоксическая, тромбоэмболическая или смешанная.

Проблема легочной гипертензии имеет очень существенное значение при большом количестве клинических состояний. В своей повседневной практике интернист достаточно часто встречается с ЛГ у целого ряда больных. Она закономерно возникает при многих заболеваниях внутренних органов и наблюдается у больных с клапанными пороками сердца, с хронической патологией легких, при васкулитах с поражением сосудов малого круга, при ТЭЛА, при пороках сердца, особенно при наличии большого сброса и многих других. Повышение давления в легочной артерии является закономерным этапом прогрессирования хронической сердечной недостаточности.

Начальные этапы повышения давления в легочной артерии часто остаются незамеченными и нераспознанными. Наиболее часто легочная гипертензия приобретает для врача клиническую значимость только после манифестации синдрома, когда возможности помочь больному оказываются ограниченными. Это обуславливает важность выяснения предикторов возникновения легочной гипертензии при ХСН и ее диагностики на ранних этапах формирования, когда вмешательство более эффективно.

Выявить у больных сердечной недостаточностью, обусловленной ИБС в виде стабильной стенокардии и постинфарктного кардиосклероза, особенности взаимосвязей уровня давления в легочной артерии и характера изменения функции

миокарда левого желудочка для оценки возможностей коррекции легочной гипертензии и профилактики дальнейшего развития Задачи исследования:

1. Оценить частоту возникновения легочной гипертензии при сердечной недостаточности различных функциональных классов у больных ишемической болезнью сердца;
2. Выявить этапы развития ХСН ишемического генеза, на которых начинает происходить формирование легочной гипертензии
3. Оценить степень вклада легочной гипертензии, как самостоятельного синдрома, в клиническую картину ХСН;
4. Выявить взаимосвязь систолической и диастолической дисфункции левого желудочка с развитием и тяжестью легочной гипертензии;
5. Оценить влияние лекарственной терапии периндоприлом у больных сердечной недостаточностью при ишемической болезни сердца на уровень легочной гипертензии.

С нашей точки зрения, заболевания с первичным поражением сосудов малого круга целесообразно передать в компетенцию кардиологов.

Это будет соответствовать интересам больных, поскольку пульмонологи, к сожалению, не имеют достаточного опыта фармакотерапии артериальной гипертензии и сердечной недостаточности.

Критерием функциональных классов классификации NYHA является степень выраженности одышки, усталости и сердцебиения. Значительная часть больных ИЛГ умирает, как правило, внезапно, без признаков застойной сердечной недостаточности. Тяжелая одышка у этих больных является проявлением прежде всего легочной недостаточности вследствие нарушений легочного кровообращения и расстройств газообмена. По степени выраженности одышки, усталости и сердцебиения большинство больных ИЛГ соответствует IV функциональному классу по классификации NYHA. Однако это ни в коей мере не отражает степень нарушений сократительной функции миокарда правого желудочка, что ставит под сомнение возможность использования классификации NYHA у этой категории больных.

С нашей точки зрения, заболевания с первичным поражением сосудов малого круга целесообразно передать в компетенцию кардиологов. Это будет соответствовать интересам больных, поскольку пульмонологи, к сожалению, не имеют достаточного опыта фармакотерапии артериальной гипертензии и сердечной недостаточности.

Вместе с тем, необходимо учесть, что ИЛГ по-прежнему будет относиться к специальности «пульмонология», так как любая специальность в клинической медицине определяется по органному принципу. При ИЛГ поражаются сосуды легких с нарушением основной функции – газообмена. Орган – это легкие, значит, специальность – «пульмонология». Кроме того, в международной классификации болезней 10 пересмотра идиопатическая легочная гипертензия относится к блоку (I 26-I 28), который именуется как «легочное сердце и нарушения легочного кровообращения».

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Журнал "Пульмонология", 2006. — 41 с.
2. Classification of Pulmonary Hypertension (англ.). — 2009.
3. Guidelines for the diagnosis and treatment of pulmonary hypertension (англ.). — 2009.
4. Кардиология. — 1995. -Т.35. -№11. С.4-12.
5. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
6. <http://medical-diss.com/medicina/legochnaya-gipertenziya-u-bolnyh-serdechnoy-nedostatochnostyu>

**ИМОМ МОТУРИДИЙ ВА АХЛИ СУННА ВАЛ ЖАМОА ЭЪТИҚОДИ.****Яхшиликов Абдулазиз***Иномотуридий халқаро илмий тадқиқот маркази  
боши илмий ходими*

Иномотуридий (ваф. 333/944) ва Абулҳсан Ашъарий (ваф. 324/936) салафи солихлардан. Қуръон ва суннат матнлари қатъий ҳал қилган масалаларда улар ҳам бошқалар ҳам ижтиҳод қилишмаган. Масалан имон арконлари: Аллоҳга, фаришталарига, китобларига, росулларига, охират қунига, яхшилик ва ёмонлик тақдирдан эканига имон келтириш масаласида ахли сунна ихтилоф қилмаган. Бу ҳеч кимнинг мазҳаби эмас. Шу ўринда баён қилиш керакки, уларнинг асослари бир хил. Уларнинг барчалари бир овоздан Аллоҳ айтгани рост, ҳақ, Аллоҳни Унинг Ўзидан бошқа ҳеч яхши билмайди, Аллоҳ Ўзини қандай сифатлаган бўлса, У худди шундай, дейишади. Бунда ихтилоф йўқ. Баъзи одамлардан эшитиб қоласиз: Ашъарий ва Мотурудийлар етти ёки саккиз сифатдан бошқа сифатларни инкор қиласи, дейишади. Бу нотўғри. Ашъарий ва Мотурудийнинг китоблари мана олдингизда турибди. Улар Аллоҳ таоло ўзи учун собит қилган барча сифатларни собит қилганини, У Ўзига нисбат беришни инкор қилган ҳамма сифатларни йўқлигини очиқ-ойдин айтиб қўйганлар. Бироқ ижтиҳодга йўл бор бўлган эътиқод масалаларида ижтиҳод қилишган. Эътиқод ҳам бошқа илмлар каби Қуръон ва ҳадислар матнида биринчи, иккинчи, учинчи деб муфассал шаклда баён қилинмаган эди. Улар сизу биз ўқиётган оятлар ва Росулуллоҳ (с.а.в)дан келган ҳадисларда баён қилинган. Эътиқоднинг асли мана шу. Шунга қарамасдан уларни тушуниш инсонларнинг ақлига ташлаб қўйилди. Одамларнинг ақллари бир-биридан тафовут қиласи. Одамлар ўzlари орасидан кимнидир сайлаб мана шу одамни ақлини меъёр қилиб оламиз, дея олмайдилар. Шунинг учун шаръий матнларда қатъий баён қилинмаган масалаларда ақллар учун кенг майдон қолади. Лекин ақллар ваҳий нури билан мунаvvар бўлган бўлиши лозим. Ақл эгалари тақводор, эҳтиёткор, ростгўй, ихлос ва тавба, хушуъ аҳлидан бўлиши лозим. Кимда бу шартлар бўлмаса, агар ижтиҳод қиласа ҳам Аллоҳ унга тавфиқ бермайди. Агар инсонда Аллоҳдан қўрқув, умид, шукр, тақдирга сабр, Унга шубҳасиз имон бўлмаса, у ибодат, зухд ва тавба аҳлидан бўлмаса, Аллоҳ уни яхшиликка муваффақ қилмайди. Албатта тавфиқ берилиши имон ва тақвога боғлиқ.

Аҳмад ибн Ҳанбал, Абулҳсан Ашъарий, Абу Мансур Мотуридий буларнинг барчлари ахли сунна имомларидир. Улар илм, тақво, Аллоҳдан қўрқиши, ўзларининг диёнатлари билан танилган зотлардир. Ҳаммаларининг шогирдлари, издошлиари бор. Улар ҳам ижтиҳод қилишган. Масалан ҳанбалий мазҳабини олайлик. Ҳозирги кунда ҳанбалийлар айтаётган нарсаларнинг барчаси Аҳмад ибн Ҳанбалдан ривоят қилинмаган. Аксинча, ёътиқод борасида улар айтаётган нарсларининг аксари у кишидан ривоят қилинмаган. Мисол тариқасида бир маълумот келтираман. Таъвил мазҳаби ахли суннанинг барча мутааххирларининг мазҳабидир. Ҳатто

ҳанбалийларнинг ҳам. Бу қандай бўлиши мумкин? Биринчи бўлиб таъвил ҳакида ҳанбалийлардан Ҳасан ибн Али ибн Холаф Барбаҳорий (ваф. 329/939) сўз юритган. Чунки улар ўрганиб кўриб, Аллоҳ таоло ўзида собит қилган сифатлар уч турли эканини топишган:

1. Аллоҳнинг сифатлари бўлиб, ақл уларни сифат эканини англайди. Сифат хусусият бўлиб, сифатланган нарса билан чамбарчас боғлиқ бўлади ва ундан ажралмайди. Сифатланган нарсани у орқали тушунтириш имкони бўлади. Сифатламоқчи бўлган нарсани айтиб, кейин сифатлари келтирилса, тушунилади. Масалан “илм” сифатини олайлик. Аллоҳ билувчидир, десак. Бу сифат билан Аллоҳ ҳар бир нарсани билади деб хабар бериш мумкин. Тириклик Аллоҳнинг сифатларидан бири. У тирикдир, тириклиги азалий ва абдаийдир, деймиз. Ирода, қудрат, самъ, басар, қалом. Буларни сифат эканида ихтилоф қилинмайди.

2. Аллоҳ таолонинг афъоллари. Аллоҳ хоҳлаган нарсасини қилади. Аллоҳнинг феъллари бекорчилик эмас, ҳар бири ҳикматдир. Ҳамма иши иродасига мувофиқ бўлади. Уни мажбурловчи йўқ. Аллоҳнинг афъоллари иккига бўлинади:

1. Яратилган мавжудотга ўхшашлиги йўқ бўлган феъллар. Масалан осмонлар ва ерни, инсонни яратиш, пайғамбарлар юбориш, тирилтириш ва ўлдириш, ризқ бериш, йўқдан бор қилиш ва бошқлар.

2. Ўхшашлик бор бўлган феъллар. Бу ерда бир қоида бор. **Аллоҳга ўхшаш бирор нарса йўқ.** Шундай феллар борки, маҳлуқотларда учрайди, номда ўхшашлик бор, моҳият эса бошқа. Истиво, ғазаб, таажжуб, келиш, тушуш ва бошқлар. Булар ҳаммаси афъоллардир.

3. Ақл сифат деб билмайдиган қисм. Бунга еттита нарса киради: важҳ(юз), ядайн(икки қўл), айн(кўз), соқ(болдир), қадам(оёқ), асобеъ(бармоқлар) ва шахс. Буларни ақл сифат деб билмайди. Буларни айтиб Аллоҳ ҳакида хабар бериб ҳам бўлмайди. Масалан Аллоҳ кўз, бармоқ, қадам, соқ деб сифатлаш мумкин эмас. Аллоҳ таоло бу нарсалардан олийдир. Булар барча сифатланадиганларга мувофиқ келавермайди. Сифат бу - ҳар қандай сифатланадиганга тўғри келиши керак. Демак улар аслида сифат эмас. Улар афъоллар ҳам эмас. Бирор киши уларни афъоллар демаган. Унда улар нима? Бу ҳақда На Росууллоҳдан, на сахобалар ва на тобииналардан бирор сўз келмган. Билдикки, табъа тобииналар бу хусусда сўралса, араб тилидан тушуниладиган маъноларга ҳавола қилиб, яратиқларига ўхшашдан Аллоҳ таолони поклашган. Имом Моликдан Аллоҳнинг феълларидан бўлган “Истиво” ҳакида сўрашганда “Истиво маълум, кайфияти номаълум ва унга иймон келтириш вожиб, у ҳақда савол бериш бидъат, деган. Валид ибн Муслим айтади: Абдуллоҳ ибн Идрис, Муоз ибн Муоз, Язид ибн Ҳорун, Ҳушайм ибн Башир Востий, Молик ибн Анас ва Суфён ибн Уйна булар ҳакида сўралса, қандай келган бўлса, шундай иқрор бўлинг, дер эдилар. Улар тасдиқлар, шарх қилмас ва тафсилотига киришмас эдилар. Бу табъа тобииналар тутган йўлдир. Имом Аҳмад ибн Ҳанбал: “Тафсири қироати. Кайфияти ва маъноси йўқ”, дер эди. Қандай бўлса шундай ўқишар ва ундан ундан бошқасига ўтишмас эдилар. Бундай ҳолат аввалги асрда жуда ҳам имкони бор бўлган иш эди. Мусулмонлар адади кам эди. Асосийси уларнинг

барчалари араб тилида гапиришар эдилар. Аллоҳнинг фазли билан бу уммат қўпайди ва тарқалди. Ҳикматига кўра Аллоҳ таоло Набий (с.а.в) ни фақат арабларга юборгандар йўқ. У зот бутун инсониятга юборилдилар. Аллоҳ таоло марҳамат қиласиди:

وَمَا أَرْسَلْنَاكَ إِلَّا رَحْمَةً لِّلْعَالَمِينَ

Биз сени фақат оламларга раҳмат қилиб юбордик. (Анбиё сураси, 107).

Аллоҳнинг динига инсонлар тўп-тўп бўлиб киришди. Форс, турк, хинд, рум ва бошқларни динни қабул қилишди. Бу дин ҳамма учун. Қуръон ҳамма мўминларнинг китоби. Суннат ҳам худди шундай. Пайғамбар алаҳиссалом мендан бир оятни бўлса ҳам етказинглар, деганлар. Савол туғилади: Уларга Аллоҳнинг рисолатини қандай етказамиз? Баъзи оят ва ҳадисларни бекитамизми? Бу умматнинг салафи солихлари улардан сукут сақлаган эди. Ёки бутун Қуръон ва суннтини етказамизми? Ҳаммасини тўлиқ етказмиз. Чунки Ресулуллоҳ барча учун юборилганлар. Уларни бунга ҳақли. Улардан ҳеч нарсани яширилмайди. Бу энди янги масалалардан бўлди. Тўхтанг, бу Абу Бакр, Умар, Усмон замонида бўлмаган дея олмайсиз. Энди сиз Ибн Сирин, Ҳасан Басрий, Нофь, Ибн Аббос Мавлоси Икрима, Қатода ибн Диома, Ато ибн Абу Рабоҳ, Мужоҳид ибн Жабр, Саъид ибн Жубай ва бошқа тобииинлар қилмаган ишни қилаяпсан, улар замонасида бўлмаган, дея олмайсиз. Молик ибн Анас, Суфён ибн Уяйна, Суфён Саврий, Язид ибн Ҳорун, Абдулмалик ибн Журайж қилмаган, улар замонида бўлмаган дея олмайсиз. Чунки олдин бўлмаган янги пайдо бўлган саволлар эди булар. Қайси замонда қандай янги масала пайдо бўлса, ўша замон мужтаҳидлари уларга жавоб беришлари керак. Шундан янги саволларга Қуръон, суннатга суюнган ҳолда ижтиҳод қилиб жавоб бериш бошланди. Масалан ҳанбалийларда таъвилнинг “таъвилул-омм” деган тури бор. Айтадиларки: “Анави етти нарса: юз, кўз, икки қўл, бармоқлар, соқ, қадам ва шахс булар Аллоҳнинг сифатлари, дейишади. Бу гап воқеликда таъвилдир. Ким буларни сифат деган? Набий (с.а.в) улар сифатлар, деб айтганмилар? Йўқ. Бирорта саҳоба айтганми? Йўқ. Бирорта тобииин айтганми? Йўқ. Зарурат бўлингани учун таъвил қилинган. Сиз биродарингизни коғирга, фосикқа, бидъатчига, залолатга кетганга чиқаришингиз, динда йўқ нарсани келтирган дейишингиз нотўғри. Бу ижтиҳод қилиш керак бўлган ўринда қилинган ижтиҳоддир. Улар ана шу ишни бажариб ислом эътидонинг мусаффолигини сақлаб қолишли.

## ЖАЗОИР СИЁСИЙ ҲАЁТИДАГИ ЭСКИ ВА ЯНГИ ЧАҚИРИҚЛАР ВА ТАХДИДЛАР

Расулов Отабек Абдулазизович

*Ислом иқтисодиёти ва халқаро муносабатлар факультети,  
Ёшлар билан ишилаш бўйича декан ўринбосари*

Нисбатан яқинда бўлган раҳбарият ўзгариши ва узок давом этган иқтисодий турғунлик Жазоирда барқарорликнинг давом этишига олиб келиши мумкин, бу ҳам мамлакат хавфсизлиги учун, ҳам бутун минтақа учун, шунингдек, минтақадан ташкари кучлар, хусусан АҚШ, Европа Иттифоқи, РФ ва Хитой манфаатлари учун жиддий оқибатларга олиб келади.

Сўнгги йилларда Шимолий Африка ва Яқин Шарқда экстремистик ва террористик ташкилотларнинг фаоллиги ошганлигини ҳисобга олиб, Жазоирнинг терроризмга қарши курашда минтақавий таянч сифатида аҳамияти сезиларли даражада ошди.

АҚШ Давлат департаментининг 2020 йилги терроризм тўғрисидаги ҳисоботида эълон қилинган ҳисоб-китобларга кўра, халқаро террористик групкалар Саҳара минтақасида фаоллигини давом эттироқда. Жазоир хавфсизлик кучлари Ал-Қоиданинг Мағреб (АҚИМ), Ал-Моурabitun ва ИШИД аъзолари ва унинг Жазоирдаги бўлими Жунд ал-Ҳалифа аъзоларидан ташкил топган террористик тармоқларга фаол қарши. Энди ўзини “ИШИД-Жазоир” деб атайди. Ушбу групкалар Жазоир хавфсизлик хизматлари, маҳаллий ҳокимият органлари ва Фарб манфаатларига ҳужум қилишга уринмоқдалар. Деярли барча террористик ҳужумлар Жазоир хавфсизлик кучларини нишонга олади, қўлбола портловчи мосламалар ва пистирма тактикаларини қўллайди ва мамлакатнинг қишлоқ тоғли минтақаларида фаол ҳаракат қиласди.

Мутахассисларнинг таъкидлашича, Жазоирда террористик групкалар сони камайган, аммо террористик тармоқлар қўшни давлатларда, шу жумладан Ливия ва Малида жангариларни ёллашда давом этмоқда. Жазоир террористик групкалари 2000-йилларнинг бошларида Жазоир мактаблари ва масжидларида янги аъзоларни қидириб топдилар, хусусан ёш ишсизларни нишонга олишди. Жазоир хавфсизлик кучлари томонидан олиб борилаётган мунтазам рейдлар мамлакатда терроризм муаммоси сақланиб қолаётганлигини, агар Жазоир жамиятида ва ҳокимиятнинг юқори даражаларида зиддиятлар кучайиб борса, террористик хавф кучайишини намойиш этади.

Жазоир хукумати террористик ҳаракатларни хавфсизлик аппарати билан бостиromoқда. 2018 йилда кўплаб тозалаш ишлари давомида миллий армия ўнга яқин террорчини йўқ қиласди. 2018 йил январ ойида Ҳенсчелаҳ губернаторлигига катта операция бўлиб ўтди, хавфсизлик кучлари Жазоирда қолган групкаларни бирлаштиришга ҳаракат қилаётган бир груп террорчиларни, шу жумладан Туниснинг АҚИМнинг таниқли раҳбарларини йўқ қиласди. Шунингдек, полиция

мамлакат бўйлаб 50 дан ортиқ террорчиларни ҳибсга олди. Бундан ташқари, аксарияти мамлакат жанубида фаол бўлган 129 жангари қуролларини ташладилар.

2020 йил май ойида Жазоир армияси Жазоирнинг пойтахт жануби-ғарбий қисмида жойлашган Айн Дефла вилоятида серб террорчиларининг етакчиси Аҳмедни йўқ қилди. 1997 йилда у террористик гурухларга қўшилиб, Члефа, Айн Дефла, Тиссемсилт ва Медеядаги террорчиларга раҳбарлик қилди. Шунингдек, Жазоир Мали ва Ливия билан чегаралар бўйлаб ўн минглаб қўшинларни террорчиларнинг босқини ва қурол-яроғ ўтказмаларининг олдини олиш учун жойлаштиргани ҳакида хабар берилган эди. Террористларнинг фитналарини очишда ижобий натижаларга қарамай, разведка маълумотлари Жазоирга тўғридан-тўғри трансчегаравий таҳдидлар сақланиб қолиши ҳакида огоҳлантиради.

2020 йил 17 сентябрда АҚШ Миллий аксилтеррор маркази директори Кристофер Миллер Конгрессга АҚШ разведкасининг глобал таҳдидлар тўғрисида йиллик ҳисоботини тақдим этди ва унда «ИШИД Африкага қараб агресив глобал стратегияни амалга оширишни давом эттириш орқали ўз тикланиш қобилиятини бир неча бор намойиш этди. Ҳозирда гурухнинг дунё бўйлаб 20 та ўзаро боғлиқ гурухлари бор, айниқса Қора қитъада, бу гурухлар тез-тез маҳаллий хуқуқни муҳофаза қилиш идораларига ҳужум қилиб, ўз ҳудудларини кенгайтирмоқда». ИШИД террорчилари Жазоир билан тоғли чегарадан ташқарида, жанг майдонини Тунис учун муҳим зонага қадар кенгайтириш ҳаракатларидан воз кечмайдилар, Африканинг Тропик минтақасида террористик таҳликаси пастроқ бўлган мамлакатларга, хусусан, Кот-ДъИвуар ва Мозамбикка операциялар майдонини кенгайтирмоқдалар.

Ички ва ташки сиёсий ва иқтисодий омилларнинг энг нохуш тўқнашуви билан мамлакатда 2000-йилларнинг иккинчи ўн йиллигидаги вазият яна назоратдан чиқиб кетиши мумкинлиги инкор этилмайди. Диний экстремистик ва қабилавий мухолифат ҳали ҳам Жазоирнинг ички барқарорлиги, шунингдек, Ливия, Марокаш, Ғарбий Саҳара ва Мали билан чегаралардаги нокулай вазият учун муаммо бўлиб қолмоқда. Мамлакат бўйлаб кенг майдонлар ва ЖХДР томонидан бошқарилиши қийин бўлган чегаралар мамлакат ичидағи барқарорликка потенциал таҳдид солмоқда.

Умуман олганда, Шимолий Африкада терроризм таҳдидига қарши кураш соҳасидаги вазият минтақадаги барча давлатларнинг хавфсизлигига таҳдид солувчи бўлиб қолмоқда. Африкадаги террористик гурухлар асосан маҳаллий нишонларга эга эканлиги маълум бўлса-да, улар қитъадан ташқаридаги биродарлари билан тил бириктиromoқдалар, буни маҳаллий Ал-Қоида ҳужайралари ва давом эттиришга уринаётган “Исломий давлат” пайдо бўлди. Африка қитъаси ҳудудида, хусусан Саҳел минтақасида Ирок ва Суриядаги мавқеларини йўқотиб қўйди. Африка қитъасига, юқори ўтказувчанлиги билан ажralиб турадиган давлатлар чегаралари бўйлаб жойлашган ҳудудларга Хорижий террористик жангчилар сони тобора кўпайиб бормоқда. Улар ўз мақсадлари учун маҳаллий аҳолининг норозилиги, қашшоқлик, давлат хизматлари етишмаслиги ва хавфсизликдан фойдаланадилар, трансчегаравий жиноий ҳаракатларда қатнашадилар ва шу билан ҳукumat ва минтақавий

хавфсизликка жиддий таҳдид соладилар. Шу билан бирга, хорижий кучлар кўмаги билан давом этаётган Ливиядаги уруш мінтақадаги террористик фаолиятни кучайтироқда ва Шимолий Африка мамлакатларидағи вазиятга салбий таъсир кўрсатмоқда.

Мамлакатдаги ижтимоий тартибсизликлар Жазоир Демократик Республикаси раҳбариятини терроризмга қарши кураш ҳаракатларидан чалғитиши ва ҳаттоқи Жазоирнинг ўзида турли экстремистик тузилмалар, жангарилар ёллаш ташкилотлари фаолияти учун жой очиши мумкин. Бу мінтақада жиной экстремистик-террористик гуруҳларнинг янада эркин ва потенциал равишида қўшни Европага эркин ҳаракатланишига имкон яратади.

Вазиятнинг бундай ривожланиши қўшимча хавф ва муаммолар билан боғлиқ бўлар эди. Хусусан, Жазоирдаги бекарорлик ва терроризм хавфининг кучайиши ташки кучларнинг, аниқроғи АҚШ ва Европа Иттифоқи давлатларининг ушбу мамлакат ишларига аралашибга бўлган қизиқишини кучайтириши мумкин. Америкалик тадқиқотчи Ж. Портер таъкидлаганидек, “Жазоирдаги бекарорлик Кўшма Штатларнинг мінтақавий шерикларига, шу жумладан Нигерия ва Жанубий Европа мамлакатларига таъсир қиласи, улар Жазоир Демократик Республикасининг жанубида потенциал террористик фаолиятнинг тарқалиши ва ушбу мамлакат шимолидан Европага миграция кўпаймоқда. АҚШ Жазоирдаги воқеалар устидан чекланган таъсирга эга бўлса-да, Вашингтон сиёсий бекарорликнинг кучайиб бориши хавфини бошқариш учун фойдалар чоралар кўриши мумкин, шу жумладан, энг ёмон вазиятда ўз манфаатларини ҳимоя қилиш чораларини кўриши мумкин.”

Мінтақадаги ва Фарбдаги аксарият таҳлилчилар фикрича, ишламай қолган сиёсий тизимлар ва самарасиз иқтисодий сиёсат каби узоқ муддатли муаммоларга қарамай, Жазоир раҳбарияти ва фуқаролар уруши балосини бошдан кечирган оддий аҳоли мамлакатда ички сиёсий барқарорликка катта аҳамият беради. Ушбу омил туфайли Жазоир кўп йиллар давомида мавжуд сиёсий “статус-квони” сақлаб келмоқда.

Шунга қарамай, мамлакат 1988 йилда “сиёсий баҳор” деб номланган даврда юз берган кутилмаган тартибсизлик, нотинчлик ва зўравонлик каби олдиндан айтиш қийин бўлган хавф-хатарларга қарши ҳимоясиз. Ўша пайтда Жазоир иқтисодиёти ниҳоятда паст нефт нархлари сабабли кескин вазиятда эди ва фуқаролик жамияти ҳукуматнинг қонунийлигини шубҳа остига қўйди. Рус олими Р.Г. Ланда, “1980-йилларнинг иккинчи ярмидаги диний фанатизм ҳам, этник ўзига хослик ҳам иқтисодий аҳволнинг ёмонлашуви, даромадларнинг қутбланиши ва юқори ва пастки ўртасидаги фарқнинг тобора ортиб бориши билан тобора кўпайиб бораётган халқ норозилигининг қисман намоён бўлди. Хусусий сектор маъмурлари томонидан рағбатлантириш ижобий натижалар билан бирга денгиз томонига ҳам эга бўлди. 1988 йил октябр ойида мамлакатда бошланган тартибсизликлар сиёсий ва иқтисодий либераллашувга олиб келди, натижада 90-йиллардаги фуқаролар уруши – Жазоирнинг “қоронғи ўн йиллиги” ни келтириб чиқарди.

**ОШҚОВОҚ МАҲСУЛОТЛАРИНИНГ БИОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ.****Исматова М.А.**

*Қарши мұхандисли-иқтисодиёт институты,  
Қарши ш., Мустақиллик шоҳ құчаси, 225-үй.*

**Аннотация:** Мақолада қовоқнинг келиб чиқиши, тарқалиши, навлари, фойдалы хусусиятлари, маркиби ҳақида баён қилинган. Қовоқни инновацион усулда сақлаш ва қайта ишилаш тәклиф қилинган бўлиб, ушибу усул орқали аҳолининг қовоқча бўлган эҳтиёжини йил давомида қондирини ҳамда аҳоли саломатлиги учун овқатланиши рационига кенг кўламда фойдаланиши имконияти яратилади.

**Калит сўзлар:** Қовоқ, микроэлементлар, антиоксидант, тупроқ, фузариоз, низол, уруғ, ҳарорат, шудгорлаш, намлик, препарат, археологик, маҳаллий, зарарқунанда, ҳосилдорлик, раёнлаштириши.

Қовоқ-қовоқдошлар оиласига мансуб бир ва кўп йиллик ўсимликлар туркуми, полиз экини ҳисобланади. Ватани-Шимолий ва Жанубий Америка. Ўрта Осиё, жумладан, Ўзбекистонда қадимдан экиб келинган. Дунёда қовоқнинг 10 та тури бўлиб, ундан 3 таси бир йиллик ва 7 таси кўп йилликдир. Қовоқнинг ўртача оғирлиги 0,5 килограммдан 35 килограммгacha боради. Қовоқ дараҳтининг 2 тури кенг тарқалган. Қовоқ дараҳтининг асл ватани Американинг тропик ҳудудлари ҳисобланади.

Мева фақат тўқ сариқ ва сариқ эмас. Кулранг, чизиқли, қаймоқранг, яшил ва ҳатто тўқ кўк бўлиши мумкин. Ўсимлик бегона ўтлардан қўрқмайди ва ўз-ўзидан ўсаётгандек кўринади. Барча ошқовоқларнинг таъми деярли бир хил. Улар фақат ҳажми, шакли ва ранги билан фарқ қиласди. 20 хил кўриниши ва 50 дан ортиқ навлари мавжуд. Қовоқ 90% сувдан иборат таркибида микроэлементлар ва минераллар, шунингдек мис, цинк, темир, фосфор ва кобальт мавжуд. Қовоқда иммун тизимини мустаҳкамлайдиган, кўз нурини кучайтирадиган, кучли антиоксидантлар мавжуд. Қовоқнинг йирик мевали қовоқ, мускатсимон қовоқ ва қаттиқ пўстли қовоқ каби 3 тури кўп тарқалган. Илдизи ўқилдиз, узинлиги 2 м га боради. Пояси ётиб, чирмashiб ўсади. Барглари (турига қараб) йириқ, тукли, барғ қўлтиғида жингалаклари бор. Гули икки жинсли, йириқ (майда), сариқ, четдан чангланади. Меваси турли шакл ва рангда, эти оч сариқдан тўқ сариқкача. Меваси таркибида 15-18% қуруқ модда, 4-11% қанд, аскорбин кислота, каротин, тиамин, рибофлавин, азотли бирикмалар, 0,7% бириктирувчи тўқима, 0,5% оқсил, 0,2% ёғ, 0,6% кул моддаси, уруғида 20—40% ёғ бор (1-жадвал). Экиш учун тавсия этиладиган навлар: Испанская-73, Кашгарская-1644, Палов каду-268 ва Ширинтой.

**1-жадвал**

**Қовоқ меваси таркибидаги асосий кимёвий моддаларнинг таркиби.**

Курсатгичлар	Қуришишдан аввал	Қуришишдан кейин
Қуруқ модда, %	11.3	91.25
Шакар миқдори, %	4.86	40.20
S витамини, мг %	3.96	13.56
Пектин, %	1.17	11.38
Каротин, мг %	4.71	16.03

Қовоқ мевалари кеч кузда бир марта йиғишириб олинади. Сақлаш учун Испан 73, Қашқар 1644, Палав Каду 268 навлари тавсия этилади. Мўътадил сақлаш учун нисбий намлиги 70-80% ҳисобланади. Испан қовоғи 6 ой, қолганлари 3 ойгача сақланади. Полиз экинлари сақланадиган хоналарни ёғингарчилик ва туман пайтида ёпиб қўйиб ортиқча намгарчиликдан муҳофаза қилиш керак.

Қишлоқ хўжалик маҳсулотларини оддий омборхоналарда сақлашда ўта эҳтиёткор бўлиш талаб этилади (1-расм). Яъни, омборхоналарнинг эшик-деразалари таъмирланиб, ҳарорат совиб кетадиган вақтларда иситиш чораларини кўриб қўйиш мақсадга мувофиқ.



**1-расм Қовоқни омборхоналарда сақлаш.**

Бундан ташқари қовоқни турли усулларда сақлаш мумкин. Буларга турли шаклларда кесиб, қуритиш орқали консерва усулида, ва қуритилган қовоқни ун ҳолатига келтириб сақлаш мумкин. Қовоқни қайта ишлаб унинг унидан нон маҳсулотлари, турли шириналклар, пюре, болалар бўтқаси ва бошқа маҳсулотлар тайёрланади. Қуритилган маҳсулотнинг сақланувчанлиги юқори бўлганлиги сабабли тайёр ва ярим тайёр ҳолатда экспорт қилиш мумкин.

Хулоса қилиб айтганда қовоқ энг қадимги доривор полиз экини ҳисобланиб уни турли усулларда сақлаш қайта ишлаш орқали аҳолининг йил давомида қовоқقا бўлган эҳтиёжини қондириш, унинг дориворлик ҳусусиятларидан фойдаланиш ва экспорт қилиш имконияти яратилади.

**ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:**

1. Ўзбекистон Республикаси худудида экиш учун тавсия этилган қишлоқ хўжалик экинлари Давлат реестри. Тошкент:2020.
2. Касъянов Г.И “Совершенствование технологии криопорошков из плодов и ягод, выращиваемых в предгорных районах Дагестана” Диссертация, Краснодар – 2017.
3. Останқулов Т.Э, Зуев В.И, Қодирхўжаев О. “Мевачилик ва сабзавотчилик” Наврӯз.-Тошкент-2018.

**O`RTA OSIYO XALQLARI E`TIQODIDA ZARDUSHTIYLIKNING  
USTUVOR AHAMIYAT KASB ETISHI**

Qurbanova Go'zal Sayidaxmatovna

*Nizomiy nomidagi TDPU mustaqil tadqiqotchisi*

Inson yaralibdiki, oddiy, soda ko'rinishda bo'lsada o'z diniga ega. Qadimdan bugungi kungacha odamlar yashash uchun qiyinchiliklarni yengib o'tishlari zaminida o'zlari bilmagan holda e'tiqodga ega bo'la boshlaganlar. Keyinchalik esa ular murakkablashib, aniq mexanizmga aylana boshlagan. O'zbek xalqining qadimiyligi e'tiqodlaridan zardushtiylik, uni shakllanishiga sabab bo'lgan ilk omillar va ularning bugungi kunda ham hayotimizda, urf-odatlarimizda, e'tiqodimizda uchraydigan izlari yetarlicha.

Zardushtiylik atamasi dinga nisbatan shartli ravishda ishlatilgan. Bu hol dinni uning payg`ambari nomi bilan bog`lashdir. Aslida Zardusht dini Mazda Yasna deb atalgan, ya'ni Mazdaga, "Mutloq oqil" zotga sig`inish demakdir.

Zardushtiylik an'anasi Yaqin Sharq e'tiqodlarini singdirib, o'lkamizda o'ziga xos e'tiqod yaratdi. Ilmiy adabiyotlarda zardushtiylik dini mil. avv. VII asr o'rtalari bilan ko'rsatiladi. Biroq, keying yillarda olib borilayotgan arxeologik izlanishlarda Qadimgi Baqtriya bronza davri yodgorliklarida zardushtiylikning asosiy belgilarini moddiy madaniyatda namoyon bo'lishini ko'rish mumkin. Aslida zardushtiylik e'tiqodi onashparastlik negizida vujudga kelib, Zardusht ushbu dinni isloh qilib, uni mukammallashtiradi. Qat'iy amal qilish lozim bo'lgan qonunlar majmui "Avesto" yaratiladi.

Zardushtiylik ta'limotiga ko`ra bu dunyoning ibtidosi bo'lganligi kabi intihosi ham muqarrar, ya'ni borliq vaqt, zamon o'lchamida cheksiz emas. Hayot esa yaxshilik va yomonlik, rost va yolg'on, yorug`lik va zulmat o`rtasidagi azaliy va abadiy, doimiy va kelishtirib bo`lmaydigan kurashlardan iborat. Yorug`lik, yaxshilik va ezgulik kuchlarini Axura-Mazda va muqaddas ruh "Spenta-Mayn", qora zulmat, yovuzlik kuchlarini esa buzg`unchi Axriman boshqaradi. Axriman qo'shinlari tarkibiga devlar, oldingi xudolar, hasad, yalqovlik, yolg`onchilik kabi jonlantirilgan yomon tushunchalar, yovuz kuchlar va jodugarlar kirgan bo`lib ular olovga, erga, suvgaga, chorvaga ziyon etkazishga harakat qilganlar.

"Avesto"ning o'n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan yozilganligi to'g`risida qator tarixiy manba va adabiyotlarda ma'lumotlar mavjud. Ushbu fikrlar hozirgacha qator ilmiy nashrlar va maqolalarda ko`p marotaba ta'kidlangan. "Avesto"ning 12 ming qoramol terisiga yozilganligi o'sha davrlarda o'lkamizda chorvachilik xo'jaligi juda taraqqiy etganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, biz bundan bir necha ming yillar oldin mam-lakatimiz hududida yozuv madaniyati bo'lganligi va ajdodlarimizning yuksak rivojlanganligi iqror bo`lamiz. Qolaversa, aynan 12 ming qoramol terisiga muqaddas kitobning yozilganligi, bu davrda teriga ishlov berish san'at darajasida taraqqiy etganligidan dalolat beradi.

“Avesto” qadimiy ajdodlarimizning ijtimoiy-falsafiy fikr yodgorligi sifatida o’tmish tariximiz, madaniyat va ma’naviyatimizni o’rganishda muhim manba bo’lib xizmat qiladi. Eng muhimi “Avesto” Sharq yozma adabiyotimizning eng qadimgi manbasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

“Avesto” nafaqat ko’hma Sharq dini, tarixi va ma’naviyati ilk yozma merosi tarzida qadrli, balki u buyuk umuminsoniy qadriyat ham hisoblanadi. “Avesto”da o’sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar, ilk davlatchilik an’analari, turli ijtimoiy tabaqalarning turmushda tutgan o’rni, oilaviy turmush tarzi va u bilan bog’liq urf-odatlarga oid qimmatli ma’lumotlar mavjud. Zardushtiylik urf-odatlari va marosimlari hamda ularning o’zbek halqi an’anaviy turmush tarzida saqlanib kelayotgan ko’rinishlari mavjud.

“Avesto”ning ko`p o’rinlarida oila, oila a’zolari va oila boshlig’ining vazifasi va majburiyatları, oila-nikoh munosabatlari turli o`rinlarda, har-xil munosabatlar bilan maxsus bayon qilingan.

Avesto Yasht kitobining X bobida uy(oila) – nmana, urug` –vis, qabila –zantu, mamlakat –daxyu, ruhoni (bosh siymo)– Zaratushtrotesha deyilgan. Uy (oila) boshlig`i – nmanapati, vispati– qabila boshlig`i, daxyupati– yurt boshi. Nof deb qarindosh-urug`lar uyushmasiga aytilgan. Shuningdek xotin-qizlar haq-huquqini e’zozlash, oila daxlsizligi va mustahkamligiga erishish, ota-onaning farzand oldidagi, farzandlarning ota-ona oldidagi burchi, farzndlarni oila qurishga tayyorlash va ko`plab oila-turmush an’analari va marosimlariga oid fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Zardushtiylar bir necha asrlar davomida ruhoniylar kuzatuvi ostida o`zlarining urf-odat va marosimlarini shakllantirganlar. Zardushtiyarda yil fasllari bilan bog’liq bayramlar, Navro`z, oylar bayrami, ajdodlar e’tiqodi, oq libos kiyib, belbog` bog`lash va boshqa tantanalar muhim rol o`ynagan. Bundan tashqari zardushtiyarda nikoh marosimi, bola tug`ilishi va dafn bilan bog’liq kator marosimlari ham mavjud bo`lib, bularda asosan yaqin qarindoshlar, shahar va qishloqning hurmatli kishilari bilan birga ruhoni ham ishtirot etgan. Zardushtiylik marosimlari sirasiga kundalik ibodat ham kirgan.

Zamonaviy zardushtiylar turmush tarzi bo`yicha maxsus tadqiqotlar olib borgan taniqli olima M.Boys ta’kidlaganidek, “Zardusht o`zining davomchilariga o`ziga xos ikki majburiyatni – kuniga besh mahal ibodat qilish yuklagan”.

Zardushtiylar jamoasi orasida nikoh bir umrga muhrlangan. Asrlar davomida shakllangan zardushtiylik oila-turmush an’analari keyinchalik islom davrida ham oilaviy marosimlarimizda o’z ko’rinishlarini yo’qotmagan va hattoki, bugungi kunda ham islomiy an’analar tarkibida saqlanib qolgan. “Avesto”da oila butunligini saqlash, nikoh tartiblari, er-xotin majburiyatları, nikohni bekor qilish sababi va shartlari batafsil bayon etilgan.

Zardushtiylikda o`ziga xos dafn marosimlari ishlab chiqilgan. Zardushtiylar dafn marosimlarida kohinlar va marhumning qarindoshlari uch kecha-kunduz davomida maxsus duolarni o’qib turganlar. Marosimlar davomida suv ichish va ovqatlanish ma’n etilgan. To’rtinchi kun boshlanishi bilan, o’likning ruhi narigi dunyoga uchib ketganidan so’ng murda shahar, qishloq qo’rg`onlaridan chetdagи tepalik yoki tog`u toshlarga chiqarib, ochiq qo`yilgan. Murdalarning suyaklari qushlar, yirtqich hayvonlar tomonidan etidan tozalangach, "nasasalar" zardushtiylarning ochiq qabristonlariga kelib, suyaklarni maxsus

xumchalar yoki sopoldan yasalgan qutisimon idishlarga yig`ib, "naus" deb ataluvchi maxsus maqbarada saqlashadi. Yilda ikki marotaba bahorgi Navro`z va kuzgi Mehrjon bayramlarida ota-bobolari arvoхlariga atab is chiqarib, sadaqa va qurbanliklar qilishgan.

"Avesto"da qabristonlarni shahar va qishloqlardan yiroqda, balandlikda joylashtirish, uni o`rab qo`yish uqtirilgan. Bizning hududimizda ham qabristonlar qishloqlardan chetroqda joylashganligini kuzatish mumkin.

"Avesto"da doimiy badantarbiya bilan shug`ullanish, kunda yuz-qo`lni bir necha marta yuvish, sochni toza tutib tirnoqlarni tozalab turish maslahat berilgan. Bugungi kunda ham olingen yoki yuvilganda to`kilgan sochlар ham o`tga, suvga tashlanmaydi. Chunki, sochni o`tga, suvga tashlash og`ir gunoh hisoblangan. Shu bois olingen yoki to`kilgan soch devorlarning kovagiga qo`yiladi yoki mevali daraxt tagiga ko`miladi. Kamar (belbog') bog`lamoq zardushtiylarning muqaddas odatlaridandir. Ularning fikriga ko`ra, bu inson tanasini ikkiga ajratib turuvchi devordir.

Farg`ona vodiysida XX asr birinchi choragida vodiyyda barcha erkaklar oq yaktak kiyib, bellariga belbog` bog`lashi va salla o`rash udumi keng tarqalgan edi. Odatda belbog` va salla o`rash bolalik yoshidan o`sмirlik yoshiga o`tgan davrida bajarilgan. Belbog` doimo uch marta tugun qilib bog`langan. Qolaversa, xalqimiz orasida boshqa yurtlardan kelgan mehmonlarga, nikoh to`yida kelinning xonadonida kuyovga to`n, do`ppi kiydirish va beliga belbog` bog`lash udumi keng tarqalgan. Bu udumning asosida bir tomondan mehmonga, kuyovga bo`lgan hurmat, izzat-ikrom namoyon bo`lsa, boshqa tomondan o`sha mehmonning xalqimiz safiga ramziy qabul qilinganligi yoki kuyovning kelin oilasining yangi a`zosi bo`lganligini anglatgan. Xalqimiz orasidagi to`n kiydirib belbog` bog`lash bilan bog`liq udumlar zardushtiylarning "sidrapo`shlik" marosimining shakli bo`lsa kerak. Oq kiyim zardushtiylar diniy e`tiqodi ramzi bo`lgan.

Axura-Mazda qonunlarida quruq va bo`z erlarni haydash va erni jamoa o`rtasida adolatli taqsimlash eng savobli ish hisoblangan. Bu ibodat qilish va qurbanlik so`yishdan afzal hisoblangan. "Olam go`zalligi dehqonchilikdan, deyiladi "Vendidot"da. Kimki urug` qadabdi, u odamiylikka imon keltiradi, yagona shu yo`lgina haqiqat bo`lib, qolgani savobdir". Yana bir fasl bashoratida bunday deyiladi, "Bug`doy o`stira boshlansa, devlarni ter bosadi:sovurilgan bug`doy tayyor bo`lsa, devlar zaiflashib qoladi. Un tayyor bo`lgach, devlar nola-yu fig`on chekishadi. Devlarni mag`lub etish uchun xonadonda hamisha unli ovqat bo`lishi lozim. Bu ovqatni odamlar egandan so`ng, devlar juda qizishib ketadi va qocha boshlashadi". Erga ishlov berishdan keyingi savob oziq-ovqat tayyorlash, uy hayvonlari va chorvani ko`paytirishdir.

Zardushtiylarning ko`plab marosimlari izlari xalqimiz turmush tarzida bugungi kungacha saqlanib qolgan. Jumladan, dehqonlar hayoti, mehnati va hosilni yig`ish bilan bog`liq o`tkaziladigan bayramlarning ko`plari bevosita zardushtiylik an`analari bilan bog`liqdir.

Farg`ona vodiysi o`zbeklari orasida ham azaldan erga ilk bor urug` sepish jarayoni o`ziga xos ramziy ritual tusini olgan bo`lib, unda keksa ziroatkorlardan biri Bobo Dehqon qiyofasiga kirib qo`sh haydashni boshlab bergen. Xalqona tasavvurlarga ko`ra, Bobo Dehqon halol mehnat bilan kun ko`ruvchi, o`zgalar haqidan hazar qiluvchi, ularning

mehnat unumiga unum qo'shuvchi pir bo'lib, u ayni sahar paytida dehqonlar ko'targan xirmonlarda paydo bo'ladi. Dehqonlar o'z faoliyatlariga daxldor marosimlarni boshlashdan avval «Bobo dehkoning o'zi tarbiyat qilsin», deb duoi fotiha qiladilar. Vodiylik dehqonlar Bobo dehqondan etishtirilgan hosilini to'kilib-sochilib ketishidan asrash, barakali hosil etishtirish va yil davomida suvning mo'l bo'lishini, ekinlar chanqagan vaqtida suvdan qiynalmasliklarini, soydan boshlanuvchi ariqlarda yil bo'yi suv oqishini so'ranganlar.

Dehqonlar tasavvurlariga ko'ra, Bobodehqon halol mehnat bilan kun ko'rvuchi, o'zgalar haqidan xazar qiluvchi, ular mehnat unumiga unum qo'shuvchi pir bo'lib, u ayni sahar chog'ida dehqonlar ko'targan xirmonlarda paydo bo'lar ekan. Mabodo, u yaxshi nazar solsa, donlar ko'payib, poxol kamayadi, hosilning barakasi oshadi deb tasavvur qilingan.

Zardushtiylikning marosimlarida olov alohida ahamiyat kasb etgan. Olov turli ko'rinishlarda: osmon olovi, daraxtga yashiringan olov, otashgohlarda yonib turgan olov, ilohiy olov, chaqmoq olovi va inson tanasiga issiqlik va hayot bag'ishlovchi olov kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lган. Yonib turgan gulxan abadiy hisoblanib, ma'lum bir iloh yoki ota-bobolar ruhiyatiga bag'ishlangan. Ular o'chirilmasdan saqlangan va begonalar hamda g'ayridinlar nazar-nafasidan asralgan. O'choq yoki otashgohning kuli ham muqaddas hisoblanib, muqaddas joylarga ko'mib saqlangan. Bundan tashqari, har bir xonadonda shu xonodon chirog'i, uning qo'ri va alangasini doimo yoqib saqlaydigan oilaviy otashgohlar ham bo'lган. Ular ko'pincha maxsus ajratilgan va pokiza tutilgan xonalarda tashkil etilib, olov maxsus yasalgan o'choq yoki kursi shaklidagi tagkursi ustida yoqib saqlangan.

Olovga bo'lган hurmat va e'tibor odatlarining boshqa ba'zi ko'rinishlari O'rta Osiyo xalqlari turmush tarzida hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Vodiy qipchoqlarida xonadon o'chog'i hech qachon o'chirilmas ekan. O'chog'da olovni kecha-kunduz o'chirmaslik otababolardan qolgan odat bo'lib, ularning tasavvuricha, olovsiz o'choq – misoli egasiz, kimsasiz uydir. O'chog'ida doimo olov yongan xonadondagina doimo baraka bo'lган. O'chog'da yonayotgan olovni bulg'amaslik uchun iflos narsalarni, hatto iflos o'tinni yoqish ham ta'qiqlanadi. Iflos o'tin yoqilishidan oldin quyoshda quritilgan yoki suv bilan yuvilgan. Olov yongan o'choqqa qalampir, non, ovqat qoldiqlari tashlash, har xil axlat yoqish yoki o'choqdan chiqqan kulni axlatxonalarga tashlash, harom chiqindilarni o'choq olovida kuydirish gunoh hisoblangan. Motam marosimlarida esa olovni bulg'amaslik uchun uch kungacha xonadon o'chog'ida olov yoqib ovqat tayyorlanmagan. Bundan tashqari, nikoh to'yi marosimlarida kelin-kuyovlarni inu-jinslardan poklash maqsadida olov atrofida aylantirish va safarga ketayotganda xonadon olovidan boshqalarga bermaslik odatlari ham qaysidir ma'noda zardushtiylik marosimlari bilan bog'liq bo'lsa kerak.

Zardushtiylik ta'llimotida olovdan tashqari suvgaga nisbatan ham alohida e'tibor qaratilgan va e'zozlangan. Buning uchun suv manbalari - daryolar, ko'llar yoki quduqlar har qanday nopliliklardan qat'iy himoya qilingan. Shuningdek, yomg'ir yoqqan paytda tashqariga chiqish ta'qilangan, chunki bu bilan suvni va erni "makruh" qilib qo'yish mumkin deyilgan. Suvni muqaddas sanab uni e'zozlashga oid qarash islom dinida ham mavjud. Jumladan, islomda suvni tejab ishlatish, uni ortiqcha isrof qilmaslik ta'kidlanadi. Suvni isrof qilish va bulg'ash og'ir gunoh hisoblangan. Bugungi kunda ham O'rta Osiyo

xalqlari orasida suv keladigan ariqlar, kanallar va zovurlar xar yili bahorda hashar yo'li bilan tozalanadi. Yangi kanallar, ariqlar qazish eng savobli ishlardan biri bo'lgan.

**ҮҚУВЧИ ЁШЛАРНИ ВОЛЕЙБОЛ СПОРТ ТУРИ ОРҚАЛИ , СОҒЛОМ  
ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛАНТИРИШДАГИ АХАМИЯТИ**

**Юсупов Фирозбек Абиджонович**

*Андижон ихтисослаштирилган санъат мактаби  
жисмоний тарбия ўқитувчиси*

**Аннотация:** Мақолада ўқувчи ёшларда волейбол спорт тури орқали , соғлом турмуш тарзини шакллантиришидаги ахамияти тахлил қилинди.

**Калит сўзлар:** Волейбол, жисмоний тарбия, спорт, чаққонлик

Жисмоний тарбия ва спорт миллат генофондини шакллантириш ва барқамол авлодни тарбиялашда кафолатли омил сифатида борган сари ўқувчи ёшларнинг кундалик турмуш тарзига сингиб бормоқда.

Волейбол бўйича ўтказиладиган жисмоний тарбия дарси З қисмдан ташкил топади.

1 қисм – тайёрлов 10-12 дақиқага тенг бўлиб, ўз ичига синфи ташкил этиш (сафланиш, навбатчи ўқувчини ўқитувчига давомат ҳақида ахборот бериши, дарс вазифалари билан танишириш), саф машқлари, умумий ва маҳсус машқларни киритади.

Дарсни тайёрлов қисмида бериладиган машқлар шу дарсни мақсад вазифаларини ечишга қаратилган бўлиши лозим. Тайёрлов машқлари тана мувозанатини сақлаш, қадди-қоматни шакллантириш, юриш, югуриш, сакраш, куч, тезкорлик, чаққонлик, чидамкорлик ва эгилувчанлик сифатларини тарбиялашга мўлжалланади. Дарснинг тайёрлов қисми ўқувчилар организмини «қизитиш» ва уни функционал жиҳатдан шу дарснинг асосий қисмига тайёрлашдан иборат. Дарснинг ушбу қисмини ўтказиши шиддати дастлаб секин-аста оширилиб, шу қисмни ўртасидан яна секинлаштирилиши керак.

Асосий қисм 30-35 дақиқа давом этади. Мазкур қисмда дарсни асосий мақсад ва вазифалари ечилади. Техник-тактик малакалар ўзлаштирилади. Бунинг учун ўрганиладиган ўйин малакаларига оид тақлид ва тўп билан бажариладиган машқлар қўлланилади. Малакаларга ўргатиш ва уларни шакллантириш якка тартибда ёки кичик гурухлар ва барча ўқувчилар иштирокида амалга оширилади. Бу қисмда ўргатиш жараёни секин шиддатда, такомиллаштириш жараёни эса катта тезликда кечиши лозим.

Яқуний қисм 3-5 дақиқа давом этади. Бу қисмнинг мақсади ўта секин шиддатда ижро этиладиган мушакларни бўшаштирувчи ва таранглаштирувчи машқлар ҳамда миллий ҳаракатли ўйинлар ёрдамида чарчоқни бартараф этиш, организмнинг функциялари ва иш қобилиятини тиклашга қаратилади.

Дарс давомида жисмоний сифатларни тарбиялаш, ҳаракат (техник-тактик) малакалари техникасига ўргатиш ва уларни такомиллаштириш турли педагогик услублар ёрдамида амалга оширилади. Бу услублар қуйидагилардан иборат:

- тушунтириш;
- кўрсатиш (намойиш этиш);
- муайян малакани қисмларга бўлиб ўргатиш;
- малакани тўлиқ ҳолда секин ва катта тезликда ўргатиш;
- қайтариш;
- ўйин услуги;
- мусобақа услуги ва ҳоказо.

Ўргатиш жараёнида, бундан ташқари, рағбатлантириш ва жазолаш, ишонтириш каби усувлар ҳам ўрин олади.

Ҳар бир услугуни қўллашда ўзига хос воситалар (машқлар)дан фойдаланилади.

Волейбол бўйича ўтказиладиган жисмоний тарбия дарси якунида, аксарият ҳолларда, ўкув ўйини ўтказилади. Бундай ўйинларни ўтказиш давомида ўйин қоидаларини ўзлаштиришга ва ҳакамлик қилиш сирларини ўргатишга алоҳида эътибор қаратилади.

Ўргатиш ва такомиллаштириш жараёнида бериладиган вазифа, шу жумладан қўлланиладиган машқлар «оддийдан мураккабга», «ўтилганидан ўтилмаганига» ва «енгилидан оғирига» (юклама(нагрузка) жиҳатидан) каби дидактик тамойилларга риоя қилиш шарт.

Бундан ташқари, ўқитувчи қўйидаги режалаштирув хужжатлари билан қуролланган бўлиши шарт:

- таълим стандарти ва классификатори;
- ўкув дастури бўлимлари бўйича йиллик ўкув соатларининг тақсимланиш режаси;
- синфлар, чораклар ва дарслар бўйича йиллик режа-жадвали;
- чораклар бўйича ўкув материалларини тақсимланиш жадвали;
- дарс мавзулари акс эттирилган чорак иш режаси;
- дарс баённомаси;
- синф журнали.

**Биз қўйидагиларни тавсия қиласиз:** Дарсни юқори савияда ўтказиш, дарс давомида ўқувчилар фаоллигини таъминлаш, бериладиган вазифа, кўрсатма ва машқлар ижросига уларни онгли ёндошишларига эришиш, жисмоний тарбия дарсига меҳр ва хурмат уйғотиш ўқитувчининг нафақат касбий маҳорати ва сифатли ишлаб чиқилган дарс баённомасига, балки унинг шахси ва инсоний фазилатларига ҳам бевосита боғлиқдир

**ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:**

1. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни. Т.: Ўзбекистон, 1997й
2. Ўзбекистон Республикаси «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида»ги Қонуни. Т.: Ўзбекистон, 1997й
3. Айрапетьянц Л.Р., Годик М.А. Спортивные игры. // Монография. Т.: Ибн Сино, 1991г
4. Айрапетьянц Л.Р. Волейбол. // Учебник для высших учебных заведений. Т.: Zar qalam. 2006г

ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ БИЛИМ, КЎНИКМА ВА  
МАЛАКАЛАРИНИ ШАКЛАНТИРИШ

Насимова З.И  
ТДПУ ўқитувчиси

Мустақил Ўзбекистон Республикасида шакланаётган миллий истиқлол гояси Республика Конституциясида эътироф этилган инсонпарвар, демократик, хуқукий давлат ва жамиятни барпо этиш, шунингдек, ижтимоий-иктисодий ҳамда маданий ривожланишнинг юқори босқишиларига қўтариш, жаҳон ҳамжамияти сафидан муносиб ўрин эгаллашга йўналтирилган эзгу мақсадларни амалга оширишга хизмат қиласди.

Ушбу мақсадларнинг ижобий натижага эга бўлиши, энг аввало, ёш авлодга илмий билимлар асосларини пухта ўргатиш, уларда кенг дунёқараш ҳамда тафаккур кўламини ҳосил қилиш, маънавий-ахлоқий сифатларни шакллантириш борасидаги таълимий-тарбиявий ишларни самарали ташкил этиш билан боғлиқдир. Умуман, таълим жараёнида ўқувчиларнинг билим ва кўникмаларини шакллантиришни қўйидаги босқичларга ажратиш мумкин:

- янги билимларни идрок этишга тайёрлаш;
- ўқитиш жараёнида кўргазмали қуроллардан фойдаланиш;
- ўқувчиларни китоб билан ишлашга йўналтириш.

Ўқувчиларнинг билим, кўникмаларни эгаллашдаги муваффақиятлари бундан олдинги тайёргарлик даражасига, ўқитишнинг айни босқичида қанчалик ривожланганлигига ва ёшига боғлиқ. Агар янги мавзуни ўқитиш жараёнида ўрганилаётган материални ўқувчиларнинг билиш имкониятларини ҳисобга олмасдан тушунтирилса, у ҳолда ўқувчи бу материални ё умуман ўзлаштира олмайди ёки ривожланишдан тўхтайди, яъни уларнинг қийинчиликларни енгизшга бўлган ирода ва интилишларининг ўсиши учун шароит яратилмаган бўлади. Юқорида келтирилган босқичларнинг ҳар бирини алоҳида қўриб чиқамиз.

Янги билимларни идрок этишга тайёрлаш.

Дидактика асосчиси А.Я.Коменский бундай ёзган эди: “Ўқувчилар бирор фанни ўрганишга киришар эканлар, аввало, уларнинг ақли шунга тайёр бўлиши керак”. [1] Ўқувчиларни янги билимларни идрок этишга тайёрлашнинг моҳияти ҳам ана шундадир. Маълум бир дарс давомида ўқувчиларнинг ўрганилиши лозим бўлган нарсаларни фаол идрок этишга тайёрлаш зарур.

Ўқувчиларни янги билимларни идрок этишга тайёрлаш методлари кўп, бу методлардан қай бирини қўллаш лозимлиги ўрганиладиган мавзу мазмунига, унинг қанчалик муҳимлигига, ўқувчиларнинг қанчалик тайёрлигига ва ўқитувчининг тажрибасига боғлик.

Ўқувчиларни ўрганадиган маълумот ёки ечилаётган масала билан таништиришнинг энг кўп тарқалган методларидан бири ўқувчилар билиб олган маълумотлар билан билиши керак бўлган маълумотлар орасига “кўприк солиш”

мақсадида илгари ўрганилган мавзуларнинг асосий жойларини тақрорлашдан иборат. Агар бундай боғланишлар аниқ бўлиб, ўқувчиларнинг англаши осон бўлса, у ҳолда маълумотни ўқитувчининг ўзи қисқача эсга тушириши мумкин. Агар ўрганилган маълумот билан янги маълумот орасидаги боғланишни чуқурроқ кўриб чиқиш лозим бўлса, ўқитувчи ўқувчилар билан сухбат ўтказади. [2]

Иккала ҳолда ҳам асосий эътиборни тақрорланадиган мавзунинг фактларга асосланган томонигагина эмас, балки ўрганилиши керак бўлган мавзу билан боғланиш ўрнатишга қаратиш лозим. Бунда айни пайтда ўрганилган маълумотлар билан бирга ўқувчиларнинг бошқа фанлардан олган билимларига таяниш муҳимdir.

Ўқувчиларни янги ўқув материалларини идрок этишга тайёрлашнинг муҳим элементи уларга дарс мавзусини ва дарсдан кўзда тутилган асосий мақсадни билдиришдан иборат. Дарс мавзуси ўрганилаётган ўқув маълумотларининг моҳиятини, дарснинг мақсади эса ўқувчилар нимани ва қай даражада ўзлаштириши лозимлигини белгилайди. Мақсаднинг қўйилиши ўқувчиларни ўқитувчи баён этадиган маълумотни ўйлаш, таҳлил қилиш ва умумлаштиришга, илгари олинган билимлар асосида янги билимларни мустақил излашга рафбатлантиromoғи лозим. Ҳар бир дарс учун мақсад танлаш ўқув мавзусининг аниқ мазмунига боғлиқ. Дарс мавзуси ва дарсдан кўзланган мақсад аниқ, ўқувчилар учун тушунарли, уларда янгиликларни билишга хоҳиш уйғотадиган бўлиши жуда муҳимdir. Бу ҳолда ўқувчилар қўйилган вазифанинг муҳимлигини тушунадилар, унга қизиқадилар. Дарсдан кўзланган мақсадни ўқувчилар зарурат деб идрок этадилар, улар иродасининг ички стимули бўлиб колади. Мустақил фикрлаш, хотира, тадқиқ қилиш, тасаввур — буларнинг ҳаммаси мақсадга эришиш учун ишга солинади.

Тажрибали ўқитувчилар, одатда, дарс мавзусини ва дарсдан кўзланган мақсадни айтибина қолмасдан, балки сухбат ўтказиш ёрдамида ўқувчиларни янги мавзуга “яқинлаштиради”.

Ўқувчиларни янги билимларни идрок этишга тайёрлаш мақсадида илмий-оммабоп журналларнинг навбатдаги дарс билан боғлиқ бўлган қизиқарли материаллар билан таништириш, бугунги кунда қилинаётган илмий кашфиёт ёки ишлаб чиқариш илғорлари қўлга киритган ютуқлар тўғрисида газета ва журналларда босилган маълумотлардан мисоллар келтириш ҳам мумкин ва ҳоказо. Бу ўқувчиларнинг янги мавзуга қизиқишини оширади ҳамда уларни мустақил фикр юритишга ундейди. Аммо ўқувчиларни янги билимларни идрок этишга тайёрлашни ички томондан эмас, балки ташқи томондан ҳам қарашиб зарур. Ўқувчилар билимларни оптимал идрок этиши учун ўқув жараёни ўтказиладиган жойлардаги санитария-гигиена шароитлар каби омиллар ҳам (дарс бошланишидан олдин синф хоналарини шамоллатиш, оптимал температурани сақлаб туриш, танаффус вақтида ўқувчиларнинг нормал дам олишини таъминлаш) ҳисобга олиниши керак. Ўқувчиларнинг “тайёргарлик” ҳолатини ва фаолиятини таъминлаш мақсадида дарснинг бошланишини аниқ ташкил этиш: ўқувчиларни жой-жойига ўтказиш, дафтар, китоб ва бошқа қурол-яроғларни таҳт қилиб қўйиш катта ахамиятга эга.

Ўқувчиларнинг ўқув материалини идрок этишга тайёрлаш тўғрисида гапирилар экан, биринчи дарснинг роли ва ўқитувчининг ўқувчилар билан дастлабки алоқасининг роли ҳакида айтиш керак. Чунки булар ўқувчи ва ўқитувчи орасидаги бундан кейинги муносабатларни маълум даражада белгилаб беради. Биринчи дарс ижодий ҳиссиётларга бой бўлиши ва фанга қизиқиш ҳосил қилиши керак. Шу сабабдан қизиқарли фактларни танлаш ва самарали методлардан фойдаланиш зарур.

Ўқувчиларнинг билим, кўникма ҳамда малакаларини текшириш оғзаки, ёзма ва амалий бўлиши мумкин. Ёзма текшириш ва мустақил ишлар билимларни текширишнинг асосий шакллари ҳисобланади.

Ёзма текшириш ўқувчиларнинг билимлари сифатини: тўғрилиги, аниқлиги, англаб олингани, амалга тадбиқ этилиши тўғрисида бир фикрга келиш ва қисқа вакт ичida гурухдаги барча ўқувчилар билимини текшириб кўришга имкон беради. Ёзма текшириш, асосан ёзма график ишларни бажартириш билан амалга оширилади. Ёзма текшириш ишлари икки хил бўлиши мумкин: мавзу бўйича ва якуний текшириш ишлари гурух мавзуни ўрганиб бўлгандан кейин, якуний текшириш бир неча мавзу ўтиб бўлингандан кейин ўтказилади.

### **ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:**

1. Azimova N. E. et al. Youth Is Moving Force of Civil Society //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.
2. Азимова Н. Э. Технология духовно-нравственного воспитания преподавателя профессионального образования в процессе обучения //Молодой ученый. – 2011. – №. 5-2. – С. 117-118.
3. Азимова Н. Э. Роль профессионального педагога в подготовке гармонично развитой личности //Международный журнал гуманитарных и естественных наук. – 2018. – №. 5-1.
4. Азимова Н. Э., Насимова З. И. К. ВАЖНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СЕМЬЕ //Academy. – 2020. – №. 5 (56).
5. Азимова Н. Э., Элибоева Л. С. Некоторые аспекты повышения уровня экологической культуры //Наука, техника и образование. – 2019. – №. 1 (54).

ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ  
ЖАРАЁНЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Муфтайдинов Мансур Қиёмиддинович  
*мустақил изланувчи*

Республикада амалга оширилаётган ҳуқукий ва иқтисодий ислоҳотлар тадбиркорлик фаолиятини янада самарали ва барқарор ривожлантиришга қаратилган. Тадбиркорлик иқтисодиёт фаолиятини шакли бўлганлиги хусусияти тадбиркор ўзининг ишлаб чиқараётган товар маҳсулотларига бўлган талабни ташкил этиши учун маҳсулотни сифатли ва арzonлиги жиҳатидан истеъмолчилар талабига жавоб бериши нуқтаи назаридан ўзгариб бориши зарур. Тадбиркор ўзининг режалаштирилган тадбиркорлик фаолиятини амалга оширишини ташкил этиши учун ишлаб чиқариш ва истеъмол бозорларини доимий равишда ўрганиб бориши асосида у ўзининг тадбиркорлигини амалга ошириш учун шароит борлигига ишонч хосил қилиши керак. Ана шундагина у тадбиркорликни амалга ошириш мумкинлигини кўради.

“Тадбиркорлик субъектларини рўйхатга олишни соддалаштириш, шу жумладан муддатларини қисқартиришда имкон қадар уларни кўпроқ ташкил этишини рағбатлантириш нуқтаи-назаридан ёндашиш, бунда тадбиркорлик субъектларини ташкил этиш борасидаги ғояларни қўллаб-қувватлашдан бошлаб, уларни амалга ошириш имкониятларини ўрганиш ҳамда тегишли ҳужжатларни тайёрлашгача бўлган жараёнларни сифатли ва қисқа муддатларда бажарилишини таъминловчи маҳсус инфратузилма хизматлари фаолиятини янада такомиллаштириш ва ўз хизмати сифати учун масъуллик механизмининг кучайтирилиши мазкур жараёнларни давлат томонидан тартибга солиши чегараларини кенгайтириб, самарадорлигининг ошишига олиб келади”.

Иқтисодчи С.В.Валдайцев фикрича хар қандай давлатнинг иқтисодий ривожланиши йирик, ўрта ва кичик бизнесни боғлиқликда олиб бориш зарур. Бунинг асосланиши етакчи жаҳон мамлакатлари орқали асосланди. Айrim иқтисодчилардан Г.Ф.Ручкина “Кичик бизнесни Россияда ривожланиши янги иш жойларини ташкил этиш билан боғлиқ. Кичик бизнес истеъмолчилар талабларига тез мослашади. Уни келажакда ривожланиши миллий иқтисодиётни ривожланишини асосий омили жамиятни демократлашувини, халқаро майдонда уни сиёсий мавқеини оширади, давлатга на фақат сиёсий балки иқтисодий дивидент ҳам келтиради”. Иқтисодчилардан Р.Каплан ва Д.Нортон кичик корхоналарни молиявий холатини ўрганиш асосида, мувозанатлаштирилган кўрсаткичлар тизимини таклиф этганлар. Бу тизим кичик бизнес ва тадбиркорликнинг самарадорлигини ифода этувчи кўрсаткичлардан иборат.

Умуман олганда, бозор муносабатлари шароитидаги монополистик тенденциялар тадбиркорликка, айниқса кичик ва ўрта бизнес субъектларига салбий таъсир кўрсатади. Бу тўғрисида АҚШ иқтисодчи олим Дж.Гелберт “кичик тадбиркор

бу мустақил фаолият кўрсатувчи инсон сифатида шухрат қозонади. Аммо бу эркинлик чегараланган бўлиб, у яшаш эркинлиги бўлиб, ўлгунча ўрдаклар томонидан чўқилишидан иборатдир” деб таъкидлаган.

“Алоҳида фаолият турлари билан шуғулланишда лицензия ва рухсат бериш тартиб-таомилларини қисқартириш мақсадида, лицензиялаш ва рухсатнома бериш тартиб-таомилларини оптималлаштириш бўйича идораларо ишчи гурӯҳи тузилиб, мавжуд бўлган жами 62 та (266 та фаолият бўйича) лицензия ва 137 та рухсатномалар тўлиқ хатловдан ўтказилди ва ахборот-таҳлилий маълумот киритилди. Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Лицензиялаш ва рухсат бериш тартиб-таомилларини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони лойиҳаси ишлаб чиқилди (Давлат дастурининг 87-банди). Лойиҳага асосан 1 000 га яқин белгиланган бюрократик жараёнлар қисқартирилмоқда. Хусусан қарийб 100 та лицензияланадиган фаолият йўналишлари ва 35 та рухсатномаларни бекор қилиш орқали ёки муқобил шаклларга ўтказиш назарда тутилмоқда. Натижада, тадбиркорлик субъектларининг йилига қарийб 125 млрд. сўм маблағлари иқтисод қилиниб, ўз ихтиёрида қолдирилади. Шунингдек, лицензиялаш, рухсат бериш ва хабардор қилиш жараёнлари “Лицензия” ахборот тизими орқали тўлиқ электронлаштирилади. Натижада, маъмурий тартиб-таомилларни амалга оширишдаги коррупцион ҳолатларнинг юзага келиши чекланади, тадбиркорларнинг боғлиқ вақт ва молиявий харажатлари иқтисод қилинади”.

Тадбиркорлар ўзларининг тадбиркорлик фаолиятларини юритишда асосан икки иқтисодий моделга асосланишлари керак. Булар:

- анъанавий соҳалар ва тармоқларда иш олиб бориш;
- инновацион тадбиркорлик, ишлаб чиқаришнинг эски структуралари ўрнига янги ишлаб чиқариш структураларини жорий этиш, янги сифатли маҳсулотларини ишлаб чиқаришга йўналтиришидан иборат бўлиши керак.

Бозор муносабатларига асосланган эркин рақобат асосида иш юритувчи тадбиркорлар ўзларининг ишлаб чиқариш ва истеъмол бозорларида мавқеларини сақлаш мақсадида доимий равишда инновацион янгиликлардан фойдаланиш изланишларида бўладилар. Демак тадбиркор фаолияти ўзининг инновацион моделига эга бўлиши керак:

- ишлаб чиқариш жараёнида янгилик яратиш ёки мавжуд эски ишлаб чиқаришни такомиллаштириш асосида унга янги хусусият, янги қиймат бериш;
- янги ишлаб чиқариш усусларини қўллаш асосида маҳсулот хақжмини, сифатини ошириш, унинг таннархини арzonлаштириш;
- янги маҳсулот сотиш учун янги бозорларни ўзлаштириш;
- ишлаб чиқаришни, меҳнатни ташкил этишни ва уни бошқаришни такомиллаштиришда ифодаланиши мумкин.

Тадбиркорлик фаолиятининг иқтисодий натижалари, бизнинг фикримизча, қўйидаги ички ва ташқи моилларга боғлиқ бўлади. Ички омиллар бу:

- тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланишга киришиш хақидаги тадбиркорнинг фикр ва мулохазалари;

- тадбиркорни, яъни субъектни маънан етук ва тадбиркорлик фаолиятини ташкил этишга билими етарли даражада эканлиги;
- ишлаб чиқариш кучларининг интеллектуал билимларидан фойдаланишни билиш;
- тадбиркорлик билимини эгаллашга интилиш ва ходимлар билан муомала маданиятини эгаллаган бўлиш.

Ўзбекистонда кичик бизнес соҳасидаги ислоҳотлар янада жадаллаштириш ва тадбиркорликни ривожланиши учун қуидаги устувор вазифаларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ:

- аҳоли ва тадбиркорлик субъектларининг давлат органлари билан муносабатга киришишида бюрократик тўсиқларни тубдан қисқартириш бўйича меъёрий ҳужжатларни такомиллаштириш;
- аҳолини молиявий саводхонлигини, хотин-қизларни тадбиркорлигини қўллаб қувватлаш бўйича меъёрий ҳужжатларни такомиллаштириш ва бошқалар.

### **ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:**

1. Гафуров У.В. Кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солишнинг иқтисодий механизмларини такомиллаштириш // док. Дисс.автореф. 2017 йил. 97 б.
2. Валдайцев С.В. Малое инновационное предпринимательство / С.В. Валдайцев и др. – М.: Проспект, 2011-43 с.
3. Ручкина Г.Ф. кредитные организации в системе финансовой поддержки субъектов малого и среднего предпринимательства. // Банковское право – 2015. № 3.
4. Ольве Н.Г., Рой Ж, Ветер М. “Оценка эффективности деятельности компаний”. Практическое руководство по использованию сбалансированной системы показателей - М.: Вильямс, 2004. 37-стр.
5. Гельберт Дж.К. Экономические теории и мысли общества. М.: 176 год, 107-108 стр.
6. <https://strategy.uz/index.php?news=1030&lang=uz2>

**EKOLOGIK VAZIYAT VA ULARNING OLDINI OLISH MASALALARI**  
**(KITOB DAVLAT GEOLOGIK QO'RIQXONASI MISOLIDA)**

Suvanova Dilsora Nuraliyevna

Samarqand viloyati Pasrdarg'om tumani 8-maktab o'qituvchisi

**Annotatsiya:** *Mazkur maqola ekologik vaziyat va uning oldini olish chora-tadbirlarini ma'lum hududlar kesimida o'rGANIB chiqishga bag'ishlangan. Kitob davlat geologik qo'riqxonasi misolida ekologik vaziyatning yaxshilanishiga erishish hamda muqobillashtirish.*

**Kalit so'zlar:** *Ekologik vaziyat, fan-texnika taraqqiyoti, Kitob davlat geologik qo'riqxonasi, ko'k qush.*

Yer shari aholisi soni o'sib borishi va fan-texnika taraqqiyoti davrida, turli-tuman sanoat korxonalarining ko'payishi natijasida atrof muhitda ekologik muvozanat ham yomonlashib boradi. Barchamizga ma'lumki ona tabiatimizning holati birdaniga yomonlashib qolmaydi balki bu jarayonning amalga oshishi uchun uzoq vaqt kerak bo'ladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, ekologik vaziyat asta-sekinlik bilan yomonlashib boradi. Bu esa o'z navbatida ekologik vaziyatni barqaror saqlash uchun turli xil chora tadbirlarni ishlab chiqishni talab qilmoqda.

Ekologik vaziyatning yomonlashuvi hozirgi kunning eng keng miqyosdagi va keskin ijtimoiy muammolaridan biri bo'lib qoldi. Mazkur muammoni hal qilish ma'lum bir hudud yoki ayrim kishilarning emas balki butun boshli xalqlarning zimmasidagi vazifadir zero bugungi kunimiz va kelajagimizning taqdiri ko'p jihatdan mana shu muammoning hal qilinishiga bog'liq. Ekologik muammolar yer yuzining hamma joyida mavjud bo'lib ularning bir-biridan farqi shundaki muammoning keskinlik darjasini dunyoning turli burchaklarida turlicha ekanlidir. Yuqorida aytib o'tilgan muammolar bizning mamlakatimiz hududini ham cheklab o'tgani yo'q albatta. Bizni o'rab turgan atrof-muhitning ifloslanishi ekologik vaziyatning yomonlashuvi ham bevosita biz insonlarning hayot faoliyatiga, kundalik ehtiyojlarimizning haddan tashqari ortib borishi, sanoat korxonalarining yildan-yilga kengayib hamda son jihatdan ko'payib ketishiga va shu kabi bir qancha sabablarga bog'liq. So'nggi yillarda ekologik vaziyatning yomonlashuvi oqibatidan turli xildagi o'ziga xos epidemiologik vaziyatlarga sabab bo'ladigan, oldin fanga ma'lum bo'limgan mutlaqo yangi butun bir guruh yuqumli kasalliklarning insonlar orasida tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi muammolar avj olgan hozirgi davrda jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni muqobillashtirish eng asosiy vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi, zero tabiat jamiyatning yashash muhiti, uning hayot faoliyatini uchun zarur bo'lgan moddiy hamda ma'naviy ehtiyojlarini qondirishning manbai hisoblanadi. Binobarin, tabiatni qanchalik asrab-avaylasak, kelajakda kelib chiqishi mumkin bo'lgan ekologik muammolarni qanchalik vaqtli oldini olsak yoki mavjud muammolarni bartaraf qilsak, ertangi hayotimiz ham shunchalik farovon bo'ladi. Shu ma'noda, hozirgi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiqidir.

Zero, bugungi olib borilayotgan say-harakatlar ertangi porloq kelajagimiz uchun quyilgan mustahkam poydevor hisoblanadi.

O'lkamizda tabiatni muhofaza qilish, jonivorlarni asrash maqsadida deyarli har bir viloyatda qo'riqxonalar tashkil etilgan. Ularni tashkil etishdan asosiy maqsad tabiatni muhofaza qilish hamda o'simlik va hayvonot olamini ko'paytirishdir. Qashqadaryo viloyatida «Hisor» tog'-archazor qo'riqxonasidan tashqari O'zbekistonidagi yagona "Kitob" davlat geologik qo'riqxonasi Zarafshon tog'larining g'arbiy qismida 1979-yilda tashkil etilgan. Bu yerda yurtimizdagi noyob o'simlik va hayvonlar muhofaza qilinadi. Shuningdek, qo'riqxonada nafaqat hududdagi ekotizimni saqlab qolish, shuningdek xalqaro va O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitobi»ga kiritilgan o'simlik, hayvonot olamini ham muhofaza etishga xizmat qiladi. Uning umumiy maydoni 4 ming getktarni tashkil etadi. Yer sharining geologik tarixi bo'yicha tabiiy ilmiy yodgorlik hisoblanadi. Ushbu geologik qo'riqxona o'z ahamiyati jihatidan jahon geologik merosining eng ajoyib ko'rinishi sifatida xalqaro maqomga egadir. "Kitob" davlat geologik qo'riqxonasi nafaqat bir necha yuz million yillar avval yashagan, hamda davrlar o'tib iqlim o'zgarishlari natijasida qadimgi dengiz jonzotlari tosh bo'lib qotgan kesmalar, balki bugungi kun hayvonot va nabotot olami bilan ham mashhurdir. Qo'riqxona hududida 300 xil manzarali o'simliklar o'sadi. Shundan 280 turi xalq tabobatida ishlataladi. 22 turi esa O'zbekiston Respublikasining "Qizil kitobi"ga kiritilgan. Shuningdek, sut emizuvchilarning 21 turi, sudralib yuruvchilarning 14 turi, suvda va quruqlikda yashovchilarning 2 turi, baliqlarning esa 3 turi mavjud. Qo'riqxona hududida tarvaqaylab o'sgan yong'oqlar, turli xil mevali daraxtlar, baland bo'yli yovvoyi qizil do'lanalar va boshqa daraxt turlarini uchratish mumkin. Ammo ularning shoxlarida sayrayotgan qushlar soni uncha ko'p emas. 128 turi muhofaza qilinsa ham, aksariyati juda kam uchraydi. Shuningdek, Zinzilboy soyi bo'ylab yurganda daraxt turlari, archalar, jilg'alarni ham ko'rish mumkin. Bu yerda o'simliklar, hayvonlar, qushlarning nihoyatda noyob turlarini uchratsa bo'ladi. Ana shulardan biri hududimizda kam uchraydigan, o'ziga xosligi bilan ajralib turuvchi ko'k qushdir. Tabiatda ko'k va moviy tusli qushlar ko'p, ammo ko'k qush ularning hech biri emas. Uning ilmiy unvoni *Myophonus caeruleus* Scop deb nomlangan (1-rasm). Ko'k qush qo'riqxona soylarining maftunkor qushidir, u toshqin suvlarda qad ko'tarib turuvchi toshlarda uchraydi, to'q ko'k rangda tovlanib, ovozi nafis va jarangdor yangraydi. "Uni ko'rgan inson baxtli bo'larmish", degan gaplar xalq orasida keng tarqalgan va bu haqida rivoyatlarda ham aytib o'tiladi. Soylar, daralar bo'ylab yurganda daraxtlarning ancha siyrak, shuningdek, soyli joylarda nisbatan qalinqoq o'sganini ko'rish mumkin. Qo'riqxonada Zarafshon archasi ham muhofaza qilinadi. Archa uncha baland o'smagan, sarg'ayib qolgan o't-o'lanlar bilan qoplangan, tog' yonbag'riga yashilligi bilan chiroy baxsh etib turadi. O'zidan xushbo'y hid taratadi. Bu betakror hudud xalqaro tadqiqotlar markaziga aylangan.



(1-rasm)

O'zbekiston Respublikasining "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonuniga va O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "Tabiatni muhofaza qilish davlat muassasasi shaklidagi Kitob geologiya milliy tabiat bog'ini tashkil etish to'g'risida" 2020-yil 30-iyundagi PQ-4766-son prezident qarori e'lon qilingan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A O'zbekiston XXI-ars bo'sag'asida. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolati. Toshkent, "O'zbekiston", 1997
2. Alibekov L.A., Nishonov S.A Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan ratsional foydalanish. Toshkent, 1982
3. Akromov Z.M., Zolotaryov E.L Tabiatni muhofaza qilish, Toshkent, 1975
4. Qoriev M., Isamuhamedov M. O'zbekiston o'rmonlari va qo'riqxonalari, Toshkent, 1972
5. Bannikov A.G., Rustamov A.Q Oxrana prirodiy. Moskva 1977
6. Biosfera zapovednika (sbornik). L 1977

**POCHTA ALOQASI KORXONALARINING ISH SAMARADORLIGINI  
OSHIRISHDA AVTOMATLASHTIRISHNING AHAMIYATI**

Mustafoyeva Farangiz Shukurullayevna

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi*

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti magistranti*

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarning pochta aloqasi xizmatlarini tahlil qilsak ularning faoliyati to‘liq avtomatlashtirilgan. Xususan foydalanuvchilarning pochta aloqasi xizmatlaridan erkin foydalana olishi, pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan texnologik uskunalar mavjud bo‘lib, ularning faoliyati to‘liq avtomatlashtirilgan. O‘zbekiston pochtasi tomonidan yangi axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish orqali ish o‘rinlari avtomatlashtiriladi va ular O‘zbekiston pochtasi korporativ tarmog‘iga ulaniladi. Bu orqali esa, xizmatlar ko‘rsatish jarayonlari tezlashtiriladi. Bu esa aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish imkonini beradi. Avtomatlashtirilgan ish o‘rinlari nafaqat shahar va tuman markazlarida, balki qishloq pochta bo‘limlarida ham faoliyat ko‘rsatishi zarur.

Hozirgi vaqtgagi mavjud talablardan kelib chiqib avtomatlashtirilgan xizmatlar tizimini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayni paytda viloyatlarda avtomatlashtirilgan tizimda ishlovchi xizmatlarni yo‘lga qo‘yish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq bugungi kunda O‘zbekiston pochtasi tomonidan avtomatlashtirilgan yagona xizmatlar tizimi ishlab chiqilmagan. Shu sababli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020 yilning 5 oktyabr kuni milliy pochta tizimini isloh qilish masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazib, ushbu yig‘ilishda pochta tizimini xat, jo‘natma va tovarlar yetkazib berish, bank, moliya va davlat xizmatlari ko‘rsatishga ixtisoslashtirish orqali soha barqarorligini ta’minlash muhim masala hisoblanishini aytib o‘tdilar.

Davlatimiz rahbari pochta tizimini rivojlantirish uchun uni daromad keltiradigan sohaga aylantirish zarurligini ta’kidlab o‘tdib, xususiy operatorlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, qo‘srimcha xizmatlarni taqdim etish orqali pochta bo‘limlari daromadini oshirish mumkinligi aytib o‘tdilar.

Internet orqali sotib olingan tovarni egasiga yetkazib berish, pochta jo‘natmalari va mahsulotlarni yakuniy manzilga yetkazib berishni yo‘lga qo‘yish yaxshi samara beradi. Yakuniy manzilga yetkazish tizimini tumanlarda tajribadan o‘tkazib, 2021 yil 1 martdan viloyat markazlarida, 1 iyuldan mamlakat bo‘yicha joriy etish rejasini belgilab berildi.

Buning uchun jo‘natmalarni qabul qilish, saralash va onlayn kuzatish imkonini beruvchi avtomatlashgan axborot tizimini ishga tushirish zarur.

Davlatimiz rahbari tomonidan “Pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida 2022 yil 1 yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasi hududida pochta aloqasi xizmatlarini lisenziyalash tartibi joriy etilishini belgilab berildi.

2020 yil 1 dekabrdan boshlab respublikadagi barcha pochta obyektlarida zamonaviy xizmatlar, jumladan “Gibrid pochta” va kuryerlik xizmatlarini rivojlantirish, bank, sug‘urta va boshqa xizmatlarni taqdim etish yo‘lga qo‘yilishini;

2021 yil yakuniga qadar mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini “onlayn” sotish va mijozlarga yetkazib berish, shuningdek ularga tovarlarni eksport qilish imkoniyatini beruvchi “Milliy onlayn savdo maydonchasi” yaratilishini;

2022 yil yakuniga qadar mijozlar nomiga kelgan pochta jo‘natmalarini olishi uchun mo‘ljallangan o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatuvchi avtomatlashtirilgan komplekslar (pochtamatlar) joriy etilishini;

2023 yil yakuniga qadar mahalliy ishlab chiqaruvchilarga elektron tijorat orqali savdo qilishga sharoit yaratish maqsadida bosqichma-bosqich Toshkent shahrida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda “Fulfilment markazlari” tashkil etilishini ta‘minlaydi.

Pochta xizmatlarining sifat darajasini oshirish maqsadida ko‘p mamlakatlar saralash markazlari va uzellarini mexanizatsiyalash va texnik jihozlash hisobiga logistika tizimini takomillashtirish, shuningdek tashish hamda yetkazib berish jarayonlarini rejalashtirish va optimallashtirish uchun logistik markazlarni zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda avtomatlashtirilgan yagona tizimini ishlab chiqib, amalda joriy qilish yo‘lidan bordilar.

Pochta aloqasidagi texnologik jarayonlar nafaqat moddiy oqimlar (yozma xat-xabarlar, posilkalar)ga ishlov berish bilan bog‘liq, balki axborot oqimlarini qayta ishslashni ham amalgalashadi.

Pochta aloqasida qo‘llanadigan qog‘oz ko‘rinishidagi axborotni qayta ishslash metodi samarali emas, ayniqsa axborotning katta oqimiga ishlov berish zarurati tug‘ilsa, ikkinchi tomonidan pochta xizmatlari shaxoblangan korxonalardan iborat va samarali markazlashtirilgan boshqaruvning yangi metodlari va instrumentlari talab qilinadi. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanish shunday instrumentlardan biri hisoblanadi.

Turli mamlakatlarning pochta sektoriga avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini joriy qilish vazifalari bo‘lib, quyidagilar hisoblanadi:

- tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida tezkor javob qaytarish, korxonaning faoliyati to‘g‘risida turli xildagi axborotni o‘z vaqtida olish hisobiga korxonaning samarali ishslashini ta‘minlash;

- pochta aloqasi xizmatlari avtomatlashtirilgan elektron mobil xizmatlarini joriy qilish;

- texnologik, moliyaviy va boshqaruv jaraenlarini avtomatlashtirish.

Misol uchun “Belpochta” RUP axborot oqimini qayta ishslashni avtomatlashtirish uchun har bir pochta aloqasi obyekti tomonidan daromadlar va xarajatlarni hisobga olish bo‘yicha avtomatlashtirilgan axborot tizimi joriy qilindi. To‘lovlarni qabul qilish bo‘yicha boshqa avtomatlashtirilgan axborot tizimining joriy qilinishi pochta bo‘limlarida onlayn rejimda barcha turdagи to‘lovlар (kommunal xizmatlar, operatorlar xizmatlari uchun, soliqlar va boshqalar) ni “bir darcha” prinsipi bo‘yicha amalgalashadi. Ushbu

tizimning yanada rivojlanishi xizmatlar to‘lovi server va yangi texnologiya – Internet orqali pul o‘tkazish vositasida onlayn rejimida Internet tarmog‘i orqali to‘lovlarni to‘lash orqali xaridlarni amalga oshirish va manzilga yetkazib berish imkonini berdi.

O‘zbekiston pochtasida xizmat ko‘rsatish jarayonlarini optimallashtirish uchun quyidagi avtomatlashtirilgan axborot tizimlari joriy qilish maqsadga muvofiq.

- avtomatlashtirilgan qayd qilinadigan pochta o‘tishini nazorat qilish tizimi;
- avtomatlashtirilgan tovarlarni hisobga olish tizimi;
- avtomatlashtirilgan xizmatlar monitoringi tizimi;
- avtomatlashtirilgan mobil xizmatlari turini joriy qilish.

Avtomatlashtirilgan texnologiyalarini qo‘llash hisobiga pochta aloqasini rivojlantirish, aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlarin qulay qilish orqali yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi ta‘minotni ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, ko‘p mamlakatlarda avtomatlashtirilgan mobil xizmat turlari milliy operatorlar uchun eng rentabel va tez o‘sadigan xizmat turi sifatida yuqori baholanadi.

O‘zbekiston pochtasi mijozlar istak va xoxishlarini bugungi kunda pochta xizmati axoliga taqdim etilishi, pochta xizmati sifatini oshirish va tariflarni ko‘tarish hisobiga an‘anaviy pochta aloqasi xizmatlarining raqobatbardoshlilagini oshirishga, daromadni oshirish va an‘anaviy rentabel bo‘limgan pochta xizmatlari rivojlanishi uchun yangi avtomatlashtirilgan xizmatlarni joriy etishi hamda rivojlantirishi zarur. O‘zbekistonda pochta jo‘natmalariga ishlov berish tizimini avtomatlashtirish orqali esa ko‘rsatilayotgan xizmat turlarini tezlashtirish hamda sifatini oshirish imkonini beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Axmadbekov Xokimbek, “O‘zbekistonda pochta jo‘natmalariga ishlov berish tizimini avtomatlashtirish” dekabr, 2020-yil URL:

<https://conferencepublication.com/index.php/aoc>

2. Pochta tizimini daromadli sohaga aylantirish choralar muhokama qilindi. URL: <http://uza.uz/oz/politics/pochta-tizimini-daromadli-sohaga-aylantirish-choralari-mu-ok-10-2020>

3. “Belpochta” RUP. URL: <https://belpost.by>.

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGILIZ TILINI O'QITISH METODLARI  
VA VAZIFALARI**

Sodiqova Dilnoza Baxriddin qizi  
*Buxoro viloyati G'ijduvon tumani 48-maktabning ingiliz  
tili fani o'qituvchisi*

**Annontatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ingiliz tilini o'qitish metodikalari va maqsad vazifalari haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Boshlang'ich sinf, o'qituvchi, ingiliz tili, metodlar, qobiliyat.*

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, yoshlarning chet tillarini o'rganishga bo'lган qiziqishi oshdi va davlatimiz tomonidan til o'rganishga ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganidek: "Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham, albatta, bejiz emas.

Boshlang'ich sinflarda chet til o'qitish metodikasi fani o'qitish jarayonida talimning an'anaviy va interfaol o'qitish usullardan foydalaniladi. Amaliy mashg'ulotlar og'zaki va yozma shaklda tashkil etilishi ko'zda tutiladi. Amaliy mashg'ulotlarni o'qitish jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan, xususan ko'rgazmali slaydlarni kompyuter orqali namoyish etish, elektron materiallarni proektor orqali tasvirga chiqarish vositalaridan foydalaniladi.

Boshlang'ich sinflarda chet til o'qitish metodikasi o'quv fanini o'rganish, o'zlashtirish jarayonida ta'limning bakalavr bosqichi talabalaridan o'rta umumta'lim maktab, bolalarga chet til o'qitish metodikasidan amaliy bilimlarni egallash talab qilinadi.

Nazariy bilimlarni egallash bo'yicha talablar:

-Boshlangich sinflarda chet til o'qitish metodikasining maqsadi, vazifalari, predmeti, ilmiy-tadqiqot metodlari, metodik tushunchalar, vositalar, metodlar, tamoyillar, usullar, mashqlar tizimini bilish;

-til o'rganuvchilarga til materialini (talaffuz, leksika, grammatika) metodikasini tushuntirish;

- chet tilida nutq faoliyati turlarini tinglab tushunish, gapishtirish, o'qish va yozuv malakalarini o'rgatishni bilish;

Zamonaviy boshlang'ich ta'limdagi eng asosiy va ijobiyl o'zgarishlarga sabab bo'lган qarorlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1875-sonli Qaroridir.

Ushbu qaror asosida chet tillarini, asosan, ingliz tilini o'rganish umumiyl o'rta ta'lim maktablarining 1-sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'qitish bosqichma-bosqich boshlanadi. Qarorga ko'ra, Chet tillarni o'rganishni yanada rivojlantirish bo'yicha doimiy ishlaydigan Muvoqiflashtiruvchi kengash boshchiligidagi ta'lim sohasining barcha yo'nalishlarida beqiyos ko'lamli ishlarni amalga oshirishga kirishildi.

Shubhasiz, mamlakatimiz ta'lif dargohlarida xorijiy tillar xonalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va o'qitishning ilg'or texnik vositalari bilan jihozlash, teleradiokanalarda bolalar va o'smirlarni xorijiy tillarga o'rgatuvchi ko'rsatuv va eshittirishlarni berib borish, boshqa mamlakatlar tarixi va madaniyati, jahon ilm-fani va texnik yangiliklariga bag'ishlangan ilmiy-ommabop xorijiy badiiy va multiplikatsion filmlarni o'zbekcha subtitr yordamida muntazam namoyish etish yoshlarimizga dunyo xalqlarining o'tmishi, madaniyati, ilm-fani bilan yaqindan tanishish imkonini berdi.

Boshlang'ich sinflarda, ayniqsa, birinchi sinfda o'quvchilarga chet tillarni o'rgatishda o'quvchining yoshi, fiziologik, psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Qarorda ta'kidlanganidek, birinchi sinflarda o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida chet tillarini o'rgatishni amalga oshirish, haqiqatan, kichik yoshdagi o'quvchilarga mosligidir.

Ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanish, eng samarali vositalardan biridir. O'yin davomida ularning tafakkuri, dunyoqarashi, fikrashi kengayib boradi. Olimlar ta'limga o'yin orqali yondashuv ta'lim jarayonida osonlashtiradi, deb hisoblagan. Nafaqat osonlashtiradi, balki bu fanga qiziqishini kuchaytirib, bolani chuqr bilim olishiga undaydi. O'yin tarzidagi darslar bolalarning og'zaki nutqini rivojlanishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatishni majburiyat sifatida emas, aksincha, qiziqarli o'yinlar va innovatsion metodlardan foydalangan holda olib borishi, ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shunday ekan, ta'lim tizimi ham o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shahsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalaridan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqish bilan o'z hissamizni qo'shishimiz mumkin .

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori.
2. Turdaliyeva G.N "Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar"// 2020 .
3. Bekmuratova U.B . " Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalaridan foydalanish" // Toshkent 2012.
4. Toliboboeva, S. J. (2020). TEACHING INTERCULTURAL COMMUNICATION IN ENGLISH. ScienceandEducation, 1(SpecialIssue 2).

**MARKAZIY OSIYO HUDUDINING TABIIY GEOGRAFIK RAYONLARI****Rahimberdiyeva Komilaxon Dilmuhammad qizi***Farg'ona Davlat Universiteti**Tabiiy fanlar fakuteti**Geografiya yo'nalishi 2 kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Markaziy Osiyo hududining tabiiy geografik jihatdan rayonlarga bo'lish va ularni geografik jihatdan tavsiflangan.*

**Kalit so'zlar:** *Geografik rayonlanshtirish, izlanishlar, taksonomik, provinsiya, geobotonik.*

Markaziy Osiyo Yevroсиyo materigining o'ziga xos tabiiy tarixiy o'lkasidir. Uning materikda tutgan o'rni, orografiyasi, shimoldan janubga va g'arbdan sharqqa tomon katta masofada cho'zilib yotganligi o'lka tabiatining xilma-xil bo'lisligha olib keldi. Markaziy Osiyo tabiiy komplekslarini o'rganganda ularning makonda bir xil emasligi, ular o'rtasida o'zaro bog'liqlik, bir-biriga ta'sirining har xil ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuning uchun Markaziy Osiyo hududi tabiatini chuqur bilish niyatidagi izlanishlarini olimlar uning geografiyasiga oidmateriallarni o'rganishdan, umumlashtirishdan va uning hududini ilmiy asoslangan majmuali tabiiy-geografik rayonlashtirishdan boshlashga harakat qilganlar.

Tabiiy geografik rayonlashtirish geografik izlanish metodlaridan biridir. Tabiiy geografik rayonlashtirish deganda, hududlarni ularning tabiiy geografik xususiyatlari qarab turli katta-kichiklikdagi regional biriklarga ajratish tushuniladi, Tabiiy geografik rayonlashtirishda tabiatda obyektiv mavjud bo'lgan va taksonomik jihatdan bir-biri bilan bog'liq regional tabiiy geografik komplekslarga (o'lkalar, provinsiyalar va h.k.) ajratiladi, har bir kompleks tabiatining o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi, ularning tabiatni tasvirlanadi hamda kartaga tushiriladi. Tabiiy geografik region nafaqat tabiiy sharoiti bilan, balki o'ziga xos tabiiy resurslar bilan ham boshqalaridan ajralib turadi Shuning uchun tabiiy geografik rayonlashtirish har bir hududning o'ziga xos sharoiti va resurslarini baholashga imkon beradi. Uning ilmiy va amaliy ahamiyati, ayniqsa, hozirgi vaqtida tabiatda ekologik muvozanatni saqlash va ekologik buhronning oldini olish dolzarb masala bo'lib turganda juda kattadir.

Tabiiy geografik rayonlashtirishni (tabiiy hududiy komplekslarning) taksonomik birliklar sistemasi asosida amalga oshirish mumkin. Taksonomik birliklarni qanday belgilar asosida ajratish, ularning tasniflari va nomlari hozircha munozarali bo'lib, yagona bir fikr yo'q. Markaziy Osiyo hududini tabiiy geografik rayonlashtirish ilmiy va amaliy jihatdan qanchalik muhim ahamiyat kasb etishiga ilgaridan etibor berib kelingan. Shuning uchun ham o'lka hududini tabiiy geografik rayonlashtirish bilan ko'p olimlar shug'ullangan. Ular dastlab tarmoq tabiiy geografik, ya'ni geomorfologik, iqlimiyl, tuproqlar geografiyasi, geobotanik va zoogeografik rayonlashtirishga e'tibor bergenlar. Keyinchalik kompleks tabiiy geografik rayonlashtirish sxemalari vujudga kela boshladi.

L.S. Berg, R.I. Abolin, I.P. Gerasimov, A.N. Rozanov va Ye.P. Korovin, V.N. Chetirkin, L.N. Babushkin va N.A. Kogaylar Markaziy Osiyo hududini tabiiy geografik rayonlashtirishga muhim hissa qo'shganlar. L.N. Babushkin va N.A. Kogay (1964-1965) lar ko'pgina mualliflar ishlarini o'rganib va ulardan foydalanib hamda Markaziy Osiyo tabiatini uzoq vaqt tekshirish asosida regionning yangi tabiiy geografik rayonlashtirish sxemasini ishlab chiqdilar. Mazkur sxemaga ko'ra Markaziy Osiyo Yevrosiyo materigining bir qismi, uning alohida tabiiy geografik o'lkasi deb olinib, Turon, Markaziy Qozog'iston, Jung'oriya-Tyanshan, Pomir-Tibet va Eron provinsiyalariga bo'lingan. Provinsiyalar tekislik va tog'oldi qiyaliklari tog'li kichik provinsiyalarga ular esa okruglarga (rayonlar guruhi) va nihoyat okruglar rayonlarga bo'lingan.

Har bir tabiiy geografik birlik -o'lka, provinsiya, kichik provinsiya, okrug, rayon turli darajadagi tabiiy belgilar yig'indisiga qarab ajratiladi. Shuning uchun rayonlashtirishda ajratilayotgan har bir tabiiy geografik birliklarning mezonlarini aniq belgilay bilish lozim. Quyida biz L.N. Babushkin va N.A. Kogaylarning rayonlashtirish sxemasida qo'llanilgan birliklarning mazmuni bilan tanishamiz.

Ko'pchilik olimlar tabiiy geografik rayonlashtirish sxemalarida materik ichidan povas (mintaqa), geotip. sektor, zona kabi birliklarni ajratadilar. L.N.Babushkin va N.A. Kogay esa materik ichida to'g'ridan-to'g'ri tabiiy geografik o'lkani ajratishadi. Ular o'lkaza quyidagicha ta'rif beradilar. Tabiiy geografik o'lka tabiiy geografik rayonlashtirishning yirik birliklaridan biri, u materikning katta qismidan iborat bo'lib, geomorfologiyasi, iqlimi va gidrogeografiyasining umumiyligi bilan hamda gorizontal zonalarining balandlik mintaqalari bilan ma'lum darajada bog'liqligining o'ziga xosligi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Bu talablarga Markaziy Osiyo toliq javob beradi, shuning uchun ular bu hududni alohida tabiiy geografik o'lka deb hisoblaydilar. O'lkani ajratishda L.N. Babushkin va N.A. Kogaylar tabiiy geografik sharoitning kenglik zonalariga bo'linishini ham inobatga olganlar. L.N. Babushkin va N.A. Kogayning tabiiy geografik rayonlashtirishida qabul qilingan taksonomik sistemasi uchinchi pog'onasi tabiiy geografik kichik provinsiyadir. Ular Markaziy Osiyo tabiiy geografik o'lkasi ichida tabiiy sharoitiga ko'ra bir-biridan ajralib turadigan Turon, Jung'oriya-Tyanshan va Markaziy Qozog'iston tabiiy geografik provinsiyalarini ajratadilar. Tabiiy geografik provinsiya L.N. Babushkin va N.A. Kogaylar fikricha quyidagi o'ziga xos xasusiyatlarga ega bo'lishi lozim:

1. Yer yuzasining zonalarga bo'linish sistemasida va tabiiy geografik o'lklar orasida o'ziga xos belgilari bo'lishi kerak.

2. O'ziga xos iqlim rejimiga (yog'in-sochinning yil davomida taqsimlanishida), termik sharoitiga ega va shular asosida nurash hamda tuproq hosil bo'lish jarayonlarining o'ziga xos bo'lishi kerak.

Mazkur rayonlashtirish taksonomik birligining 4-pog'onasi kichik provinsiyadir. Mualliflar tekislik va tog'lardan iborat bo'lgan Markaziy Osiyo o'lkasining Turon va Jung'oriya-Tyanshan provinsiyalari doirasida tekislik va tog'oldi tog' kichik provinsiyalarini ajratadilar. Kichik provinsiyalarning har biri boshqalardan:

morfostrukturasiga (yirik relyef shakllari-tog' zanjirlari, tizmalari, tog' vodiylari, qirlar, pasttekisliklari va h.k.) ko'ra hududining umumiyligi;

vujudga kelishi va rivojlanishi tarixining umumiyligi;

hududining o'ziga xos zonal tipga (gorizontal yoki vertikal) ega ekanligi bilan ajralib turadi. L. N. Babushkin va N.A. Kogay Turon provinsiyasidagi kichik provinsiyalar chegaralarini landshaft belgilariga qarab ajratishadi. Chegarani Kapetdog'ning shimoliy tog'oldi tekisligining Qoraqum bilan tutashgan yeridan, Mirzacho'lning allyuvial tekisliklar va Nurota tog'oldi prolyuvial tekisliklarining Qizilqum bilan tutashgan yeridan, Qashqadaryoning allyuvial tekisliklarining Dengizko'l yassi tog'ligi bilan tutashgan joylaridan o'tkazadilar. Taksonomik birlikning 5-pog'onasi okrug. Tekislik va tog' oldi -tog' kichik provinsiyalari doirasida bir-biridan yer usti yotqiziqlarining xarakteri, litologik tuzilishi, tog' tizmalarining umumiyligi yo'nalishi, tog' yonbag'irlarining quyosh nuriqa nisbatan joylashishi, chetdan keladigan havo massalarining ta'siriga ko'ra farq qiladigan hududlar mavjud. Shu munosabat bilan tekislik va tog'oldi - tog' kichik provinsiyalari doirasida okruglar ajratiladi.

Okruglar asosan hudud makroiqlimining o'xshashligiga, geologik tuzilishiga va tabiiy-tarixiy jihatdan o'xshashligiga qarab ajratiladi. L.N.Babushkin va N.A. Kogay tekislik kichik provinsiyasida 16 ta, tog'oldi tog' provinsiyasida 22 ta tabiiy geografik okrugni ajratadilar. Taksonomik birlikning 6-pog'onasi tabiiy geografik rayon. Tabiiy geografik rayonlar geomorfologik va iqlimiyligi jihatdan bir xil hududlar bo'lib, bir-biridan litologik tuzilishi, balandlik mintaqalarining o'ziga xosligi bilan farq qiladi.

Tekislik okruglarida rayonlar asosan geologik-geomorfologik va iqlimiyligi xususiyatlarga qarab ajratiladi. Shuning uchun tekislik tabiiy geografik rayoni okrug hududida boshqa qismlardan geologik-geomorfologik yoki iqlimiyligi jihatdan ajralib turgan bir qismidir. Biroq tabiiy rayonlar ajratilganda birinchi galda issiqlik hamda namni saqlab turadigan va bundan kelib chiquvchi boshqa barcha oqibatlarga sabab bo'ladigan relyefga asosiy e'tibor beriladi. Rayonlar landshaft kartalari asosida ajratiladi. Shuning uchun tabiiy rayon landshaftlarning ma'lum majmuasidan iborat bo'ladi.

Markaziy Osiyo hududini tabiiy geografik rayonlashtirish har xil masshtabda va maqsadda har xil tamoyil va uslublarni qo'llab amalga oshirilgani uchun rayonlashtirish sxemalarida kattagina farqlar mavjud.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.L.M. Abdunazarov, Sh.A. Qambarova, O.Q. Tobirov. «Markaziy Osiyo geografiyasi». 2017-yil.
- 2.G.P.Pardayev, I.A.Hasanov, P.N.G'ulomov «Markaziy Osiyo geografiyasi». T. «Cho'lpon» 2007.
3. A.Ro'ziyev, K.Abirqulov. O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi. T., «Sharq», 2001.

## INGLIZ TILINI O'RGANISH BO'YICHA MULTFILM YARATISH

**Toshniyozov Sherali Kamoliddin o'g'li**

*Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti Kompyuter injineringi fakulteti  
Multimediya texnologiyalari 213-20-guruh talabasi*

**Anotatsiya:** ushbu maqolada animatsion multfilmlar qanday yaratilishi va nima maqsadda yaratishi haqida yozilgan. Bundan tashqari, animatsion multfilmlarning bolalarga ta'siri va necha yoshda qanday mavzuli multfilmlar ko'rish tavsiya etilgan.

**Kalit so'zlar:** multfilm, harakatsiz tasvirlar, animatsion, illyuziya, yaratish, pantomimalar, yosh mezonlari, pantamimo.

Multfilmlarni yaratish tarixi 1877 - yilda Frantsiyaning eng go'zal mamlakatida boshlangan. O'z-o'zini o'rgatadigan muhandis Emil Reyno jamoatchilikka yaratilgan birinchi shaxsiy praksinoskopni taqdim etdi. Ma'lumot uchun: *praxinoskop* - bu aylanuvchi barabanga yopishtirilgan qog'oz tasmaga tatbiq etilgan rasmlarni ko'rish uchun mo'ljallangan qurilma.

Dastlabki multfilmlar qo'lda va qo'lda bo'yalgan pantomimalar ko'rinishida bo'lib, davomiyligi o'n besh daqiqa davom etdi. O'sha paytda soundtrack ishlatalishi mumkin edi va u rasm bilan to'liq sinxronlashtirildi.

Multfilmlarning turli xil tasniflari yaratilgan: ishlab chiqarish texnologiyasi, maqsad va vazifalari bo'yicha; davomiyligi bo'yicha; yosh mezonlari va manfaatlari bo'yicha; millati bo'yicha (ishlab chiqaruvchi mamlakatlar)

Multiplikatsiya – bu ekranda harakatlanuvchi tasvirlarni yaratishdir. Yanayam aniqrog'i to'xtovsiz harakat illyuziyasi. Amalda esa sanoqli kadrlar ketma-ketligidir. Va yana – texnik murakkablik hamda doimiy rivojlanib boruvchi san'at. Shunday ekan kimdir sizga multfilm – jiddiy narsa emas, desa u bilan bemalol qizg'in munozara qilishingiz va misollar keltirishingiz mumkin. Harakatlanuvchi rasmlarning qisqacha ta'rifi mana shundan iborat. Bundan esa animatsiya kinoga nega o'rin bo'shatib bermayotgani va hatto undan ustun ekanligi yaqqol ko'riniq qoladi.

Multfilm turlari.

Uzun metrajli multfilmlar: odatda 70 daqiqadan oshadigan multfilmlar

Qisqa animatsion filmlar (odatda taxminan 10-30 daqiqa) Ko'rsatish usuli bilan

Teatrlashtirilgan multfilm - ushbu toifaga avval kinoteatrarda namoyish etiladigan, keyinchalik televizorda namoyish etiladigan va videofilmlarda chiqarilgan multfilmlar kiradi. Endi shu tarzda faqat to'liq metrajli multfilmlar namoyish etiladi, garchi ba'zida (masalan, ko'plab Disney multfilmlarida) to'liq metrajli filmdan oldin qisqa multfilm namoyish etiladi. Ilgari, televizorlar keng qo'llanilishidan oldin kinoteatrarda qisqa multfilmlar ham namoyish etilardi.

"To'g'ridan-to'g'ri video" - bu biron bir sababga ko'ra kinoteatrda namoyish qilinmagan to'liq metrajli multfilm.

Qisqa multfilmlar va animatsion seriallar televizorda namoyish etiladi va video ommaviy axborot vositalarida tarqatiladi.

Qo‘g‘irchoqli multiplikatsiya.

Stop-motion texnologiyasi teatr va qo‘g‘irchoq teatrlaridagi dekoratsiyadek sahnamaket sifatida qo‘llaniladi. Xayoliy harakat hosil qilish uchun qo‘g‘irchoqlarning turish holati o‘zgartiriladi. Va har safar o‘zgartirilganda suratga olib boriladi. Ana shundan keyin bularning hammasi umumlashtirilib, film holiga keltiriladi. Animatsiyaning bu turi klassik animatsiya bilan bir vaqtida paydo bo‘lgan. Misol uchun, “Oyga sayohat” filmidagi mashhur epizod – kosmik kemaning Oyga tushishi tasvirlari – stop-motion xizmati sanaladi.

Qo‘g‘irchoq multfilmlari – animatsiya olamida o‘z tarixiga ega. U ishlab chiqarishning murakkabligi tufayli franshiza (kino to‘plam)ga aylantirib yuborilmaydi. Tijorat nuqtai nazaridan ham foydali emas. Biroq “jonlantirish”ning bu usulida o‘ziga xos sehr bor.

Harakatdagi tasvirlar kompyuterda qayta ishlangan 3D-animatsiyasi yordamida amalga oshiriladi. Uch o‘lchamli obyektlarning modellari postanovkachilar istaganidek harakat qiladi.

Kinoda kompyuter animatsiyasini birinchi bo‘lib Jorj Lukas qo‘llagan. “Yulduzlar jangi”ning ilk epizodlaridagi maxsus effektlarni muxlislar hali hamon zamonaviy filmlardagi grafikaga qaraganda yuqori baholashadi. Lukasning ILM studiyasi shuningdek, juda mashhur kinoepopeyalarda “Indiana Jons”, shuningdek, “Quyon Rojerni kim sotdi?” filmidagi haqiqiy aktyorlar va chizilgan qahramonlar aralashuvida ham ajoyib effektlarni qo‘llagan.

Farzandlarimizni kim tarbiyalayapti? Ko‘plab mas’uliyatli ota-onalar: "Men!" Ammo haqiqatan ham shundaymi? Atrofdagi dunyoning qanday qiyofasi, undagi xatti-harakatlar, undagi o‘rni multfilmlar qanday? Nima tomosha qilish kerak? Ushbu va boshqa savollarga javob berishga harakat qilamiz.

Badiiy obraz - bu ma'lum bir estetik ideal nuqtai nazaridan san'atdagi ob'ektiv haqiqatni aks ettirish (ko‘paytirish) shakli. Turli xil badiiy asarlardagi badiiy obrazning mujassamlanishi turli xil vositalar va materiallar (so‘z, ritm, chizma, rang, plastmassa, mimika, film montaji va boshqalar) yordamida amalga oshiriladi.

Aqliy jarayonlar va shaxsiyat xususiyatlarining rivojlanishi eng intensiv ravishda erta yoshda sodir bo‘ladi. Psixologlarning ayrim kuzatuvlariga ko‘ra, 5 yoshgacha bo‘lgan bola atrofdagi dunyo haqidagi ma'lumotlarning 60 dan 70 foizigacha, butun umri davomida esa 30-40 foizni egallaydi. Bolalar shaxsining shakllanishi ularning hayotining dastlabki 5-7 yillarida sodir bo‘ladi. Bolaning keyingi aqliy rivojlanishi bu yillarda qanday poydevor qo‘yilishiga bog‘liq. Bola hayotini shu yoshdagagi imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanishi uchun qurish juda muhimdir.

Multfilmlar o‘yin-kulgining katta qismini egallaydi. Buning bir nechta sabablari bor:

- Multfilmlarning o‘zi, avvalgi xatboshida aytib o‘tilganidek, yoshning o‘ziga xos xususiyatlari tufayli bola uchun qiziqarli;

- Zamonaviy multfilmlar yaratuvchilari bolalarni televizor tomosha qilishlari uchun barcha vositalardan foydalanadilar (hazil, yorqin ranglar, dinamizm va boshqalar);

• Ota-onalar uchun bolasini televizorda qoldirish u uchun o'yinlar va ko'ngil ochish, unga yordam berish va uning rivojlanishida ishtirok etishdan ko'ra osonroqdir. Bu ikki sababga ko'ra sodir bo'ladi:

- Ota-onalarning o'zлari, o'zлarining kambag'alliklari tufayli, bolaning rivojlanishini qaerga yo'naltirishni bilishmaydi.

- Hozirgi tsivilizatsiyaning turmush tarzi shu tarzda rivojlanganki, aksariyat ota-onalar o'z farzandlarini tarbiyalash uchun kuch va vaqtga ega emaslar.

Shu sabablarga ko'ra ta'lim, bilish va rivojlanish funktsiyalari deyarli butunlay multfilmlarga, xususan televizion ekranga to'g'ri keladi, chunki bola faqat multfilmlarni tomosha qilishiga kafolat yo'q.

Multfilmlarning tasviriy tomonining ba'zi kamchiliklari:

Ikkilamchi jinsiy xususiyatlarga haddan tashqari e'tibor berish. Tashqi ayol qiyofasi ta'kidlangan: ko'krak qafasi, bel, sonning aniq yengilligi - bu qiziqish uyg'otadi

Dinamizmning kuchayishi. Televizor ekranida o'ta dinamik sahnalarini va yorqin chiroqlar bilan tomoshalarni tomosha qilish moyil bolalarda epileptik tutilishlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Tabiiylik, fiziologiya jarayonlari ataylab chizilgan bo'lsa: yaralar, ajralishlar (tuplar, tupurik va boshqalar), mushaklarning yengilligi va boshqalar.

*Soundtrack* ning video ketma-ketligiga mos kelmasligi. Bu ayollarning ovoziga taalluqlidir: tanqidiy vaziyatdagi qahramonlar o'zlarini juda yaxshi his qilgandek nola qiladilar. Bolaning yoshiga mos kelmaydigan nutq ham mavjud. Qahramonlar yo murakkab so'zlar bilan gapirishadi, yoki ularning nutqi va hissiyotlari xiralikgacha ibtidoi.

Kompyuter animatsiyasi tomoshabinga filmni chuqurroq his qilishga, qahramonlar bilan birgalikda yelib-yugurib, g'aroyib parvozlarni amalga oshirishga imkon berdi. Klassik animatsiyada, hatto oddiy kinoda ham kameraning bunday imkoniyatlari yo'q edi. Aynan shuning uchun 3D-multfilmlarda yugur-yugurlar, turli sarguzashtlar juda ham ko'p bo'ladi. Ssyenariy esa ana shularni hisobga olgan holda yoziladi. Albatta, yaxshi multfilmlar faqat texnologiyalar hisobiga maftun qilmaydi. Aynan uning keng imkoniyatlari rejissyorlarga faqat kechinmalarni aks ettirishnigina emas, balki murakkab mavzularga qo'l urish imkonini ham beradi. Uning yordamida Xayao Miyadzaki tabiat bilan uyg'unlik haqida so'z ochadi, Tim Barton hatto o'lim haqida ham kulib gapiradi, Pixar filmlari esa o'z-o'zini tushunishga, shaxsiy hislarni anglashga o'rgatadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Animatsiya 24 - iyul 2012.
2. Jigarrang, Marjeri Eksperimental animatsiya usullari (2003).
3. Uilyam Kentrij MoMA-da 2010 yil.
4. Eng qadimgi ma'lum bo'lgan LEGO filmi 2014 yil.
5. Heritage Trust (2012 yil 25-iyul).
6. <https://uz.birmiss.com/nima-multfilm-korishni-bolalar-va-kattalar-uchun-multfilmlar-royxati/>
7. <https://daryo.uz/2021/04/25/ota-onalarga-farzandlari-bilan-birga-tomosha-qilish-tavsiya-etiladigan-12-ta-multfilm-foto/>

**XORAZM SHAHARLARI TOPONOMIKASI VA ETNOLOGIYASIGA OID  
BA'ZI MULOHAZALAR.**

Baxtiyorova Oltinoy

*Urganch Davlat universiteti*

*Tarix yo'nalishi tadqiqotchisi.*

**Maqolaning qisqacha mazmuni:** *Mazkur maqolada Xorazm shaharlari vujudga kelishi tarixini o'rghanishda toponomik manbalarning o'rni masalasi ochib berilgan.*

**Аннотация:** В этом статье освещена роль топономических источников в проблеме истории возникновении городов Хорезма.

**Kalit so'zlar:** *Avesto, Ardashushmitan, Kat, Sadvar, Nuzvar, Kardaranxos, Darxos, Git, Jigarband, Xiva, Gardman, Ardashiva, Nukbog', Vayxon, Sho'roxon, Juvorxos, Navxos, Pirnaxos, Zenaxos, Nezaxos, Chorxos.*

**Ключевые слова:** *Авеста, Ардахушмисан, Кят, Садвар, Нузвар, Кардараңхас, Дархас, Гит, Джигарбенде, Хива, Гардман, Вайхан, Ардахива, Нукбаг, Шурахан, Джузвархас, Наевхас, Пирнахас, Зейнахас, Нейзахас, Чархас.*

**Annotation:** This article highlights the role of toponomic sources in the problem of the history of the emergence of the cities of Khorezm.

**Key words:** *Avesto, Ardashushmitan, Kyat, Sadvar, Nuzvar, Kardaranxos, Darxos, Git, Jigarband, Xiva, Gardman, Ardashiva, Nukbog', Vayxon, Sho'roxon, Juvorxos, Navxos, Pirnaxos, Zenaxos, Nezaxos, Chorxos.*

Xorazm vohasi shaharlari tarixini tadqiq qilishda mahalliy toponimlar juda qimmatli manba hisoblanadi. Ammo ularning mohiyatini ochishga tarixchi, sharqshunos va tilshunos olimlar yetarli e'tibor bermasdan kelmoqdalar.

Xorazmda mavjud joy nomlari juda qadimgi davrlarda shakllangan. Ular orasida "uy", "yashash joyi", "shahar", "manzilgoh" ma'nolarini anglatuvchi o'zakdan tashkil topgan bir qator nomlar bor. Masalan, maevana (mitana) so'zi — Ardashushmitan, Xushmitan, Raxushmitan kabi qishloq nomlarida, "Kat", "Kas" so'zi — sharqiy eron tillaridagi "shahar" nomlarida aks etgan. "Avesto"dagi kata ("yerto'la", "yer osti sag'anasi"), pahlaviy tilidagi katak, forschadagi kada, kad — "uy", "shahar", so'g'dchadagi kt 'k, kty 'k — "uy" so'zlarini eron tillarida yaxshi ma'lum bo'lgan va "qazimoq", "kavlamoq" hamda "ko'mmoq" ma'nolarini beruvchi kan fe'liga bog'lab o'rghanish lozim. SHunda kata, kanta so'zlari — devor bilan o'ralgan va mustahkamlangan manzilgoh ma'nosini bildiradi.

Xorazm shaharlari nomlari mazmunini aniqlashtirish borasidagi dastlabki tadqiqotlar muhim xulosalarga olib keldi. Qadimgi Xorazm toponimlarida mamlakat aholisi hayoti uchun zarur suv manbalari va qal'alar nomlari o'z aksini topgan. Keng tarqalgan "kat" iborasida esa taxt, poytaxt, "murdalar uyi", yerto'лага xos kulbalardagi bo'lmlalar, yog'och so'ri kabi ma'nolar o'z aksini topgan.

Xorazmga kelayotgan karvon yo'llardagi manzil va makonlarning nomlari ko'pgina olimlar tomonidan bir xilda sanab o'tiladi. Al-Maqdisiy Amudaryoning Mosh va Sandadan

degan tor joydan o'tgach, Boqirg'on, SHo'roxon, Kat, Xos, Nuzkat, Vayxon, Nukfag, Mizdahqon va shu kabi shaharlar yaqinidan oqib o'tganligini qayd etgan. Yana bir noma'lum sayyoh tasvirida Katga olib boruvchi yo'lda, Gardman, Vayxon, Ardashiva, Nukbog' kabi shaharlar borligini ko'rsatgan. Ushbu shaharlarning nomlari tahlil etiladigan bo'lsa, Nuzkat — "yangi shahar", Nukbog' — "yangi maydon", "yangi bog'", Gardman — "jannatmakon joy" degan iboralar shakllanadi. Vayxon, SHo'roxon shaharlari nomlaridagi "xon" negizi shahar va kanal nomlariga asos bo'lgan.

Xorazm toponomislarda "band" iborasi ham ko'p uchraydi va u "o'tish joyi" degan tushunchani beradi. Amudaryo qirg'og'ida joylashgan qadimgi Jigarband qishlog'i yonida kechuv bo'lgan. Jitband qishlog'i esa Xorazm vohasining Qoraqum sahrosiga yaqin yerida joylashgan bo'lib, karvonlarning sahroni kesib o'tishni boshlaydigan joy hisoblangan. Xorazmdagi "Safardiz" qishlog'i nomidagi "diz" qo'shimchasi — "qal'a" ma'nosini, "Ko'handiz" — "eski qal'a" nomlarini bildirgan. Qadimgi Safardiz qal'asi hozirgi Xonqa tumani markaziga yaqin yerda joylashgan bo'lib, savdo-sotiqni rivojlantirishda alohida o'rinn tutgan.

Endi Xorazmning eng asosiy mashhur shaharlari Xiva, Hazorasp va Urganch shaharlari nomining kelib chiqishi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, ularning nomlarining kelib chiqishi yuqoridagi shaharlarnikidan umuman boshqacha yo'sinda shakllangan.

Jumladan, Xiva so'zining kelib chiqishi haqida turli fikrlar mavjud. Xevak yoki Xiva atamasi qanday kelib chiqqan va qanday ma'noni bildiradi? Mahalliy aholi orasida Xiva tushunchasi haqida bir necha rivoyat va afsonalar mavjud. SHulardan biri Xiva tarixchisi Xudoyberdi Avaz Muxammadning 1831/32 yillarda yozib qoldirgan "Dili G'aroyib" nomli asariga xam kiritilgan. Bu rivoyatga ko'ra Xiva qal'asini Nuh payg'ambarning o'g'li Som bunyod etgan emish.

Kunlardan birida Som Xiva atroflariga kelib, ov qilib charchab qum barhanlarining biri ustida uqlab qolgan va hayratomuz tush ko'rgan. Tushida 300 mash'al yoqilgan katta maydonda sayl bo'layotgan emish. Yaxshi kayfiyat bilan uyg'ongan Som o'zidan bir xotira qoldirish maqsadida o'sha joyga tuproq to'plab, shahar andozasini yasagan. Yana bir kelganda qal'a atrofini paxsa devor bilan o'rab olgan. U kun botar tarafda bir chashma qazdirgan. Bu chashma Xevok qudug'i bo'lish ehtimolidan uzoq emas.

Qal'ani otasi Nux payg'ambarning kemasiga o'xshatib ko'rgan. Uning dastlabki nomi Raml bo'lgan. Raml arabcha "chagalzor, qumlok" demakdir.

Raml shahri keyinchalik Xivok nomi bilan atalgan. Xiva so'zi birinchi marta X asrda o'tgan g'arb geograflari Istaxriy, Muqaddasiy, Yoqut al hammaviy (XIII asr) asarlarida uchraydi. Yoqutning ta'kidlashicha, bu shaharni o'sha davrda "Xevok" deb yozganlar.

Boshqa o'rta asr yozma manbalarida shaharning nomi "Xayvok", "Xivok", "Xivonik" deb tilga olinadi. Qariyalarning izoh berishicha, Xiva tushunchasi "Xevox" so'zidan kelib chiqqan., ammo bu izoh ilmiy asosga ega emas.

Xiva yoki Xevok nomining etimologik ma'nosi hozirgacha to'la aniqlanmagan. Bu atama haqida olimlar o'rtaida turli fikrlar mavjud.

Akademiklar Ya.G'ulomov, A.Asqarov va tarixchi olim, professsor A.R.Muhammadjanovlar "Xiva" tushunchasi "Xaykonik" va "Xayvanik" atamalari bilan aloqador ekanligini qayd etadilar. "Xaykonik" va "Xayvanik" atamasi ilk bor. XIV asr vaqf hujjatlarida tilga olinadi. Bu nom bilan o'sha davrda Xiva atrofining suv bilan ta'minlab kelgan Polvon yop atalgan. Abulg'oziy Bahodirxonning "SHajarayi turk" asarida "Xikanik" arigi tilga olingan. Munis va Ogaxiyuning "Firdavs ul ikbol" asarida "Xaykonik" va "Xayvonik" nomlari Polvon yopning nomini anglatgani xaqida ma'lumotlar bor. Tilshunos olim, professor Z.Do'simov Xiva nomi haqida tubandagi fikrni bildiradi. Uning ta'kidlashicha, Xiva nomining etimologiyasini qadimgi xorazmiy tilidan axtarmoq kerak. Rus sharqshunos olimi A.Freyman o'zining "Xorazm tili" (1953-y) asarida qayd qilishicha, qadimgi Xorazm tilining grammatic xususiyatlari "tirik" tillardan hozirgi osetin tiliga ancha yaqin bo'lgan. SHunga asoslanib olim Xiva atamasi qadimgi Xorazmiy tilidagi "Qishloq" ma'nosini bildiradi. hozirgi osetin tilida ham bu so'z Xiua, Xiva shaklida namoyon bo'lib, "Ovul", "Qishloq", "Ko'rg'on" ma'nosini anglatadi, deb xulosa qiladi.

Bizga "Xevok" yoki "Xiva" atamasining qaerdan kelib chiqishi va qanday ma'noni bildirishi xaqida ko'p olimlar, tadqiqotchilar bosh qotirganligi ma'lum. SHular jumlasidan XX asrning 60-yillarida Xiva tarix muzeyida ilmiy xodim lavozimida ishlagan T.Seredadir. Bu ayol "Xiva" atamasining etimologik ma'nosini aniqlash borasida ancha ishlar qilgan. U ko'pgina tarixiy manbalarga, kitoblarga murojaat kilgan va xalq orasida mavjud hikoyalarni ham hisobga olgan. Ammo qo'yilgan savolga aniq javob topa olmay, Moskva davlat dorilfununing qadim yahudiy tillari kafedrasiga yozma ravishda murojat qilgan. Moskva dorilfununing qadim yahudiy tillari kafedrasidan kelgan javobda "Xevok" so'zi qadim yahudiy tilida "Suv manbai", "quduq" degan ma'noni bildiradi deb yozilgan edi.haqiqatan ham Xiva shahrining nomi "Xevak" qudug'i nomidan olingan bo'lishi mumkin. Bu eng qadimiy quduq bo'lib, hozir ham mavjud.

Endi nima uchun "Xevak" so'zi qadim yahudiy so'zi bo'lib chiqdi, yahudiylarning bunga qanday aloqasi bor? degan savol tug'iladi.

Taniqli rus olimi Lev Gumilevning ma'lumotlariga ko'ra, arab xalifaligi taxtiga Abbosiylar kelgandan keyin ishbilarmon, tadbirkor savdogarlar uchun g'arbdan SHarqqa keladigan karvon yo'llarini o'rghanish va savdo-sotiq ishlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochilgan. Yo'llarni o'rghanuvchi, ko'rsatuvchi maxsus savdogarlar guruhi paydo bo'lib, ularning aksariyati o'sha davrda yahudiy savdogarlari bo'lgan. Ular hatto G'arb bilan SHarq o'rtasidagi savdoni monopoliya qilib olganlar. Eroniylar ularni raxdanitlar deb atashgan. Bu forscha so'z yo'l biluvchilar, yo'l ko'rsatuvchilar degan ma'noni bildiradi.

Demak, hozircha "Xiva" atamasining etimologik ma'nosi haqida olimlar o'rtasida yagona bir fikr yo'q.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, kelgusida ham Xorazm shaharlari tarixini o'rghanishda toponimik tadqiqotlar natijalaridan keng foydalanish lozim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Абулгозий «Шажараи турк» Тошкент-1992
2. Бартольд В.В. Туркестан при исламе // Соч., т.2, ч. 1. — М., 1963, с. 209.
3. Боголюбов М.Н. Древнеперсидские этимологии// Древний мир. — М., 1962, с. 368-370.
4. Гумилев Л.Н. Древняя русь и великая степь.-М,: Мысль, 1989, с.127-128.
5. Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. — М.-Л., 1938.
6. Неразик Е.Е. К проблеме развития городов Хорезма // В кн.: Культура и искусство древнего Хорезма. — М.: «Наука», 1981, с. 219-227.
7. Норқулов Н.К. Беруний ва Хоразм. Тошкент, 1973, 23-24-бетлар.
8. Снесарев Г.П. Большие семейные захоронения у оседлого населения Левобережного Хорезма // КСИЭ. Вып. 33. — М., 1960, с. 60-71.

## КИЧИК БИЗНЕСНИ БОШКАРИШДА УСЛУБИЙ ЁНДАШУВЛАР

Ubaydullaev Akmal Tulkinboevich

*Namangan Muhandislik-Tehnologiya Instituti tayanch doktoranti*

Ҳар қандай давлатда инновацион фаолият шаклларининг ривожланиши иқтисодий, молиявий ва сиёсий тизимларнинг модернизацияси билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, самарали ривожланиши ишбилармонлик муҳитининг ривожланиш даражасини белгилайди. Ҳозирги вақтда ички иқтисодиёт бутунлай янги ижтимоий-иқтисодий фаолият шароитларига ва жаҳон иқтисодиётининг ҳозирги глобаллашув жараёнларининг ҳақиқатларига мослашиш даврини бошдан кечирмоқда, айниқса, бундай шароитлар кўплаб ташки иқтисодий ва сиёсий кучлар таъсири остида сезиларли даражада ўзгариши мумкин. Замонавий миллий иқтисодиётнинг муваффақиятли ва самарали ривожланиши учун тадбиркорлик фаолиятини юритиш шакл ва усусларини такомиллаштириш учун янгича қарашлар ва ёндашувлар зарур. Уларнинг ривожланиши учун иқтисодиётнинг ўрганилаётган соҳасини бошқаришнинг хорижий тажрибасини ўрганиш мыйсадга мувофиқдир.

Хорижий мамлакатларда кичик бизнесни ривожлантиришга давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари томонидан катта аҳамият берилиб, молиялаштиришга турли кўмак ва кенг кўламли имтиёзлар берилмоқда. Кўпгина ривожланган ва ривожланаётган мамлакатларда кичик бизнес давлатнинг ижтимоий ва иқтисодий ривожланишида, ахоли бандлигини таъминлашда, ўрта синфнинг шаклланишида ва иқтисодиётнинг барқарорлигига мухим рол ўйнайди.

Кичик бизнес фаолиятини рағбатлантириш асосида ҳудудий ривожлантириш масалаларига бағишлиланган илмий тадқиқотларни таҳлил қиласиган бўлсак, давлат томонидан қўллаб-қувватлаш давлат ва тадбиркорлик тузилмалари ўртасидаги ўзаро ҳамкорликнинг муҳим шаклларидан бири ҳисобланади деган холосага келиш мумкин. Шу муносабат билан иқтисодиётнинг ўрганилаётган сектори фаолиятини бошқаришнинг қўшимча ўрганишни талаб етuvчи асосий омилларидан бири кичик бизнесни давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари томонидан қўллаб-қувватлашдир[6-13].

Шундай қилиб, давлат томонидан қўллаб-қувватлаш асосан тадбиркорлик ташаббусининг барча шаклларини фаоллаштиришга қаратилган ва институционал тадбиркорлик муҳитининг сифат ҳолатини белгилаб беради. Уни таъминлаш турли усуслар билан амалга оширилиши мумкин (1-жадвал).

1-жадвал: Кичик бизнесни ривожлантиришда давлат бошқаруви усуллари

<b>Метод гурухи</b>	<b>Усуллари</b>
Тадбиркорлик фаолиятини давлат томонидан тартибга солишинг маъмурий усуллари	<ul style="list-style-type: none"> <li>- юридик шахслар ва якка тартибдаги тадбиркорларни давлат рўйхатидан ўтказиш;</li> <li>- кичик бизнесни солиқقا тортиш;</li> <li>- кичик бизнес ва тадбиркорлик фаолияти устидан давлат назорати (молиявиф назорат);</li> <li>- тадбиркорлик фаолиятини лицензиялаш ва назорат килиш;</li> <li>- монопол бозорларни тартибга солиш, даромадлар даражаси ва ижтимоий нафакалар хажмини назорат килиш;</li> <li>- тарифларни тартибга солиш;</li> <li>- молиявий институтларнинг ривожлантириш;</li> <li>- хукукий ёрдамнинг баркарорлигини таъминлаш ва бошкалар.</li> </ul>
Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy usullari	<ul style="list-style-type: none"> <li>- молия, кредит ва бюджет сиёсати;</li> <li>- ижтимоий-иктисодий ривожланишни режалаштириш ва прогноз қилиш;</li> <li>- дастурий-мақсадли бошқарув усуллари;</li> <li>- божхона тизимини тартибга солиш;</li> <li>- давлат ва маҳаллий буюртмалар;</li> <li>- давлат томонидан қўллаб – қувватлаш, тадбиркорларнинг манбаатларини химоя килиш ва бошкалар.</li> </ul>

Манба: муаллиф томонидан тузилган.

#### Метод гурухи Усуллари:

Тадбиркорлик фаолиятини давлат томонидан тартибга солишинг маъмурий усуллари - юридик шахслар ва якка тартибдаги тадбиркорларни давлат рўйхатидан ўтказиш;

- кичик бизнесни солиқقا тортиш;
- кичик бизнес ва тадбиркорлик фаолияти устидан давлат назорати (молиявиф назорат);
- тадбиркорлик фаолиятини лицензиялаш ва назорат килиш;
- монопол бозорларни тартибга солиш, даромадлар даражаси ва ижтимоий нафакалар хажмини назорат килиш;
- тарифларни тартибга солиш;
- молиявий институтларнинг ривожлантириш;
- хукукий ёрдамнинг баркарорлигини таъминлаш ва бошкалар.

Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy usullari -

молия, кредит ва бюджет сиёсати;


- ижтимоий-иктисодий ривожланишни режалаштириш ва прогноз қилиш;
- дастурий-мақсадли бошқарув усуллари;
- божхона тизимини тартибга солиш;
- давлат ва маҳаллий буюртмалар;
- давлат томонидан қўллаб – қувватлаш, тадбиркорларнинг манбаатларини химоя килиш ва бошкалар.

Манба: муаллиф томонидан тузилган.

"Маъмурий" ёндашувни қўллаш натижасида давлат томонидан бошқарув тартиблари, масалан, рўйхатга олиш, жорий фаолиятни маъмурий, давлат ва молиявий назорат қилиш, юридик шахс сифатида тан олиш, солиқни манипуляция қилиш ва бошқалар тадбиркорликнинг ташки кўринишлари, унинг расмий тузилмалари ва уларнинг ижтимоий аҳамиятини ҳисобга олиш асосида қурилади. Қарор қабул қилиш эркинлиги ва мажбуриятлар учун масъулият омиллари устидан назорат аксентларининг устунлиги ва тадбиркорлар фаолиятидаги колективлик даражасини деярли билмаслик, бошқарувнинг бундай моделини етарлича даражага эга бўлмаган, қўпол, асос сифатида таснифланади. Маъмурий ёндашув давлатлараро муносабатларни тартибга солиш нуқтаи назаридан зарур бўлса-да, тадбиркорликка нисбатан рағбатлантиришдан кўра кўпроқ чекловчи ёки чегараловчи ҳисобланади.

"Иқтисодий" ёндашув кичик бизнесни жамият ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг асосий таркибий қисми сифатида рағбатлантиришга, яъни тадбиркорликнинг сифат хусусиятларини, тизимнинг таркибий қисмларини бошқаришга қаратилган. Кичик бизнес ахолини иш билан таъминлаш масалаларини хал килишдан ташкари, жамиятнинг баркарорлаштирувчи қисми бўлган "ўрта синф" ни шакллантиришдан бошлаб, йирик, ижтимоий ва иқтисодий аҳамиятга эга корхоналар "ўсиши" мумкин бўлган потенциалнинг бошланиши сифатида қаралади.

Тақдим этилган ёндашув доирасида кичик бизнесни қўллаб-қувватлашнинг мавжуд тажрибасини таҳлил қиласиган бўлсак, бешта асосий йўналишни ажратиб кўрсатишимиш мумкин:



1-расм: Кичик бизнесни қўллаб-қувватлашнинг асосий йўналишлари

*Davlat boşqaruv organlarining tashkiliy faoliyati* – кичик бизнесни давлат томонидан қўллаб - кувватлашнинг асосий компоненти. У иқтисодиётнинг ўрганилаётган секторини бошқариш учун зарур бўлган институтлар ва муассасаларни яратишни ўз ичига олади. Давлат хокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятида тақдим этилган йўналишнинг йўклиги, юкорида кўрсатилган шаклларнинг бирортасида бу ёрдамни тақдим этишнинг иложи йўклигига олиб келади [3; 5; 9].

Маъмурий tartibga solish. Бу йўналиш кичик ва ўрта бизнес мезонларини белгилашнинг Қонунчилик асослари ва уларни қўллаб-қувватлаш чора-тадбирларини замон талабларига мос равишда яратиш, такомиллаштириш ва созлашни ўз ичига олади. Қабул қилинган сиёсатни амалга ошириш учун масъул бўлган маҳсус давлат органларини ҳукumatнинг барча даражаларида ва давлатнинг барча худудларида ташкилий йўналиш билан қисман кесишган ҳолда ташкил етишни назарда тутади.

Иқтисодий имтиёзлар бериш ва рағбатлантириш. Бу йўналиш молиявий ҳисботни соддалаштириш ва солик юкини камайтириш, уларга имтиёзли кредитлар ва давлат кафолатларини бериш, беғараз субсидиялар ажратиш, давлат мулкини имтиёзли шартлар асосида фойдаланишга ўтказиш, давлат буюртмаларини жойлаштириш ва бошқаларни ўз ичига олади. [11; 12; 15].

Бу энг қиммат ва самарали, қисқа муддатли чора-тадбирлар мажмуидир. Рағбатлантирувчи таъсирга, асосан, янги бошлаётган тадбиркорлар учун хавфни тўғридан-тўғри камайтириш орқали эришилади, бунинг натижасида янги очилган корхоналар сони кўпаяди, ўз бизнесини очишга журъат эта олмайдиган фуқаролар тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланадилар.

Бирок, бизнесни бошлаш учун яратилган шартлар хар доим ҳам унинг муваффакиятли ривожланишига олиб келавермайди. Ҳақиқий ташқи таваккалчиликка нисбатан бошланғич тадбиркорнинг йўналтирилиши имтиёзларнинг амал қилиш муддати тугаши билан янги корхоналарнинг банкрот бўлишига олиб келади. Бундан ташқари, иқтисодий жиҳатдан "заиф" корхоналарни қўллаб - қувватлаш (кам даромад, капиталлашув, ходимлар сони) бюджет харажатлари ва умуман иқтисодиёт самарадорлигини пасайтиради. Ички ресурслардан фойдаланиш (харажатларни оптималлаштириш, меҳнат унумдорлигини ошириш, рентабеллик ва бошқалар) туфайли емас, балки имтиёзли позицияга қараб "сунъий" рақобатбардошликтни олишнинг жозибадорлиги вақтида чегараланмаган, самарасиз, кучсиз, "паразит" хўжалик юритувчи субъектларнинг сезиларли сони пайдо бўлишига олиб келиши мумкин [6;11;13].

Ахборот ва услубий ёрдам. Ушбу чора-тадбирлар гурухига кичик корхоналарга таълим ва малака ошириш соҳасида тегишли хизматлар қўрсатишга қаратилган турли ахборот-таҳлил мажмуаларини яратиш ва қўллаб-қувватлаш, ҳукуқий қўллаб-қувватлаш, солик ва бухгалтерия таъминоти, маркетинг, логистика ва бошқалар киради.

Davlat tomonidan bunday xizmatlar ko'rsatish nafaqat kichik, balki umuman barcha tadbirkorlikni rivojlanishiga uzoq muddatli ijobjiy ta'sir ko'rsatadi [9; 11]. Шу билан бирга, кичик корхоналар томонидан бундай ресурслардан устун фойдаланиш ўз маблағларининг камлиги ва кичик ёки бошланғич компаниялар ичida бундай хизматларни ташкил қилишнинг иррационаллиги билан боғлиқ.

Бундай тадбирларнинг билвосита, танлаб олинмаслиги таклиф этилган воситалардан бозор tengлиги шартларини бузмасдан, бизнеснинг барқарорлиги ва рақобатбардошлигини ошириш учун фойдаланишга ундейди [14; 16]. Шундай қилиб, таълим, ахборот, ташкилий, консалтинг ва бошқалар мажмууси давлат хизматлари узоқ муддатли ва доимий таъсири билан ўз интеллектуал салоҳиятини ривожлантириш орқали рақобат фойда олиш учун ёрдам, шахснинг фаол хатти қўллаб-қувватлаш, кичик бизнес ривожига ички таъсир воситаси сифатида қаралиши мумкин.

Аммо шуни таъкидлаш керакки, фақат иқтисодий параметрларни ҳисобга оладиган ва гуруҳ тузиш қўламининг хусусиятларини, тадбиркорлик фаолиятининг

коллективлик даражасини ҳисобга олмайдиган бошқарув ёндашуви кичик бизнеснинг кенг кўламли ривожланишини таъминлай олмайди ва фақат "зайф ёки самарасиз тадбиркорлик" нинг ишлашига олиб келади.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, кичик бизнес каби маҳсус тизимнинг бошқарув механизми хукуматнинг барча даражаларида иқтисодиётнинг ўрганилаётган сектори фаолиятини рағбатлантиришнинг маъмурий ва иқтисодий усусларини бирлаштирадиган комплекс ёндашувни ўз ичига олиши керак. Япония, Ақш, Франция, Венгрия ва Хитойнинг кичик бизнесни ривожлантиришга асосланган минтақавий иқтисодиётни бошқариш тажрибаси шуни кўрсатадики, фақат хукуматнинг барча даражалари мувофиқлаштирилган иши ва маҳаллий худудда фаолият юритувчи турли жамоат ташкилотларининг биргаликдаги ҳамкорлиги, кичик бизнес сектори ва натижада минтақанинг бутун ижтимоий-иктисодий тизимини миқдорий ва сифатли ўсишини таъминлаш мумкин.

Ўз навбатида, амалга оширилаётган тадбирлар иқтисодиётнинг ўрганилаётган соҳасига таъсир етувчи мавжуд омиллар, Мбнинг мавжуд муаммо ва еҳтиёжларини ҳисобга олган ҳолда тизимнинг ушбу элементлари фаолиятини фаоллаштиришга қаратилган бўлиши керак. Уларни амалга ошириш давлат бошқаруви самарадорлигини максимал даражада оширади ва фаолиятининг асосий кўрсаткичларини яхшилайди, бу еса бутун минтақа иқтисодиётининг ривожланишига олиб келади.

### АДАБИЁТЛАР:

1. Кичик саноат зоналарини барпо этиш ва ривожлантиришнинг ташкилий-иктисодий асосларини такомиллаштириш. – Т.: Иқтисодиёт, 2020. – 135 б.
2. Абдуллаев Е., Каримов Ф. Кичик бизнес ва тадбиркорлик асослари – Т.: Мехнат, 2010 йил 349-б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли фармони. – [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли фармони. – [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 31 декабрдаги “Кичик саноат зоналарини барпо этиш ва уларнинг фаолиятини ташкил қилиш тартиби тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 378-сонли қарори.
6. Агеев, А.И. Социальная ответственность бизнеса: отечественные грани и зарубежные стандарты [Текст] / А. Агеев, Е. Карпухина // Экономические стратегии. – 2002. – № 2. – С. 60 – 63.
7. Медведева В.Н., Дранникова Е.А., Нарожная г.а. Формирование организационно-экономического механизма поддержки малого бизнеса на

муниципальном уровне // Экономические науки. УДК 338.24 л. 25 ISSN 2070-1578. Вестник СевКавГТИ, 2018. Вып. 3 (34)

7. Асаул, А.Н. Взаимодействие государства и бизнеса в решении социальных проблем [Текст] / А.Н. Асаул // Экономическое возрождение России. – 2010. – № 2. – С. 4-7.

10. Беспамятных, Н.Н. Малое предпринимательство Свердловской области: состояние, тенденции, перспективы развития: Монография [Текст] / Н.Н. Беспамятных, Г.А. Ковалева, А.А. Филиппенков // РАН. УрО. Ин-т экономики. – Екатеринбург, 2003. – 186 с.

11. Виленский А.В. Макроэкономические институциональные ограничения развития российского малого предпринимательства: Монография [Текст] / А.В. Виленский. – М.: Наука, 2007. – 240 с.

12. Генералов, В.В. Анализ программ государственной поддержки предпринимательства [Текст] / В.В. Генералов, М.В. Лычагин // отв. ред. д-р экон. наук Г.М. Мкртчян. – Новосибирск: ИЭОПП СО РАН, НГУ, 2004. – 48 с.

13. Гринберг, Р.С. Государственная поддержка малого предпринимательства в странах Центральной и Восточной Европы [Текст] / М.: Наука, 2011. – 258 с

14. Колесников, А. Малый и средний бизнес: эволюция понятий и проблема определения [Текст] / А. Колесников, Л. Колесникова // Вопр. экономики. – 1996. – №7. – С. 53 – 54

15. Колесникова, Л.А Предпринимательство и малый бизнес в современном государстве: управление развитием: Монография [Текст] /Л.А Колесникова // М.: Новый Логос, 2000. – 290 с.

16. Крутик, А.Б. Ресурсный потенциал личности и инновационное предпринимательство [Текст] / А.Б. Крутик // Вестник ЮУрГУ. Серия: Экономика и менеджмент. – 2011. – №8 (225). – С.161 – 164.

17. Кушлин, В.Н. Государственное регулирование рыночной экономики / В.Н. Кушлин //М.: РАГС, 2003. – 832 с.

18. Малкина, М.Ю. Взаимодействие государства и рынка в современной России: институционально-эволюционный подход / М.Ю. Малкина // Матер. конференции лауреатов и стипендиатов Международного научного фонда экономических исследований академика Н.П. Федоренко (Москва, 1 декабря 2005 г.). – М.: ЦЭМИ РАН, 2006. – 125 с.

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ЯНГИЧА КАРАШЛАР ВА ЯНГИЛАНИШЛАР  
ДАВРИ.**

**Хусанов Умиджон Баҳодирович**

*Илмий раҳбар: СамДУ мустакил илмий изланувчиси*

**Хусанов Улфатбек Баҳодирович**

*Самарканд Давлат Университети талабаси*

**Нуралиев Ислом Азамат ўғли**

*Самарканд Давлат Университети талабаси*

*Бу Ватанда тинч осуда яшаши уни баҳту камолини хис қилиб шукуроналик келтириб яшамоғимиз керак.*

**Шавкат Мирзиёев**

**Аннотация:** Уйбу макола ватанимиз кейинги тараққиётидаги ўзгаришиларга бағишланган.

**Калит сўзлар:** Статистика, рейтинг, стратегия, тинчлик, сиёсат, юксалиш.

**Аннотация:** данная статья посвящена изменениям в последующем развитии нашей Родины.

**Ключевые слова:** статистика, рейтинг, стратегия, мир, политика, вознесение.

**Annotation:** this article is devoted to the changes in the subsequent development of our homeland.

**Keywords:** statistics, rating, strategy, peace, politics, ascension.

Яқинда статистик маълумотлардан бирида ўқиб қолдим. Ўзбекистон дунёдаги энг хавфсиз, тинч давлатлар рейтингида муносаб ўринда бормоқда экан. Ўзбекистон дунёдаги энг қадимий ва бетакор ўлкалардан биридир. Мен шу серқуёш ўлкада яшар эканман, юртимнинг юксалиши, ривожланиши учун, юртимнинг обрў-эътиборини янада юксакликка қўтариш учун, миллий тараққиётимизни янада қўтаришимиз учун ўқиб ўрганиб, бор имкониятлардан фойдаланишим керак эканлигини хис қиласман ва бунгга ҳаракат қилиб келмоқдаман. Президентимиз Шавкат Миронович Мирзиёев Ватан равнақи йўлида тинмай изланаётган, муҳим чора – тадбирларни ҳаётга тадбиқ қилаётган эканлар, биз ёшлар ҳам бор куч билимимизни жонажон Ўзбекистонимизнинг келгусида бунданда юқори поғоналарга чиқиши учун сарфлашимиз даркор. Зоро Ватан равнақи, аввало унинг фарзандларига, ҳамда маънавий ва жисмоний камолотига боғлиқдир. Аллоҳга шукурки, биз яшаётган юрт – жаннатмакон, осмонимиз мусаффо, ҳаммаёқда тинчлик. Шу ўринда биринчи президентимиз Ислом Каримов сўзлари ёдга келади: “Менинг истагим шу – худонинг ўзи юртимизни, ҳалқимизни ёмон қўзлардан, ҳасадлардан асрасин! Шу юртда яшаётган ҳар қайси оила, ҳар қайси инсон, ҳар қайси юртдошимиз баҳтли бўлсин, тинчлик ва омонлик уларга ҳамиша ёр бўлсин” деган сўзлари доимо қулоғим остида

янграйди. Албатта биз ўқиб – ўрганиб, ўз иқтидоримизни, юртимизнинг гуллаб яшнаши учун сарфлашимиз, кўнгилдагидек кенг шинам хоналарда таҳсил олишимиз учун Ватанимиз тинч осуда бўлмоғи лозим. Зеро, юрт тинчлиги масаласи биринчи ўринда туради. Чунки, тинчлик дунёдаги энг буюк бойлик ҳисобланади. Агар тинчлик бўлса, ҳамма эркин нафас олади, нимаки эзгу ният бўлса, уларинг барчасини амалга ошириш имконияти пайдо бўлади. Неча минг йиллар давомида аждодларимиз кўз қорачигидек асраб келаётган азиз Ватанимизни севиб, унинг ҳар қарич тупроғини кўз қорачигидек асраб яшаш энг олий бурчимиздир. Ватанни севмаслик – энг улуғ инсоний баҳтдан, ҳиссиётдан маҳрумликдир. Она юрт тақдирига бепарво қараш – уни ўзгалар қўлига топшириб қўйиш билан баробардир. Ҳақиқий фарзанд Ватанни бутун вужуди билан севади, уни асраш, равноқ топтириш учун бор куч ва имкониятларини бағишлиайди.

### **ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:**

1. Янги Ўзбекистоннинг Стратегияси Шавкат Мирмонович Мирзиёев Тошкент -2021
2. Ҳаракатлар Стратегияси Тошкент -2017
3. Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Конуни.
4. Лех.уз сайти

## FEATURES OF APPLICATION OF MATLAB FOR FUZZY LOGIC SIMULATION

**Mahmudov G.B,**


**Mavlonov SH.SH.**

*Navoi state mining institute*

Today, fuzzy logic is the standard method in the modeling and design of intelligent process control systems. Such systems are used in industry, technical diagnostics, process control, computer networks, as well as for approximate calculations of mathematical expressions.

Dozens of engineering and mathematical software packages are integrated into the MATLAB computing environment, one of which is the fuzzy logic toolbox package. It is intended for the design and research of systems based on fuzzy logic and fuzzy controllers.

The fuzzy logic toolbox package supports all stages of the development of fuzzy systems: their synthesis, research, design, modeling, implementation in real time. Built-in GUI modules provide an easy-to-understand GUI environment. The package functions implement most of modern fuzzy technologies, including fuzzy inference, fuzzy clustering and adaptive neuro-fuzzy tuning (ANFIS).



**Figure 1. Fuzzy system created in Simulink.**

Fuzzy logic toolbox is open to the user, you can view algorithms, view source code, add your own membership functions or defuzzification routines. The key features of this package are:

- specialized GUI modules for creating fuzzy inference;
- implementation of the Sugeno and Mamdani fuzzy inference algorithms;
- library of membership functions;
- setting of membership functions by ANFIS-algorithm;


- the ability to implement fuzzy inference systems in Simulink through the Fuzzy Logic Controller module;
- C-code of algorithms that allows using the designed system outside the MATLAB environment.

Fuzzy logic toolbox contains functions that are called from the working area of the program (command line) and several graphic modules that allow you to customize the system visually, in the form of dialogs. The latter is more convenient, but the capabilities of these modules are limited.

The fuzzy logic system created in the Fuzzy Logic package can be used in the Simulink program. For this, a set of blocks from the Fuzblock section is used.

- Fuzzy Logic Controller - fuzzy controller
- Fuzzy Logic Controller with Ruleview - fuzzy controller with the display of the RuleView window during simulation.
- A set of blocks that implement membership functions, AND and OR operations, and more.

To use the Fuzzy Logic Controller, you need to create a fuzzy logic system and save it to the MATLAB workspace, then double-click on the Fuzzy Logic Controller in the Simulink program and enter the model name in the window that appears. The Simulink program for this model will build a system from its blocks using FIS WIZARD. But at the same time, there is a limitation: all implemented functions must be standard.



**Figure 2. Measured signal**

**REFERENCES:**

1. O A Jumaev, R R Sayfulin, M T Ismoilov and G B Mahmudov “Methods and algorithms for investigating noise and errors in the intelligent measuring channel of control systems” Journal of Physics: Conference Series 1679 (2020).
2. 20. O A Jumaev, J T Nazarov, R R Sayfulin, M T Ismoilov and G B Mahmudov “Schematic and algorithmic methods of elimination influence of interference on accuracy of intellectual interfaces of the technological process” Journal of Physics: Conference Series 1679 (2020).
3. 21. O.A. Jumayev, A.A. Axmatov, G.B. Maxmudov. “Modelirovaniye protsessy optimalnogo smesheniya sianistix rastvorov s ispolzovaniyem intellektualnyx sistem izmereniya na osnove nechetkoy logiki”. Kontrol i upravleniya ximicheskoy texnologii. 1-2/2018.
4. 22. O A Jumaev, M T Ismoilov, G B Mahmudov and M F Shermurodova “Algorithmic methods of increasing the accuracy of analog blocks of measuring systems” ICMSIT 2020 Journal of Physics: Conference Series 1515 (2020).

**O'QUVCHILARDA GRAFIK SHAKLLARNI TUSHUNTIRISH USULLARI****Husanov Farhod Yusufovich***Samarqand Davlat Universiteti magistranti**Jizzax viloyati Jizzax shahridagi 22-IDUM**Tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi*

Ilmiy texnik taraqqiyoti insoniyat faoliyatining hamma sohalarining o'sib kelayotgan yosh avlod idrok qilish, informatsiyani qabul qilib uni qayta ishlab, grafikaviy vositalar bilan uzatish qobiliyatiga ega bo'lishiga katta talablar qo'yilmoqda. Shuning uchun ham o'quvchilardagi asosiy grafik bilimlar va malakalarning shakllanish samaradorligini o'rghanish g'oyat muhim masalalardan biridir.

O'quvchilarda grafikaviy bilim, malaka va o'quvlarni tarkib toptirish va maktabda o'quvchilarning grafikaviy tayyorgarlik istiqbollari bilan bog'liq, masalani ilmiy asoslash ob'ektiv haqiqatning muhim xususiyatlarini hisobga olishini talab qiladi.

Hozirgi zamon moddiy ishlab chiqarish sharoitida, informatsiya vositalarining sostavi va belgili tarkibini sifat jihatdan o'zgartirish ehtiyoji sezilmoqda. Bu masalani yechish bilan bog'liq soddalashtirish sistemaning ikki yo'li aniqlanmoqda.

Birinchisi - shunday sistema yaratish kerakki, tanlangan belgilari shakli tasvirlanadigan ob'ektning xususiyat va munosabatlarning maksimal ravishda aks etrirish kerak. Ammo ko'pchilik hollarda bunga qiyinchilik bilan erishish mumkin.

Ikkinchisi – yo'l esa boshqaruvchi ob'ektlarning harflar, raqamlar va boshqa shartli belgilar vositasida ularning real xususiyat va munosabatlarni hech bir eslatmaydigan tarzda tasvirlayotgan g'oya bilan bog'liqdir. Bu tendensiya texnologik hujjatlarni rasmiy lash bilan bog'liq bo'lgan chizmachilik fanida qayta ko'rinoqda va xalqaro mashtabda sistemali ravishda takomilllashtirilgan. Ko'pchilik kattalashtirish, soddalashtirish va shartli belgilar konstrukturlik hujjatlarda o'z [aksini topmoqda](#), ayrimlar yaqin vaqtarda joriy qilish rejalashtirilmoqda.

Ma'lumki, umumiyligi ta'lim maktablarida mehnat va politexnika ta'limini to'la-to'kis amalgam oshirishi o'quvchilarni grafik savodxonligini oshirish shuning uchun zarurli, ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida insonning predmat va ob'ektlarning real hususiyatlariga ko'ra abstraksiyalashning har xil darajadagi grafikadagi modellar bilan ish ko'rish qobiliyatga bulgan talablar kun sayin o'sib bormoqda.

Chizmachilik kursidagi o'quv materialining mazmuni o'quvchilarada texnikasini o'zlashtirishga, ishlab chikarishda texnikaviy ob'ektlar ilan mulokotda bo'lishga qaratilgan.

Chizmalar informatsiyalarning shunday sifetsifik vositalardan birikib, ularsiz fanda, ishlab chikarishda va turmushda insonni kamrab olingan mashinalar, asoblar, inshoatlar, ko'p sonli texnikaviy yo'nalishlarni bilib olish va ularning tuzilishini modellashtirib bo'lmaydi.

Keyingi yillarda chizmachilik metodikasi takommillashtirib bormoqda. Shunga ko'ra o'qitish jarayonida nazariy asoslangan va ta'limning ko'p yillik amaliyotida sinalgan metodik yo'l-yo'riqlariga amal qilish lozim.

Bularning eng asosiysi to'g'ri burchakli proeksiyalash bilan aksionometrik proeksiyalashning parallel o'rghanish, geometrik proeksion va texnikaviy chizmachilikning bir butunligini to'g'ri anglashdan iborat.

O'qitish jarayonida o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish sohasida hozirgi vaqtgacha qilinayotgan ishlarni yanada takommillashtirish lozim. Bu-bolalarni faqat bilimlar sistemasi bilan qurollantiribgina qolmay, balki ularda fikrlash faoliyatining turli grafikaviy masalalarни yechish bilan bog'liq bo'lgan usullarni shakllantirish ham kerak degan so'zdir.

Chizmachilikda va pedagogik psixologiyada o'quv ishlarining eng yaxshi usullarini tanlashga katta axamiyat berilmoqda. Ayniqsa ta'lif jarayoniga o'quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirilyotgan kiritish metodikaning diqqat markazida vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

O'quvchilarning grafik tayyorgarlik jarayoniga almashtirishlarning turli xillarini, [jumladan](#), predmetlarning shakli, fazoviy holati, ularning proeksiyalash metodlari o'zgartirish va tasvirlash usullarini keng ko'lamda joriy qilish o'zining faoliyat harakteri bo'yicha o'quvchilardan aktiv fikrlash talab qiladigan vaziyatlarni yechish bilan bog'liq o'quv faoliyati o'xshashdir.

Muntazam olti yokli prizma proeksiyalarni yasash, uning bir gorizontal proeksiyasi bo'lgan muntazam olti burchakli yasashdan boshlanadi. Shu olti burchak yoqlardan vertikal bog'lash chiziqlar o'tkaziladiva prizma pastki asosining frontal proeksiyasi yasaladi bu proeksiya gorizontal to'g'ri chiziq kesmani ko'rinishda tasvirlanadi bu to'g'ri chiziqda yuqoriga prizmaning balandligi o'lchab qo'yiladi va ostki asosining frontal proeksiyasi chiziladi. So'ngra qirralarining frontal proeksiyalari yani proeksiya balandligiga teng to'g'ri chiziq kesmalari chiziladi. Prizma oldidagi va orqasidagi qirralarining frontal proeksiyalari ustma-ust tushib qoladi.

Yonyoqlarning gorizontal to'g'ri chiziq kesmalari ko'rinishda tasvirlandi. O'rtadagi yon yog'i v tegishlilikha haqiqiy kattalikdagi  $W$  tegishlilikka esa to'g'ri chiziq ko'rinishda proeksiyalanadi.

Qolgan yoqlarni frontal va profil proeksiyalari o'zgarib proeksiyalanadi. Proeksiyalar tekisliklariga og'ma joylashgan prizmaning ikki proeksiyasini yasash bir muncha murakkabdir.

**ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI**

**Hakimaxon Najmuddinova Mahmudovna**

*Namangan shahri, Yangi Namangan tumani*

*69-umumiy o'rta ta'lim makkabning*

*Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi*

*Xalq ta'limi a'llochisi*

Mamlakatimizda ta'lim tizimida maktab fanlarini o'qitishda AKTdan samarali foydalanish dolzarb masaladir. Aynan axborot texnologiyalari ta'limning universal vositasi hisoblanib, nafaqat o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish imkonini beradi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish, bilihga qiziqishlarini qondiradi.

Pedagogik va psixologik tadqiqotlarda shu narsa ta'kidlanmoqdaki, AKT o'quvchilarning nazariy, ijodiy va refleksiv tafakkuri rivojlanishiga katta ta'sir etadi. O'quvchining xotirasida u yoki bu hodisa, jarayonning obrazli ifodalanishi o'quv materialini boyitib, uning ilmiy jihatdan o'zlashtirilishiga yordam beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy maqsad — aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bo'lgan o'quv faoliyatlarining yangi turlarini paydo bo'lishidir.

O'z faoliyatimizda ona tili va adabiyot darsi jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etib, ulardan foydalanib va o'quv jarayonida AKT dan foydalanish bo'yicha ma'lum tajribalarni to'plab bormoqdamiz.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tajribam an'anaviy dars doirasida AKT ni didaktik jihatdan to'g'ri qo'llanilgan hollarda o'quv jarayonini individuallashtirish va differensatsiyalash uchun cheklanmagan imkoniyatlar paydo bo'lishini ko'rsatdi. Ular o'quvchilarga axborot manbalaridan foydalanish imkonini beradi, mustaqil ishlar samaradorligini oshiradi, ijodkorlik, malaka va ko'nikmalarni egallash va mustahkamlash uchun umuman yangi imkoniyatlar beradi, ta'limning yangi shakllari va metodlarini amalgalashga imkon beradi.

Har bir o'quvchida shaxsiy o'quv yo'nalishini rivojlantirishni ta'minlaydi. O'quv jarayonida uni muvaffaqiyatlari bilim olish uchun zarur bo'lgan asosiy jarayonlar sifatida fikrlashni, tasavvurni rivojlantirishga yo'naltirilgan katta o'zgarishlar sodir bo'ladi, o'quvchilarning idrok etish faoliyatlarini samarali tashkil qilish ta'minlanadi.

AKT dan foydalanilganda ta'limda shaxsga-yo'naltirilgan yondashuvni amalgalashga imkon beradi. Oson bo'lib qoldi, butun o'quv jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Dars jarayonida tayyor multimediali mahsulotlari va kompyuter ta'limi dasturlaridan, o'quv va sinfdan tashqari ishlarda Internet tarmog'i vositalaridan foydalanib, multimediali ta'lim dasturlari va taqdimotlar, loyihamlar yaratildi. Axborot texnologiyalarini barcha o'quv fanlarda qo'llash mumkin. Darslarda o'quv va o'zin dasturlaridan foydalanish katta samara beradi. Ona tili va adabiyot darslarida savodxonlikni oshirish bo'yicha mashqlar yordam beradi, bunda bolalar kompyuterlarda turli xildagi amaliy topshiriqlarni

bajaradilar. O‘quvchilari uchun turli didaktik materiallar to‘plamidan foydalanib, ko‘rgazmali-mashq, nazorat-mashqlari va test sinovlari modullari kiritilgan aralash kompyuter dasturlarini tayyorlash mumkin. Unga fanga oid qoidalarni joriy o‘rganish va umumlashtirilgan takrorlash uchun uchta variantlarda berilgan grammatika-orfografik mavzular bo‘yicha boy va turli-tuman materiallardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Barcha o‘quv fanlarida qo‘srimcha va rivojlantirish materiallari sifatida ko‘plab videofilm hamda fotolavhalar bilan o‘lkashunoslik materialidan foydalanish mumkin.

Microsoft Power Point dasturlari yordamida yaratilgan taqdimotlar ta’lim jarayonida AKT dan foydalanish juda samarali shakli hisoblanadi. Taqdimotda asosiysi — axborotliligi, ko‘rgazmaliligi, qiziquvchanligi hisoblanadi. Mazkur dastur orqali turli mavzu va fanlar bo‘yicha taqdimotlar yaratishda fotosuratlar, rasmlar, animatsiya, qo‘srimcha axborotlardan foydalanish mumkin.

Maktabda mavjud bo‘lgan Internet tarmog‘i ishimizda katta yordam ko‘rsatadi. Internet — bu global axborot tizimi ekanligi barchaga ma’lum. U elektron pochta, izlash tizimlarini o‘z ichiga oladi va turli axborot resurslaridan foydalanish imkonini beradi. Undan kerakli axborotlarni topish, qayta ishlab chiqish va ularni ko‘paytirib, barcha kompyuterlarga o‘rnatib bolalarga mustaqil juftlikda, guruhda, individual ishlashni taklif etish mumkin. O‘quvchilarga turli xildagi topshiriqlarni taklif etish: tadqiqot o‘tkazish, asosiysini tanlash, taqdimot tayyorlash, jadvalni to‘ldirish imkonini paydo bo‘ladi.

Axborot olishning boshqa bir usuli — dars davomida bevosita Internetdan axborot olish hisoblanadi. Internetdan avvaldan kerakli materialni topish, darsda esa uni o‘quvchilarga ko‘rsatish mumkin. Ishni o‘rganilgan material bo‘yicha dialog ko‘rinishida olib borish mumkin.

Shunday qilib, ushbu kursni maktabda o‘rganish o‘quv jarayonini modernizatsiyalash, samaradorligini oshirish bilan birga, har bir o‘quvchining individual qobiliyatlarini hisobga olib, uni tabaqlashtirishga imkon beradi. Taklif etilayotgan kurs o‘qituvchiga ta’limni erkin boshqarish va o‘quv axborotlarini taqdim etish turli usullarini qo‘llash imkonini beradi.

**GAP BO'LAKLARI HAQIDA TUSHUNCHА. BOSH BO'LAKLARNING  
GAPDAGI VAZIFASI**

G'aniyeva Nilufar Ibaydullo qizi  
*Andijon viloyati Bo'ston tumanidagi  
 24-umumiy o'rta ta'lif maktabi  
 Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Gap bo'laklari dastlab, bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga bo'linadi.

Bosh bo'laklar gapning grammatik asosini tashkil qiladi. Fikr asosan gapning grammatik asosi orqali ifodalanadi. Gapning ega va kesimi bosh bo'laklar hisoblanadi. Ikkinchi darajali bo'laklar esa bosh bo'laklarni aniqlab, to'ldirib keladi. Ikkinchi darajali bo'laklarga to'ldiruvchi, aniqlovchi va hol kiradi. Masalan: Mashina shiddat bilan qaltis tog' yo'lidan uchib ketdi.

Gapda mutloq xokim vaziyat egallab, fikrning kimga, nimaga qarashli ekanligini anglatuvchi gap bo'lagi ega deb ataladi. Ega keng ma'noda predmat tushunchasini bildirib, kesimdan anglashilgan belgi, harakat, holatning kimga yoki nimaga oidligini ko'rsatadi. Ega bosh kelishikdagi so'z bilan ifodalanib, kim? Nima? Kimlar? Nimalar? qayer degan so'roqlardan biriga javob bo'ladi. Ega ikki sastavli gapning bosh bo'laklaridan biridir. Ma'lumki, gap biror predmet yoki hodisa haqida nimadir aytish maqsadida shakllantiriladi. Demak, gap tuzilish uchun asos bo'ladigan biror tushuncha kerak. Gapda butun bo'laklar ana shu asosiy tushunchani ifodalash uchun to'g'ridan-to'g'ri yoki biror vosita orqali predmet tasavvuridagi so'zga yoki birikmaga bog'lanadi. Shuning uchun ham u bosh bo'lak tarzida o'qiladi. Bu hususiyat uning shaklida ham ko'rindi: Bunday xokim tushuncha bosh kelishik shaklida bo'ladi. Bu fikrlar shuni ko'rsatadiki, ega gapda fikr ifodalanishiga asos bo'lgan bosh kelshikdagi xokim kismdir. Eganing sintaktik jixatdan, asosan, ikki xususiyati bor.

1. U bosh bo'lak bo'lib, xech qanday boshqa bo'lakni izoxlamaydi, ya'ni biror bo'lakka tobe bo'lmaydi, aksincha, boshqa bo'laklarni o'ziga tobe etib oladi.

Ega bosh kelishikda kelgan ot, olmosh va otlashgan so'zlar bilan ifodalanishidir. Masalan: 1) Qumri patirlarni dasturxonga tera boshladi. 2) Kimdir unga darrov bir kosa ovqat keltirib berdi. 3) yaxshilikni qadrlovchi kishi o'zini munosib saqlar. 4) Bilimli o'zar bilimsiz to'zar (Maqol)

Ega ba'zan-dan formasini olib kelgan ot bilan ifodalanishi mumkin. Bunga ega to'dadan qismini, butundan bo'lakni ifodalaydi. Masalan: (Qalandarov) Qulluq! Ammo lekin hozirchalik, nasiyaga olamizda, puldan yo'qroq. (U)... Magazinga ajoyib uzumlardan keldi. Ega, odatda va olmosh, otlashgan so'z, sifat, son, harakat nomi, sifatdosh, ravish, undovlar bilan ifodalanadi.

Ega xaqida tasdiq yoki inkorni, so'roqni bildirgan gap bo'lagi kesim deyiladi. Kesim egaga tobe, o'ziga bog'lanib kelgan so'zlarga nisbatan xokimdir. Kesim turli so'z turkumlari bilan ifoda qilinadi. Tuslangan fellar ikki sastavli gaplarning kesimi uchun tipik formadir. Odatda, gap bir so'z orqali ham ma'lum intonasiya yordamida ifodalanishi mumkin. Bir

sastavli gapda predikativli struktura jihatidan ko'pincha kesim orqali ro'yobga chiqadi. Demak, kesim egasi maxsus so'z orqali ifodalanmagan gapda ham mavjud bo'ladi.

Gapda predikativligini anglatish har vaqt egani izohlashga asoslana bermaydi. Ifodaning musbiy tugalligini yuzaga keltirishda kesim asosiy rol o'ynaydi. Kesim so'z yoki so'zlar birikuvi bilan ifodalanadi. Bunday kesimli gaplar ikki xil konstruksiyada bo'ladi. Birinchi xil konstruksiya ikki sastavli gap bo'lib, ularda keisim ma'lum ega to'g'risidagi xukumni ifodalaydi. Demak, ikki sastavli gaplarda kesim egani izohlab, unga tobe bo'lib keladi. Kesimni bir tarkibli gaplarda kesim yolg'iz ifodalanib, egaga bog'lanmaydi, chunki eganing o'zi ifodalanmaydi. Bunga gaplarda kesimdan anglashilgan bo'lishli yoki bo'lishsiz ish-harakat, xolat yoki biror belgi maxsus bir predmetga-egaga bog'liq bo'lmaydi. Shaxsi nomalum, shaxsi umumlashgan gaplarda esa kesim ma'lum biror konkret shaxs bilan bog'lanmaydi.

Kesimning nuqtadagi funksiyasi gapni shaklantirishdangina iborat bo'lmay, balki gapdagagi sintaktik va semantik hususiyatlar asosida bir yoki bir necha bo'laklarning o'ziga ergashtirib, fikrni to'la ifodalash imkoniyatini ham yaratadi. Kesimlar fel'dan tashqari, ot, sifat, son olmosh, ravish, shunigdek, ravishdosh, harakat nomi bilan ham ifodalanadi. Qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanishiga qarab, kesimlar ikki gruppaga bo'llinadi:

1. Fe'l kesim
2. Ot kesim

### **Fe'l kesim.**

Felning tuslangan formalari, ba'zan ravishdosh formasi gapda fe'l kesim bo'lib keladi.

Masalan:

1. Uning qo'l ostida.. yigirmadan ziyod odam ishlaydi. (P.K)
2. Ona rozi bo'lgach, suyunib ketdi. (M.G)

### **Ot kesim.**

Fe'l dan boqa so'z turkumlari bilan, shunigdek, fe'lning harakat nomi formasi bilan ifodalangan kesim ot- kesim deb yuritiladi.

1. Otning kesim bo'lib kelishi; Xona ichi issiq, jimjit, dim. (N.F)
2. Sifatning kesim bo'lib kelishi; Sen poksanu, men iflosmi?

Ot kesim, odatda bosh kelishik formasida bo'ladi. Ba'zan chiqish, jo'nalish, o'rincelishigi formalarida kelgan so'z ham kesim bo'lib kelishi mumkin.

Masalan: Xotin birdan o'zini tundlikka oldi. Xalimaxon u yerda, zikir xona bu yerda. Bu ishni bajarish sizlardan. Kesimlar ba'zan modal so'zlar, yordamchi so'zlar, undovlar va hamda bor va yo'q so'zlari bilan ifodalanadi. Bundan ular eganing keng ma'nodagi turli belgisini ifodalaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbek tili (Universitet va pedagogika institutlari uchun) qayta ishlangan 2-nashr T. "O'zbekiston" 1992 y.
2. Aliev, K. Sodiqov. O'zbek adabiy tili tarixidan. (Universitet talabalari uchun darslik) T. "O'zbekiston". 1994 y.
3. Mirtojiev Mantiqiy predikatning ega vazifasida kelishi. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali № 2 1995 y.

## GEOTERMAL ENERGIYA-KELAJAK ENERGIYASI POYDEVORI!

Fayzullo Baratov Shukurovich

*Toshkent davlat texnika universiteti Qo'qon filiali assistenti*

Akbarov Jasurbek Burxonjon o'g'li


*Toshkent davlat texnika universiteti Qo'qon filiali talabasi*

Alijonov Habibullox Adhamjon o'g'li

*Toshkent davlat texnika universiteti Qo'qon filiali talabasi*

Hozirgi globallashgan axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlangan, elektronika, nanotexnologiyalarning yangi bosqichga ko'tarilgan davrda hayotimizni elektr energiyasisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Hatto bir kun elektr energiyasi bo'lmasa ko'plab iqtisodiyot tarmoqlari kasodga uchraydi. Hozir har qanday soha bo'lmasin elektr energiyasiga muhtoj. Afsuski, an'anaviy elektr stansiyalarida olinadigan elektr energiyasi bilan bu talabni qoldirib bo'lmaydi. Boz ustiga ko'mir, gaz va boshqa yoqilg'i mahsulotlari zaxiralari tugab bormoqda. Shularni inobatga olgan holda muqobil energiya manbalari ustida izlanishlar olib borilmoqda. Quyosh energiyasi, shamol energiyasi, vodorod energiyasi kabi energiyaning yangi turlari rivojlanmoqda. Shular qatorida Geotermal enrgiya ustida ham ilmiy ishlar qilinmoqda.

Geotermal energiya – yer qa'ri issiqligi energiyasidir. Geotermal issiq suvlardan foydalanish – issiqlik energiyasining tejalishiga hamda atrof muhit ozodaligiga katta yordam beradi. Bunday yer osti suvlardan elektr energiyasi olinadigan birinchi elektr stansiyasi Italiyaning Toskana Provinsiyasida keyinchalik esa Yangi Zelandiya, AQSH, Yaponiyada qurilgan. Dunyo bo'yicha 100 dan ortiq Geotermal elektrostansiyalari mavjud. Ularning umumiy quvvati 3 mln.kwt ga teng. Geotermal resurslarning sanoati taraqqiy etgan mamlakatlar yoqilg'i- energetika balansidagi ulushi o'rtacha 5-10%. Geotermal issiq suvlardan issiqlik manbai sifatida  $40^{\circ}$  Dan  $100-150^{\circ}$  gacha bo'lgan temperaturada foydalaniladi. Elektr energiyasi hosil qilishda  $150^{\circ}$  dan  $300^{\circ}$  gacha temperaturali



rasm 1. Geotermal elektr stansiyani ishlash prinsipi.

O'zbekistonda ham Geotermal suvlardan issiqlik manbai sifatida foydalanilib kelinmoqda. Geotermal energiyaning afzalligidan yana biri uning bitmas tunganmans energiya ekanligidadir. Yer yadrosi energiyasi bor ekan tuproq ostida issiq suvlар hosil bo'laveradi. Ushbu energiya juda ko'plab mamlakatlar energetikasiga kirib bordi, hamda rivojlanmoqda. Islandiya poytaxti Reykyavik shahri dunyoning eng toza shahri nomini

olishi ham aynan Geotermal issiq suvlar hisobigadir. Islandiyada yer osti qatlamlari faolligi bois, vulqonlar faol hududlardan issiq suvlar o'zi sizib chiqadi. Shuning uchun ham Islandiyada energetikasining 60% Dan ortiq qismi Geotermal suvlar energiyasiga to'g'ri keladi. Islandiyada nafaqat elektr energiyasini, balki sanoat korxonalari, zavod va fabrikalarini isitishda, issiqxonalarda poliz mahsulotlarini yetishtirishda ham bu energiyadan foydalaniladi.

Yurtimizda hozirga qadar bunday resurslar manbalari 10 dan ortiq joylarda aniqlangan. Xususan, yurtimizning Muborak, Koson, Qamashi kabi tumanlarida 60-70 daraja issiqlikdagi suv sizib chiqadi. Respublikamizda bunday hududlar Namangan, Buxoro, Navoiy viloyatlarida ham ko'plab mavjud. Misol uchun Qashqadaryoda bunday suvlardan faqat yod va brom olish maqsadida foydalaniladi. Energiyasi esa behuda isrof bo'ladi. Mamlakatimizda Geotermal suvlarning ortacha gradiyenti  $40^{\circ}\text{C}/\text{km}$  ga teng. Issiqlik bug'lari oqimi esa  $0,06 \text{ Vt/m}^2$  ga teng. Ilmiy tekshirishlar natijasi shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Geotermal energiyaning katta qudratiga ega mamlakat hisoblanadi va uning har bir hududida bunday resurslar mavjudligi amalda isbotlangan. O'zbekistonda Geotermal suvlarning yalpi potensiali 170,8 Ming tonna neft energiyasi hajmida baholanadi.

To'g'ri bu suvlardan O'zbekiston sharoitida to'g'ridan – to'g'ri elektr energiyasi olib bo'lmaydi. Chunki, O'zbekiston vulkanik faol zona emas. Lekin bu undan foydalanib bo'lmaydi degani emas. Ma'lum chuqurlikdan chiqadigan suvni ozgina qizdirish natijasida elektr energiyasi olish mumkin. Bunday ham baribir boshqa uslublardan arzonga tushadi, ham ekologiyani ifloslamaydi, hamda yoqilg'i energiyasi tejab qolinadi. Agar topilgan har bir yer osti issiqlik manbalari kamida  $15\text{mln m}^3$  issiqlik bug'i va suv bersa, bir yilda  $100-150 \text{ mln.tonna}$  ko'mir asrab qolinadi, 3 km chuqurlikdagi suvlarning bir yillik energiyasi  $8*10^{17} \text{ kJ}$  issiqlik energiyasiga tengdir.

Albatta, Geotermal energiyaning ham kamchiliklari mavjud. Geotermal elektrostansiyalaridan chiqadigan chiqindilar daryo va ko'llarning haroratini oshiradi. Uning tarkibida katta miqdorda 2 oksidli kremniy hamda oz miqdorda kimyoiy aktiv moddalar bo'lib, ular daryo va ko'l jonzotlari uchun zararlidir. Yer osti suvlarini intensiv chiqarish oqibatida suv sathi pasayadi, bu esa yerning cho'kishiga olib keladi.

Agar mana shu muammolar hal qilinib ushbu energiyadan unumli foydalanish yo'lga qo'yilsa, yurtimiz energetikasi yanada rivojlangan bo'lar edi. Kelajak energiyasini birga yarataylik!

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Elektr stansiylarining elektr jihozlari. N.M.Aripov, T.K.Jabborov, A.X.Eraliyev
2. “Geothermal energy” Author Frank Niele **Published** 15th sentyabr 2005
3. RENEWABLE ENERGY TECHNOLOGIES: COST ANALYSIS SERIES(PDF) (Report). International Renewable Energy Agency. June 2012. p. 11. Retrieved 14 January 2017.

## QADRING BALAND BO'LSIN ONA TILIM

Xudayberganova Dilnoza Rahmatovna

Xorazm viloyati Yangiariq tumani

21- son mакtabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada til buyuk ne'mat ekanligi, ona tilimiz -iftixorimiz ekanligi haqida fikr-mulohazalar bildirildi.*

**Kalit so'zlar:** *til, millat, betakror, mustaqillik, avlod, qonun, farmon, tamal toshi, o'lik til.*

Til buyuk ne'matdir, har bir millat o'z tilini e'zozlasa, qadrlasa, taraqqiyoti uchun jon kuydirsa, u til go'zal, betakror va buyuk bo'lib qolaveradi! Har bir xalq aziz va muqaddas bo'lган o'z tilini asrash, rivojlantirish, jozibasini to'la namoyon etish uchun harakat qiladi, chunki unda xalq tarixi, milliy qadriyatları ifodalanadi. 1989- yil 21 - oktabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimiz hayotida shubhasiz buyuk tarixiy voqeа va O'zbekistonning mustaqillik sari qo'ygan Ilk tamal toshi bo'ldi. Davlatimiz mustaqilligi e'lon qilinishi bilan ona tilimiz o'zining haqiqiy o'rni va mavqeyiga ega bo'ldi. O'tgan davr mobaynida dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lган ona tilimizga milliy merosimizga asos bo'lган tilimizga qaratilgan e'tibor yosh avlod uchun judayam quvonarli bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Tilimizni barhayotligi ham unga qaratilgan e'tibordan dalolat. Dunyo bo'yicha har kuni 15 ta til o'lib, yo'q bo'lib bormoqda. Bizning ona tilimiz esa yuqori cho'qqilarni zabit etmoqda. So'ngi 7yil ichida tilimizga bo'lган e'tibor yanada kuchaydi desak xato bo'lmaydi. Tilimizga doir prezidentimiz tamonidan bir qancha qonun farmoyishlar tasdiqlandi. Masalan barcha hujjatlar ona -tilida davlat tilida ish yuritish belgilab qo'yildi. Bu ham tilimizga qaratilayotgan e'tibordan, e'zozlashdan dalolatdir.

Ona tili — ezgu fazilatlar, yuksak tuyg'ular manbayi. U inson kamolotida betakror o'rin tutadi. Chunki onalarimiz bizga shu tilda alia aytadi, inson uchun hayotiy zarur bilim va tushunchalarni til vositasida ong-u shuurimizga singdiradi, odob-u axloqimiz, fe'l-atvorimiz til orqali berilgan o'git va nasihatlar asosida shakllanadi. Ayniqsa, inson tafakkurining shakllanishi bevosita til bilan bog'liq. Chunki biz biror-bir narsaning xususiyatlari haqida o'ylaganda har biri aniq bir so'zda ifodasini topgan tushunchalar, fikr va tasavvurlarga tayangan holda uning o'ziga xos tomonlarini anglaymiz. Masalan, daraxtning yashilligini ajratish uchun yashil degan so'zning ma'nosini bilgan bo'lishimiz kerak. So'zni, ya'ni tilni bilganimiz sari biz dunyoni ham yaxshiroq bilib boramiz, fikrimiz o'sadi, ongimiz yuksaladi.

Til - xalqning, millatning eng buyuk qadriyatlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun xalqning ozodlikka, o'zligini anglab yetishga intilishida tilning qadrini tiklash, nufuzini oshirish muhim o'rin tutadi. Alisher Navoiyning temuriylar davrida o'zbek tilining obro'yi uchun kurashgani ham shundan dalolat beradi. XX asr boshida ma'rifatparvar bobolarimiz xalqni ilmga chorlash uchun tilni, alifboni isloh etishga harakat qilishgani ham ulkan ma'rifiy ahamiyatga ega bo'ldi. O'tgan asrning so'ngida esa xalqimiz Prezident Islom

Karimov boshchiligidagi mustaqillik uchun kurash olib borar ekan, avvalo, tilimizga davlat tili maqomini berish yo'lida sa'y-harakatlar qildi va 1989-yilda, hali sobiq mustabid tuzum hukmronligi tugamagan bir paytda bu ishni amalga oshirdi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin o'zbek tili rivojiga katta e'tibor berilgani natijasida Konstitutsiyamizda, «Davlat tili haqida»-gi Qonunda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi, uni rivojlantirishning huquqiy asoslari belgilab qo'yildi. Shu tariqa o'zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog'i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasi qatorida turadigan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollaridan biriga aylandi. Bu ona tilimiz taraqqiyotida ilgari hech ko'rilmagan yangi davr boshlanganining ifodasi edi.

Bugungi kunda davlatimizning eng muhim hujjalari o'zbek tilida yozilmoqda. Ona tilimiz davlatlararo muloqotlarda, dunyoning nufuzli minbarlarida, xalqaro anjumanlarda ham keng qo'llanmoqda. U istiqlol yillarda milliy g'urur manbayiga, mustaqilligimiz timsoliga aylanib qoldi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun mamlakatimizda til bayrami sifatida nishonlanmoqda.

Diyorimizda amalga oshirilayotgan islohotlar tilimiz rivojiga ham ijobiy ta'sir etmoqda. Uning lug'at xazinasi yangi so'z va tushunchalar bilan boyib, xorijiy tillar bilan aloqasi kuchayib bormoqda. Shuningdek, ilgari taqiqlab kelingan milliy merosimiz namunalarining qayta tiklanayotgani, muqaddas islom dini asoslari, umumbashariy qimmatga ega bo'lgan dunyo adabiyoti namunalarini tarjima qilish ishlari kuchaygani ham o'zbek tili imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Masalan, mustaqillik yillarda Qur'oni karim va hadisi sharif bir necha bor tarjima qilinib, nashr etildi.

O'zbek tili dunyoning eng qadimiyligi va boy tillaridan biridir. Bu tilning beqiyos imkoniyatlari qadimiyligi toshbitiklarda, xalqimizning zamonlar sinovidan o'tib kelayotgan maqol va hikmatli so'zlari, betakror iboralari, qo'shig'-u dostonlarida, mumtoz shoirlarimiz, XX asrdagi ijodkorlarimiz asarlarida yaqqol namoyon bo'lgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1.Karimov I. Yuksak manaviyat-yengilmas kuch.T.,Manaviyat.2009.
- 2.Madayev O., va boshqalar. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant.  
- T.: Turon zamin ziyo, 2017.
- 3.Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...// O'zbek tili va adabiyoti, 2012. - 5-son, 3-16-betlar.
- 4.Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. -T., O'qituvchi, 1995.
- 5.Umumta'lim maktablarining 5-9-sinf Ona tili darsliklari. So'nggi nashr.

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING TA'LIM JARAYONIDA  
FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH USULLARI**

Badalova Nasiba Ochildiyevna

Surxondaryo vil, Oltinsoy tumani Chep mahallasi  
28 muktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi (Stajim 11-yil, toifam 2)

**Annotatsiya:** *Maqolada ta'limning barcha bosqichlarida, mustaqil ishlarni tashkil etish, bolalarga fan sohasida qo'llanadigan metodlar yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *fuqarolarning faolligi, shart-sharoit, hatti-harakati, o'quv-tarbiya.*

Ta'limgarayonidagi mustaqillik faollik uchun shart-sharoit vazifasini o'taydi. Faollik esa, o'z navbatida, bolalarda mustaqillikni tarbiyalash uchun asos bo'ladi. Bu tamoyillar bir-birini to'ldiradigan hodisalar ularning mohiyatini tashqaridan ichkariga va ichkaridan tashqariga yo'nalgan jarayonlar sifatida tasavvur qilingandagina anglash mumkin.

Mustaqillik va faollik o'zaro sabab va natija shaklida bog'langan didaktik hodisalardir. Haqiqiy mustaqillikga erishmagan mamlakatda fuqarolarning faolligi, tashabbuskorligi haqida gapishtirish mumkin bo'limganidek, ta'limda bolalarning mustaqilligini ta'minlamasdan turib, ularning faolligiga erishib bo'lmaydi. Ta'limda o'quvchilarning faolligi mustaqillik orqali belgilanadi, mustaqillik tufayli o'quvchi ta'limning faol sub'yektiga aylanadi.

Mustaqillik tashqaridan ichkariga yo'nalgan jarayon sifatida tasavvur etilganda, ta'limda bolalarning mustaqilligini ta'minlash ma'nosini, ichkaridan tashqariga yo'nalgan jarayon sifatida tasavvur etganda, bolada shakllangan, tarbiyalangan shaxsiy sifat-mustaqillik ma'nosini anglaymiz.

Birinchi holatda tashqaridan berilgan mustaqillik, ikkinchi holatda, bolaning o'z intilishlari, harakatlari evaziga unda shakllangan shaxsiy sifat-mustaqillik ko'zda tutiladi.

Mustaqillik shaxsiy sifat belgilardan biri shaklida mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatishi yo'li bilan shakllanadi. Kishining mustaqillik aqliy faoliyat ko'rsatish, mustaqil o'rganish orqaligini fan asoslarini puxta egallashi hech kimga sir emas. O'quvchilarda kitob ustida ishlay olish malakalari, dastavval, boshlang'ich sinflarda hosil qilinadi. Bu malakalar yuqori sinflarda yanada takomillashtiriladi.

Darslarda tashkil etiladigan mustaqil ishlar o'quvchilarda mustaqillikni rivojlanadir.

Boshlang'ich sinf o'quvchisiga matematikadan peremetrlari teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchak yuzi bilan kvadrat yuzlarini taqqoslab, qaysi figura yuzi katta? nima uchun? Berilgan tekis figura yuzini qanday topish mumkin? kabi savollarga o'quvchilar mustaqil fikr yuritib javob beradilar. Bunday mustaqil ishlar bolalarni o'yashga, dalillarni taqqoslashga undaydi. Bolaning mustaqilligi mustaqil ishlarning, mustaqil aqliy faoliyatining natijasi sifatida shakllanadi. Faollik tashqaridan ichkariga yo'nalgan jarayon sifatida tasavvur etilsa, unda bolalarda mustaqillikni shaxsiy sifat shaklida tarbiyalashni

anglaymiz. Zero, mustaqillik kishining o‘z intilishi, xatti-harakati natijasi sifatida tarkib topadi.

Agar faollik ichkaridan tashqariga yo‘nalgan jarayon sifatida qaralsa, unda insonning ichki intilishlari, emotsiyalari, qiziqishlari mustaqillikni shakllantirish vositasi ekanligini tan olishga to‘g‘ri keladi. Hayot harakatga bog‘liq bo‘lganidek, mustaqillik faollikka aloqadordir.

Har qanday faollik zaminida mustaqil aqliy faoliyat yotadi. Faollik to‘g‘risida gapirganda, o‘qituvchi hikoyasi, suhbati, tushuntirishi, leksiyasini diqqat bilan tinglash, turli xil yo’llar: ko‘rgazmali qurol, mustaqil ish, muammolar, texnik vositalar yordamida o‘quvchilarning faolligini oshirish; ijtimoiy va ma’naviy hayotda faol ishtirok etish; moddiy ne’matlarni ishlab chiqarishda, ma’naviy boyliklarni o‘zlashtirishda ijodkorlik, tashabbuskorlik ko‘rsatish tushuniladi. Demak, faollik tushunchasi xoh o‘quv-tarbiya, xoh ijtimoiy va ma’naviy hayot to‘g‘risida bo‘lmashin, insonning ongli, aqliy faoliyatini ifodalash uchun ishlatiladi. O‘quvchilarning ta’lim jarayonida mustaqilligi va faolligi quyidagi qoidalarga rioya qilish yo‘li bilan ta’milanadi.

Har bir o‘quv materialini o‘rganishga kirishishdan oldin o‘quvchilarga uning maqsadi, hayot uchun zarurligini tushuntirish kerak. Maqsad oldindan anglangan natija bo‘lib, bolaning barcha hatti-harakatini, intilishlarini yagona yo‘lga soladi. Maqsadni anglash ta’limning istiqbolligini ta’minlaydi. O‘rganilayotgan o‘quv mavzularining mazmuni, bolalarning individual xususiyatlari, real bilish imkoniyatlarini hisobga olib muammolar, muammoli savollarni o‘rgata tashlash.

Qo‘yilgan muammo, savol, topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqib ta’limni tashkil etish va boshqarish bolalarda mustaqillik, faollikni tarbiyalaydi. O‘quv materiallarini o‘rgatish jarayonida bolalarga analiz va sintez qilish, taqqoslash, abstraksiyalash, umumlashtirish, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarishni o‘rgatish muhim hisoblanadi. Bola aqliy faoliyat usullarini o‘rgana borgan sari, o‘z oldiga qo‘yilgan muammolarni ham tezlik bilan bajarish sirlarini egallaydi. Bu o‘z navbatida, bolada o‘zlashtirilgan bilimlardan amaliyotda foydalanish qobiliyatlarini o‘stiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Safarova R.G., Abdullayeva B.S . Boshlang‘ich ta’lim konsepsiysi.- Toshkent, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni. (1997-yil 29-avgustda qabul qilingan).

## THE PROBLEM OF POLYSEMY AND HOMONYMY IN THE ENGLISH LANGUAGE

Batirova Xilola Rahimjonovna

Tashkent city, Mirzo Ulugbek district 71st comprehensive school

English teacher

**Abstract:** This article reports features of polysemy and homonymy and the foremost contrast between them. Also will be describing the issues that beginners face while learning the English, and possible solution to this problem.

**Keywords:** polysemy, homonym, homophony, homographs, synonym, lexemes, semantic changes, lexical meaning.

**Аннотация:** Это статья рассматривает самые основные различия омонимии и полисемии. А также осложнения к которым начинающие английскогоязыка могут прибегнуть.

**Ключевые слова:** полисемия, омонимы, омофоны, омографы, синонимы, лексемы, семантические изменения, лексическое значение.

Polysemy is one of the introductory attributes of the lexical system of a language. Polysemy is a word which has multiple meanings related by extensions and has a word form. Simple example, 'foot' of a body and of a mountain and of the bed.

Also, this is a term to describe when a particular set of concepts are tied to a single word in multiple languages.

Example: the word 'magazine' [магазин] in Russian has the meaning of store , place where you can buy things. However in English it is the something that you read or cartridge to store bullets for a gun.

The problem is words don't have only one meaning. This is called "polysemy". If you're not familiar with the word "polysemy" but are familiar with "synonyms", "polysemy" is the opposite of "synonyms": with synonyms, multiple words have the same meaning, but with polysemy, multiple meanings have the same word.

Consider, for example, the word "mole", which this machine learning system identified as having 4 meanings: one is associated with words like "counterspy", "spy", "espionage", etc, one associated with "blemish", "patch", "nevus", "pigment", "skin", etc, one associated with "mol", "unit", "gram", "molecule", etc, and one associated with "talpidae", "nocturnal", "digging", "mammal", etc.

According to some estimates, more than 40% of English words have more than one meaning. The fact that so many words (or lexemes) are polysemous "shows that semantic changes often add meanings to the language without subtracting any," says M. Lynne Murphy, in "Lexical Meaning."

Charles Fillmore and Beryl Atkins' definition stipulates three elements: (i) the various senses of a polysemous word have a central origin,

(ii) the links between these senses form a network, and (iii) understanding the ‘inner’ one contributes to understanding of the ‘outer’ one.<sup>[3]</sup>

“Homonymy and Polysemy both involve one lexical form that is associated with multiple senses and as such both are possible sources of lexical ambiguity. But while homonyms are distinct lexemes that happen to share the same form, in polysemy a single lexeme is associated with multiple senses. The distinction between homonymy and polysemy is usually made on the basis of the relatedness of the senses: polysemy involves related senses, whereas the senses associated with homonymous lexemes are not related.” (M. Lynne Murphy and Anu Koskela, *Key Terms in Semantics*. Continuum 2010)

The main difference between homonymy and polysemy is that in the first one senses are unrelated but in polysemy senses are related. But there are related options, it could be either the sound or the orthography.

So if we have two that are unrelated in senses but sound exactly the same we call this homophony. If there are two unrelated but look exactly the same we call that homographs. Also what if you have two words with unrelated senses that sound the same and spelled the same so this type is pure homonymy.

EXAMPLE: bank – river

Bank -to do with money

Homophony

Ring – jewellery

Wring – twist something until it extracts all of the water in it.

Homographs

House - place

House -action, to provide with living quarters or shelter.

One of the biggest problem of polysemy that beginners faces is misunderstanding meaning of the word in the context or just not knowing specifics of the word enough to comprehend. In turn this leads to delusions

As for homonym is the problem of establishing the criterion for the distinction between different words identical in sound form, and different meanings of the same word becomes hard to solve.

In my point of view, the key to avoid these issues is to paying attention on lexicography, foreign language teaching and information retrieval also the semantic criterion, dictionary entries. The time spent by readers in looking up a word will stay up on the mind.

**BIBLIOGRAPHY:**

1. <https://www.thoughtco.com/>
2. <https://www.frontiersin.org/articles/10.3389/fpsyg.2018.00192/full>
3. <https://studfile.net/preview/2227164/>
4. <https://infopedia.su/13x753b.html>
5. <https://www.kazedu.kz/referat/168429/3>

## REKLAMA MATNLARINING TIL XUSUSIYATLARI

Sodiqova Munis Shodiyevna

*Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanidagi**23-maktabning ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** O`zbekistonda reklama boy tarixiy ildizlarga ega bo`lsa-da, mustaqillikka qadar bu soha ilmiy jamoatchilikning nazaridan chetda qoldi. Har qanday reklama axborot matnini tinglovchiga yetkazish uchun xizmat qiluvchi vosita sanaladi. Demak, reklamaning birlamchi va asosiy elementi bu tildir.

**Kalit so'zlar:** peshlavha, shior, afishalar, eshituv (audial) reklamalar, ko`ruv (vizual) reklamalari, ko`ruv-eshituv (vizual-audial) reklamalar, semantik baho.

**Annotation:** Although advertising in Uzbekistan has rich historical roots, before independence this field was left out of the scientific community. Any advertising is a means of serving to convey the text of information to the listener. So, the primary and basic element of advertising is language.

**Key words:** preface, slogan, posters, audio advertisements, visual advertisements, visual advertisements, semantic evaluation.

Reklamalar matni ko'cha tilining boshqa turlari (peshlavha, shior, afishalar) matnlariga nisbatan o'ziga xos bir qator xususiyatlarga ega. "Reklama - tijorat xarakteriga ega, shuning uchun uni tijorat deb ham atashadi. Shu bilan birga, reklama faoliyati reklama beruvchilar tomonidan mustaqil ravishda (kompaniyaning reklama bo'limi orqali) yoki maxsus reklama agentliklari yordamida amalga oshirilishi mumkin".

Tijorat reklamasi bu sotishni jadallashtirish, xaridor va mahsulot o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish, mahsulotlarni targ'ib qilish va ularni qanday sotib olish to'g'risida ma'lumot berish uchun mahsulot va xizmatlar haqida ma'lumot tarqatish; xaridorning qiziqishini va berilgan mahsulotni sotib olish istagini rag'batlantirish vositasi. Savdo reklamasi - bu potentsial xaridorlarga (iste'molchilarga) ularni tovarlar va xizmatlarni sotib olish (foydalanish) bilan bog'liq harakatlar qilishga undash uchun yuboriladigan qisqa, hissiy jihatdan rangli ma'lumot deyishimiz mumkin. Albatta, bunday ma'lumotlarni tayyorlashda reklama matnlariga murojaat qilinadi. Quyida ana shunday matnlar haqida so'z yuritamiz.

Reklamalar o`z xususiyatlari ko`ra bir necha turlarga bo`linadi: jumladan, lingvistik birliklarning qo'llanishiga ko`ra, reklamaning nima haqida axborot berayotganligiga ko`ra, tovar va xizmatlarning kategoriyasiga ko`ra, matn qaysi vosita orqali berilayotganligiga ko`ra, ta'sir doirasiga ko`ra, reklama kimlarga mo`ljallanganligiga va axborotni yetkazish usullariga ko`ra. Reklamalarning bu turlari matn tuzilishiga ko`ra bir-biridan farqlanadi.

Ma'lumki, har qanday matndan anglashilayotgan kommunikatsiya asosan til birliklari orqali ifodalanadi. Matnning o`ziga xos xususiyati undagi til birliklarining o`zaro bog'liqligi va yaxlitligidir. Semiotikada matn tushunchasi ostida kommunikatsiyaning har qanday shakli, ya`ni ma`no anglashishi tushuniladi. Matnni to`g`ri qabul qilishni ta'minlovchi

vosita faqat til birliklari va ularning o`zaro birikuvi emas, uni tushunish, ya`ni kommunikativ fon ham bo`lishi kerak. Shu sababli ham matnni tushunish, qabul qilish presuppozitsiya bilan bevosita bog`liqdir. Reklamalar matnida til birliklari yetakchi hisoblanadi.

Ko`cha tili matnlari orasida reklamalar strukturasiga ko`ra o`ziga xos xususiyatlarga ega. Ularda aks etuvchi yozuvlar, rasmlar, shartli belgilar, simvollar reklama matni semantikasiga bog`liq bo`ladi. Ular majmui reklama matni semantikasini tashkil qiladi. Masalan,

**HYDROLIFE tabiatan musaffo**

*tog suvi beg`ubor  
gazlangan 1 l*



Bu reklamada ko'm-ko'k osmon, shaffof suv tasviri ifodalanishi bilan birga, suv solingan idish va uning yorlig'i berilgan. Bu misolda manzara va rasm yozuvlar bilan birlilikda yaxlit holatda reklama matnnini tashkil qiladi. Bu reklamada lingvistik birliklar bilan nolingvistik vositalar o`zaro yaxlitlikda reklama matnnini tashkil qilgan. Ushbu matnni tashkil qiluvchi rasm yoki yorliq bo'limganda edi, alohida so'z yoki so'z birikmasi orqali berilgan kommunikativ ma'lumotlar mantiqsiz va mavhum bo'lar edi. Demak, reklamalar matnida nolingvistik vositalar til birliklari bilan birlilikda reklama matnlarini tashkil etuvchi vositalar sifatida qaralishi kerak. “Reklama tili bu nafaqat adabiy qoidalarga nisbatan ommaviy aloqa qoidalariiga ko'proq darajada bo'ysunadigan til va tilga oid bo'limgan ifoda vositalarining tizimi, balki reklama murojaat etuvchisi joylashgan til muhitining sotsiologik, psixolingvistik va lingvistik madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda yaratilgan til tuzilishi”.

“Reklama matnida sifat bilan ifodalangan xususiyatlarni shartli ravishda xarakterlovchi va baholovchi deb ajratish mumkin”. Bu reklamadagi mevali, quvnoq, ajoyib sifatlari mahsulotning haqiqiy xarakterli xususiyatiga, holatiga mos keladigan va bu mahsulotni iste'mol qilganda ana shunday ta'm va hissiyotlarni his qilishga yordam beradigan so'zlar sifatida tushuniladi.

Reklama matnida mahsulot xususiyatini ochib berishda kerakli sifatdan foydalanish orqali quyidagilarni xulosa qilish mumkin bo'ladi: Sifat leksik-grammatik birlik darajasiga ko'tariladi, matnni baholash tuzilmasini yaratishda qatnashadi, uning axborot qiymatining oshishiga hissa qo'shish va mahsulot sifatini farqlashga ko'mak berish kabi semantik ma'nolarni berishda xizmat qiladi

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Марочкина С.С. *Введение в специальность. Реклама. Учебного пособия.* Москва-2012. 23 ст.
2. Щепилова Г.Г. Критерии классификации рекламы в печатных СМИ. сер. 2010. № 4. 188-199 - ст.
3. Пищерская, Елена Николаевна. Стратегический потенциал текста баннерной рекламы тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 10.02.19.

## TA'LIM TIZMIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA



**Mambetova Sayyora Madraimovna**

*Ellikqal'a Xalq Ta'lism bo'limiga qarashli*

*59-umumta'lism matabining*

*Biologiya fan o'qituvchisi.*

**Annatatsiya:** Yangilangan ta'linda o'quvchining yuragidagi cho'g'ni alanga oldirish, uni xar tomonlama rivojlantirish, bilimdan – bilimga yetaklab olib chiqish uchun ananaviy darslar va pedagogik texnologiyalar.

**Kalit so'zlar:** yangilangan ta'lism, pedagogik texnologoya, zamonaviy ta'limga oid ensiklopediyalar, Vatanga mehr – muhabbat, insonparvarlik.

Hozirgi ta'lism tizimida pedagogik texnologiyalar, ta'lism texnologiyasi, o'qitish texnologiyasi kabi iboralar tez-tez tilga olinmoqda. Bugungi kungacha pedagogik adabiyotlarda, ta'lism muammolariga oid ma'ruzalar, rasmiy xujjatlarda <<yangi pedagogik texnologiya>>, <<ilg'or pedagogik texnologiya>>, <<zamonaviy ta'lism pedagogikasi>>ga oid tushunchalari hali ham bir qolipga tushirilmagan, ensiklopediyalarda izoxlanganicha yo'q, uning mazmunini yagona talqini ishlab chiqilmagan va shuning uchun bu iboraning bir – biridan farqlanuvchi ko'pgina ta'riflari mavjud.

Pedagogik texnologiyalarda didaktik o'yinlar texnologiyalari bolalar faoliyatini faollashtirish va jaallashtirishga asoslangan. Ular bolalar shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirotklarida aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiy, tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Pedagogik texnologiya – shunday bilimlar sohasiki, ular vositasida uchinchi ming yillikda davlatning ta'lism soxasidagi siyosatida tib burilish yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, o'quvchi va talaba yoshlarda hurfikirlik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari shakillantiriladi.

Dastlab “texnologiya” tushunchasiga oydinlik kiritaylik. Bu so'z texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq xolda fanga 1872-yilda keldi va yunoncha ikki so'zdan “texnos” -

san'at, mahorat, hunar va “**logos**” – fan so'zlaridan tashkil topib “**hunar fani**” ma'nosini anglatadi.

Pedagogik texnologiya – bu o'qituvchining ta'lif – tarbiya vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxsiy sifatlarni shakillantirish jarayonidir.

Hozirgi kunda ta'lif jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanib, ta'limning samaradorligni ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan- kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilganda pedagoglar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. Pedagog bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida pedagog assosiy figuraga aylanadi.

O'zbekistonda 1997-yili kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilingandan boshlab ta'lif tizimida, pedagogik nashrlarda pedagogik texnologiyalar muammolari dolzarb tadqiqotchilik ob'ektlari sifatida ko'tarila boshlandi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari jamiyatimiz rivojlanishiga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lib, hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatning o'ziga xos xususiyati shundaki, axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar, xususan yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rin egallamoqda.

Axborot texnologiyasi va texnik vositalar samarasini belgilaydigan didaktik materiallardan keng foydalanish Pedagogik texnologiyar larning asosiy belgilaridan biridir. Milliy dasturda ta'lif-tarbiya jarayonini boshqarishning bu muhim vositasiga alohida urg'u berilgan.

Axborotli vositalar (kompyuter, elektron aloqa, radio, televideniye) dan foydalanish darajasi ikki omil bilan aniqlanadi:

1. O'quv jarayoni uchun axborotli vositalar samara beradigan mavzular yuzasidan didaktik materiallarni ishlab chiqish.

2. Pedagoglarning o'z amaliy faoliyatlarida texnik vositalar va didaktik materiallardan metodik jihatdan to'g'ri foydalana olish tayyorgarligini tekshirish.

Pedagogik texnologiyaning asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik muloqot texnologiyasida o'qituvchi (pedagog)ning o'quvchi-talabalar bilan muloqoti.

Muloqotning vazifalari:

- shaxsni tanish, axborot almashish;
- kelgusi pedagogik muloqotni modellashtirish va tahlil etish;
- muloqotdan olgan tasavvurlari;
- muloqot yuzasidan fikrashi;
- pedagogik muloqotni tashkil etish texnikasi;
- ishga ijodiy yondashishi.

2. Pedagogik talab texnologiyasi.

- «pedagogik talab» tushunchasi, uning o‘ziga xos xususiyatlari;
  - xulq-atvor va ijtimoiy madaniy qoidalarning namoyon bo‘lishi;
  - o‘quvchi-talabaga bo‘lgan hurmat va talab;
  - pedagogik talabning psixologik tamoyillari va mezonlari.
3. Baholash texnologiyasi, pedagogik baho va belgilash.
- xatti-harakatlardan olgan taassurot, voqelikni, obyekt va subyektni qabul qilish;
  - baho berish usullarini tanlash o‘qituvchi (pedagog) o‘z imkoniyatini tahlil etishi, ta’sir samaradorligini oshirishi);
  - pedagogik baholash texnologiyasi.
4. Axborotning ta’sir ko‘rsatish texnologiyasi.
- nutqiy-axborot berish, «ratsional axborot berish» tushunchalari, namoyishli va ko‘rgazmali axborot olish vositalaridan biri sifatida;
  - nutqiy ta’sir etish, suhbat, hamkorlik, tezis, argument, ko‘rgazma obrazi;
  - nutqiy ta’sir etish texnologiyasi;
  - namoyish va ko‘rgazmali vosita, iqtisodiy, etik, estetik, gigiyenik materiallar;
  - qabul qilishning fiziologik va psixologik xususiyatlarini namoyyish qilish texnologiyasi.
5. Pedagogik materiallarni yaratish va uni yechish texnologiyasi.
- pedagogik konflikt tushunchasi – konflikt pedagogik texnologiya elementi sifatida, konflikt subyektlari orasida qarama-qarshiliklar tavsifi sifatida, bo‘sh va mazmunli konflikt;
  - holat tahlili (voqeani aniqlash);
  - konflikt;
  - konfliktning xilma-xilligi (norozilik, qarshi chiqish);
  - konfliktni yechish shakllari (umor, hazil, toifa).
- Pedagogik texnologiyar ning qo‘sishchalar elementlari:
1. Psixologik muhit yaratish texnologiyasi.
  2. Guruh faoliyatini tashkil etish texnologiyasi.
  3. Muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsiz holatlarni tashkil etish texnologiyasi.
  4. O‘quvchining xatti-harakatiga pedagogik reaksiya qilish texnologiyasi.
  5. Xulqi va odobi yomon o‘quvchi-talabalar bilan ishslash texnologiyasi.
  6. Etik himoya texnologiyasi.
  7. Muammoli vaziyatlar yaratish texnologiyasi.
  8. Pedagogik vosita texnologiyasi.
  9. Pedagogik improvizatsiya texnologiyasi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. J.Yo’ldoshev, S.Usmonov, “Pedagogik texnologiya asoslari”, T., 2004.
2. J.Yo’ldoshev, “Ta’lim yangilanish yo’lida”, T., 2000.
3. Ptuyukov V.Yu., “Osnov pedagogicheskoy texnologii”, M., 1999.
4. [www.tests-tests.com](http://www.tests-tests.com)
5. [www.psiholog1.ru](http://www.psiholog1.ru)

## YANGI O'ZBEKISTONDA ERKIN VA FAROVON YASHAYLIK

Gofurova Munavvara Abdusalomovna

*Toshkent viloyati Zangiota tumani**14-IDUM boshlang'ch ta'lim O'qituvchisi*

Qalblarga quvonch, tinchlik, osoyishtalik, yurtimizga esa fayz va ozodlik baxsh etgan mustaqilligimizga bu yil 30 yil to'lmoqda. Bu davr mobaynida men faoliyat ko'rsatadigan ta'lim sohada shunday o'zgarishlar bo'ldiki, ular barchamizni dildan quvontiradi. Men Gofurova Munavvara Abdusalomovna Toshkent viloyati Zangiota tumani 14-IDUMda boshlang'ch ta'lim o'qituvchisi sifatida faoliyat yuritaman. Bizning 14-IDUM mакtabimiz juda ham ko'zga ko'ringan maktablardan. Har yili o'quvchilarimiz fan olimpiadalarida ishtirok etib faxriy o'rinnarni egallaydilar. Maktabda o'quvchi va o'qituvchilar uchun barcha qulayliklar yaratilgan bo'lib u zamonaviy axborot vositalari, internet, qulay va zamonaviy o'quv anjomlari bilan qayta ta'minlandi.

Prezidentimizning "Yangi O'zbekiston – mакtab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi", degan g'oyalari asosida bugun ta'limga e'tibor yanada ortdi. Bu biz o'qituvchilar zimmasiga katta sharaf bo'lib, ma'sulyat ham yuklaydi. Shu sabab men har doim o'z faoliyatimda multimediali darslardan, ko'rgazmali qurollardan va turli xil metod va usullardan foydalanim darsslarni olib boraman. Darslarim mobaynida ochiq darslar, qiziqarli o'yinlar sinflararo bellashuvlar va tadbirlar tashkil qilaman. Bularning samarasi o'laroq o'quvchilarim orasida musobaqalarda ishtirok etib faxriy o'rinnarni egallagan iqtidorli shogirdlarim juda ko'p. Bundan tashqari men o'qituvchilar uchun seminar va treninglar ham tashkil qilganman. Bunday treninglar davomida o'qituvchilarga dars o'tish texnikalari, metod va usullari haqida tavsiyalar berib boraman, bir- birimiz bilan fikr almashinamiz. Hozirda biz ustozlar uchun juda katta qulaylik yaratib berilishi bizga yanada kuch va ruhlantirish beradi. Ko'cha ishlaridan butunlay ozod etilishimiz, ish hujjatlarining qisqarishi natijasida bizda o'z usttimizda yanada ko'proq ishlashga va o'quvchilarimiz bilan ham a'lo natijalarni qo'lga kiritishimizga yo'l ochdi. Shu o'rinda kundalik.com platformasi yaratilishi ham bizning vaqtimizni tejab, ishimizni osonlashtirdi. Eng muhimi, ota-onalar bevosa o'z farzandlarining darsdag'i kunlik ishtiroki va baholarini ko'rib borishlari yana bir yutuq bo'ldi. Bunday shart-sharoitlar, o'qituvchilar uchun berilayotgan imtiyozlarni ko'rib sevinamiz, shukronalikni tuyamiz. Men Mustaqil O'zbekistonda yashab uning kelajagi porloq avlodlarini tarbiyalayotganidan baxtiyordirman.

## МИЛЛИЙ КУРАШЧИЛАРНИ ПСИХОЛОГИК ТАЙЁРГАРЛИГИНИНГ МУХИМ ЖИХАТЛАРИ

Рахимов Шерзодбек Яминжонович

Андижон Олимпия захиралари коллежи спорт психологи

**Аннотация:** Мақолада миллий курашчиларни психологик тайёргарлигининг мухим жихатлари таҳлил қилинди

**Калит сўзлар:** Миллий кураши, психологик билимлар, психик тайёргарлик.

Спорт соҳасида жисмоний, техник ва тактик тайёргарлик билан бир қаторда психологик тайёргарлик хам мухим аҳамият қасб этмоқда. Спортда психологиянинг ўрни кундан кунга мустаҳкамланиб бормоқда.

Мусобақаларда улкан ютуқларга эришишда, жисмоний техник имкониятларнинг ўзи камлик қиласиди. Спортчи ҳар бир мусобақа жараёнида психик жараёнларни бошдан кечиради. Айниқса, финал баҳсларида, ташки таъсирлар остида кечадиган психик ўзгаришлар жисмоний техник тайёргарликка эга бўлган спортчини хам саросимага солиб қўяди. Бундай ҳолатларда психик тайёргарлиги юқори бўлган спортчилар ўз имкониятларини тўлиқ намоён қила олади.

Спортчиларни мусобақаларга тайёрлашда жисмоний, техник ва психологик билимларни босқичма-босқич бериб бориш зарур. Яъни жисмоний ва техник тайёргарликни секин асталик билан ошириш жараёнида психологик билимларни хам босқичма босқич мустаҳкамлаш зарур.

Бу жараёнлар режали тизимлаштирилган ҳолда олиб борилиши мақсадга мувофиқ бўлади. Ҳар бир мусобақа энг камида 3 ой олдин режалаштирилиши зарур ва ҳар бир босқичда машғулот жараёни мураккаблаштирилиб борилиши, мусобақа жараёнининг сунъий шакли шакллантирилиши спортчини мусобақада дуч келиши кутилаётган вазият ва жараёнларда ўзларини имкониятларини тўлиқ намоён этишини таъминлайди.

Айниқса, психологик тайёргарлик жараёни, миллий кураш турларида ўта мухим ўрин эгаллайди. Мусобақа жараёнида диққат, психик зўриқишиш ва иродавий зўр беришлар оптимал даражада бўлмоғи лозим. Психик зўриқишишлар машғулотлар жараёнида хам, мусобақалар жараёнида хам юзага келади. Бу зўриқишишлар, ўзининг йўналиши ва мазмунига кўра бир биридан фарқ қиласиди. Машғулотлар жараёнидаги зўриқишишлар асосан ошиб борувчи жисмоний юкламаларнинг бажарилиш зарурати билан боғланган бўлади.

Мусобақа шароитида экстремал ҳолатлар унга қўшимча равишида белгиланган натижаларни қўлга киритиш мақсади туфайли юзага келади. Спортдаги психик зўриқишишлар ижобий омил ҳам салбий хисобланади, ижобий тасир натижасида спортчи организмининг барча функцияларини ва хусусиятларини намоён қиласиди, салбий таъсири спортчининг бор имкониятларини хам кўрсата олмаслиги даражасига тушуриб қўйиши мумкин.

Биринчи бор мусобақада иштирок этаётган спортчилар одатда ўз имкониятларини йуқотишининг асосий сабабларидан бири ўз дикқатини жамлай олмаслиги, психик зўриқишилар спортчиларнинг машғулотлар жараёнида кўрсатган натижасини ҳам такрорлай олмайди.

Психологик тайёргарлиги бўлган спортчилар иродавий ҳислатларини қай тарзда намоён эта олиш кераклигини билишади. Бундай спортчилар ички ҳаяжонни енгиш, ташки босимларни енгиб ўтишни машғулотлар жараёнида машқ қилишади. Бу машқларни тренер ўз фаолияти давомида бошдан кечирганлиги сабабли, қайси бир спортчига қандай тайёргарлик ва қандай даражадаги юклама, топшириқлар беришни тўғри танлай олиши зарур.

Миллий кураш спорти ўзининг мاشақкати ва мураккаблиги билан бошқа техник спорт турларидан фарқ қиласди. Шу билан бирга тренердан ҳар бир спортчига индивидуал топшириқлар бериши ва улар билан якка тартибда ишлашни талаб қиласди. Тренер ўз шогирдларининг ҳам жисмоний, ҳам психик имкониятларини тўғри баҳолаб спортчига умумжисмоний, техник-тактик юкламалар билан бирга психик мотивацияларни бериши шарт. Бу жараён Тренердан юқори даражадаги психик ва педагогик билимларни талаб этади.

Миллий кураш спортида спортчи ва тренер ўртасида алоқалар шунчалик мустаҳкам бўлиши зарурки, спортчи ўз кечинмаларини тренерга яширмасдан етказа олиши керак. Тренер ҳам ўз ўрнида спортчидаги нуқсонларни спортчига шундай етказиши керакки, спортчи буни нуқсон деб эмас, балки янги усулни ўрганаётгандек қабул қилиши зарур.

Тренер ҳар бир мусобақани ўтказилиш жойи ва даражасига қараб, ўз шогирдларига тўғри юкламалар техник-тактик, психологик мотивация бериши лозим. Тренер ўз вактида шогирдларининг камчиликларини бартараф етмаса, спортчидаги камчиликлар кучайиб боради. Бу эса нафақат спортчининг балки тренернинг ҳам муваффақиятсизлигига олиб келади.

Тренер ўз шогирдларига мусобақа жараёнида юз бериши мумкин бўлган барча ҳолатларга, машғулотлар вактида қобилиятини шакллантириши лозим. Шу билан бирга психик босимларга бардошлиликни, иродавий зўр беришларни машғулот жараёнида ҳар хил методлар ёрдамида шакллантира бориш орқали ўз шогирдларининг мусобақаларда юқори ютуқларга эришишига замин тайёрлаб боради.

**Биз қўйидагиларни таклиф қиласмиш:** Тренер бир лаҳзага ҳам чалғимасдан ўз шогирдлари учун спортдаги ва психологияда янги методлар билан таништириб бориши ва тренинг машғулотлар қўллаши лозим. Шу билан бирга ўзи ҳам янги инновацион илгор натижакор методлар яратадиган шахс бўлмоғи керак.

**ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:**

1. Зиёмуҳаммадов Б., Тожиев М. Педагогик технология – замонавий ўзбек миллий модели, II қисм / Т.: “Lider Press”, 2009.

2. Фозиев Э. Психология. Ўқув қўлланма. – Т.: «Ўқитувчи», 1992.

**СПОРТЧИЛАРНИ ЮҚОРИ НАТИЖАЛАРГА ЭРИШИШЛАРИДА  
ТРЕНЕРЛАРНИНГ МУҲИМ ВАЗИФАЛАРИ.**

**Отаханов Санжарбек Юсупжон ўғли**

*Андижон Олимпия заҳиралари коллежи спорт психологияси*

**Аннотация:** Спортчиларни юқори натижаларга эришишларида тренерларнинг муҳим вазифалари таҳлили натижаси бўйича маълумотлар келтирилган.

**Калит сўзлар:** Жисмоний тайёргарлик, тренер, малакавий маҳорат, спорт психологи, олимпия заҳиралари коллежлари.

Спорт турлари бўйича республика терма жамоалари ва унинг заҳираси учун спортчиларни тайёрлашда янги педагогик технологиялар жараёнларини ривожлантириш стратегияси ва замонавий тайёрлов тизимини оптималлаштириш давримизнинг муҳим муаммоларидан бири хисобланади.

Мактабдан ташқари таълим муассасаси бўлган спорт мактаби, соғлом турмуш тарзини шакллантириш, профессионал касбни мустақил танлаш, жисмоний, интеллектуал ва маънавий қобилияtlарни ривожлантиришга, юксак даражадаги спорт ютуқларига эришишга ёрдам беради.

Кўп йиллик тайёрлов жараёни ёш спортчининг халқаро тоифадаги спорт устаси бўлиб етишгунга қадар бўлган, узоқ муддатли вақтни қамраб олади. Олимпия заҳиралари коллежлари, болалар ва ўсмиirlар спорт мактаблари (БЎСМ) ва ихтисослашган болалар ва ўсмиirlар олимпия заҳиралари мактаблари (ИБЎОЗМ) шароитларида спортчиларни кўп йиллик тайёрлаш мақсадларини самарали амалга оширишда тренерларимизниг тутган ўрни, илғор тажриба услублари ва ўқитиш методикалари, амалий машғулотлар ва ўқув-машқлари ҳамда тарбиявий жараёнларни ташкиллаш муҳим ахамият касб этади.

Тренернинг касб-педагогик фаолияти кўп қиррали бўлиб, бир қатор ўйиалишларни қамраб олгандир. Улар орасида қуидагиларни таъкидлаш зарур: ўқув-тарбиявий ишлар, спортчиларнинг машғулот ва мусобақалардаги фаолиятини бошқариш, улар орасидан иқтидорлиларини танлаб олиш, илмий-услубий фаолият билан шуғуланиш, мусобақаларни ташкиллаш ва ўтказиш, машғулот ва мусобақаларни моддий-техник таъминлаш, малакавий маҳоратини ошириб бориш.

Тренернинг энг муҳим вазифаларидан бири ўқув-тарбиявий фаолиятдир. Бу танланган спорт тури билан шуғулланувчиларни техник-тактик ҳатти- харакатларга ўргата билишни, жисмоний ва маънавий- ахлоқий ривожлантиришни, хар томонлама баркамол инсонни шакллантиришни назарда тутади.

Шунинг учун ёш тренерларимизда учраётган баъзи бир камчиликларни бартараф этиш мақсадида, Андижон олимпия заҳиралари коллежида тажриба тренинг семинари ташкиллаштирилди. Семинар жараёнида 45 нафар тренерлар иштирок этди ва ушбу семинарда тренерларнинг эришган ютуқлари, камчиликлари гапириб ўтилди, мавзуу юзасидан савол- жавоб ўтказилди:

- Сиз тренер бўлиб ишлаётган даргоҳда сизга қандай имкониятлар яратилса, неча фоиз Осиё ёки Жаҳон чемпионларини етишириб чиқарган бўлардингиз?

Шунда тренерлар бирин-кетин ўзлари учун керакли бўлган имкониятлар ҳақида гапириб ўтишди.

-шароит бўлиши керак; озиқ -овқат (витаминлар); об -ҳаво шароитига мослашиш учун вақт, маблағ, шифокор;

- замонавий инвентарлар, оилавий муҳитининг яхшилиги, тренерни рағбатлантириш, спортчини танлаб олиш спорт психологи ва тренернинг ихтиёрида бўлиши.

Тренерларнинг берган жавоблари тингланиб, агарда сиз ишлаётган жойда худди шу шароитлар яратиб берилса, неча фоиз Осиё, Жаҳон чемпионларини етишириб чиқарар эдингиз деган савол билан мурожаат қилганимизда тренерларнинг 50% и 90% натижа, 40% и 50% натижа, 10% эса 40% натижа берар эдим, деб таъкидлашди.

Семинар жараёнида мана шу масала ёритилганда, айбни кимдан ахтариш ҳақида бахслашдик.

Ўзбекистан терма жамоаси (волейбол, баскетбол, ) мисолида:

- шароит бўлиши керак (мавжуд); озиқ -овқат (витаминлар) (мавжуд);

- об -ҳаво шароитига мослашиш учун вақт (мавжуд); вақт (мавжуд); маблағ (мавжуд); шифокор (мавжуд); замонавий инвентарлар (мавжуд);

- оилавий муҳитини яхшилиги (мавжуд); (яъни ўзим); (тажрибасиз);

- рағбат (мавжуд); спорчини танлаб олиш тренерни ихтиёрида бўлиши (ихтиёрида).

Хулоса қилиб айтганда, тажрибаси кам тренерлар учун қандай чора кўришимиз лозим?

- назарий билим ва қўнималарни чукур эгаллашлари керак;

- Устоз-шогирд анъаналарини ривожлантириш керак;

**Биз қуидагиларни тавсия қиласиз:** Тренерлар билан спорт психологларининг доимий хамкорликда ишлашини таъминлаш;

- тажрибага бой мамлакатлар билан алоқа ўрнатиш ва тажриба алмашиш; эски, яъни, анъанавий тажрибаларни чиқариб ташлаш;

- ўз устида ишлаш; малака ошириш жараёнини мазмунли ва сифатли ташкиллаш;

-замонавий талабларга мос келадиган техникалардан фойдаланиш;

-тренерлар учун тажрибали тренерлар иштирокида семинарлар ташкиллаштириш;

**ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:**

1. X.Солиев. Жисмоний тарбия ва спорт. Андижон 2002 й.
2. А.Маматохунов. Спорт ўйинлари. Андижон 2003 й.
3. Ш.Хонкелдиев. Жисмоний тарбия назарияси ва услубиёти. Тошкент. 2005.
4. О.Гончарова. Спортчиларнинг жисмоний кобилиятларини ривожлантириш. Тошкент 2005 й.

**ПРАВОСЛАВЛИК ЖАМОЛАРИНИНГ ФАРГОНА ВИЛОЯТИДАГИ  
ФАОЛИЯТИ.**

**Шохрух Жумаев**

*Ўзбекистон халқаро ислом академияси тадқиқотчиси*

Мустакиллик туфайли Ўзбекистон фуқаролари учун том маънода виждан эркинлигини таъминланди. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 31-моддасида қайд қилинганидек, “Ҳамма учун виждан эркинлиги кафолатланади. Ҳар бир инсон хоҳлаган динга эътиқод қилиш ёки ҳеч қайси динга эътиқод қилмаслик ҳукуқига эга. Диний қарашларни мажбуран сингдирилишига йўл қўйилмайди”. Ўзбекистон кўп миллатли, кўп конфессияли давлатdir. Бундай давлатда миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенглик ижтимоий-сиёсий барқарорлик ва тараққиётни таъминлашнинг асосий шартларидан бири ҳисобланади. Шунинг учун динлар ҳақида билиш, конфессиялараро мулоқот, мамлакатимизда қурилаётган демократик жамиятнинг асосий тамойилларидан биридир.

Шунингдек, Президентимиз Шавкат Мирзиёев ташаббуси билан қабул қилинган 2017-2021-йилларда Ўзбекистон Республикасининг ривожлантиришнинг беш устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида мамлакатимизда миллатлараро тотувликни таъминлаш масаласига алоҳида эътибор қаратилган. Мамлакатимизда тинчликни янада мустаҳкамлаш, миллатлараро барқарорликни юксалтириш мақсадида 2017-йил 19-майда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Миллатлараро муносабатлар ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик алоқаларини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони қабул қилинди. Фармонга мувофиқ, Байналмил маданият маркази негизида Миллатлараро муносабатлар ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик алоқалари қўмитаси ташкил етилди. Бу еса, ўз навбатида, мамлакатимизда фаолият юритаётган миллий маданий марказлар ҳамда дўстлик жамиятларини кўллаб-куватлаш, уларнинг самарали фаолият юритишида давлат идоралари ва жамоат ташкилотлари ўртасидаги ўзаро ҳамкорликни кучайтиришда мустаҳкам таянч бўлади.

Зоро, мамлакатимизда 16 конфессия ўзаро тотувликда фаолият кўрсатмоқда. Ўтган қисқа давр ичида мазкур йўналишда қатор ишлар амалга оширилди ва диний ислоҳотларга кенг замин яратилди.

Фарғона вилояти ҳудудига православ черкови қавмининг кириб келиши Россия империясининг минтақага кириб келиши билан баробар кечган.

Дастлабки православлар харбийлар, савдогарлар, хизматчилардан иборат бўлган. Фарғона шахридаги “Сергей Родонежский” черкови раҳбари Ходиров Игор Вадимовичнинг айтишича дастлаб руслар кириб келганда черковлар маҳаллий аҳолини ушбу динга киритиш учун эмас, балки православлар ҳар кунлик ибодатларини бажаришлари учун қурилган.

Фарғона вилоятидаги православ черковлар қурилиши асосан 4 та турларга бўлинган;

1. Умумжахон православ черковлари
2. Харбий черковлар
3. Унча катта бўлмаган ибодат уйи
4. Панеллар (асосан қабристонларда қурилган)

Дастлабки икки тур бир қатор умумий архитектура, режалаштирилган ва дизайн хусусиятларига эга бўлган.

Фарғона водийсидаги шаҳар ва харбий черковларнинг барчаси режа бўйича тўғри тўртбурчак ва тўғри шарққа қараб йўналтирилган шаклда бўлган. Черковлар асосий ибодат қилиш хонаси, қурбонгоҳ, остида ертўласи ва устида қўнғироқ учун жой ажратилган бошқа хоналардан иборат бўлган. Куббалар ва бутун том темир листлар билан ёпилган ва ёғли бўёқ билан бўялган. Черков анжомлари, икона ва базида қўнғироқлар ҳам Россиядан олиб келинган. Фақатгина Кўқон ва Намангандан черковлари учун қўнғироқлар эски мис милтиқлар ва шунга ўхшаш анжомлар ёрдамида қўйиб тайёрланган.

Черков қурилиш жараёнида асосий тош ишлари рус меъморлари бошчилигидага маҳаллий усталар томонидан амалга оширилган. Уларнинг Ўрта Осиё ҳудудига мос анаънавий конструкцияларни қуриш санъати, режалаштирилган темир-бетонли аркаларнинг етишмаслиги сабаб ғишт билан алмаштирилган Кўқондаги черковни қуриш жараёнида ишлатилган.

Бугунги кунда Фарғона вилоятида христианлик дини православ йўналишига мансуб 3 та черков расман фаолият юритмоқда. Булар, Фарғона шаҳридаги “Сергей Родонежский”, Кўқон шаҳридаги “Казанская икона Божией матери”, Қувасой шаҳридаги “Иоан Кронштадский” черковлари ҳисобланади.

Ушбу черковларда православликда мавжуд бўлган сирли маросимларга, диний байрам ва пост (рўза) тутишга катга эътибор каратилади ва мазкур жараёнларда диндорларга алоҳида савоблар нозил бўлишига ишонилади.

Шунингдек, православлиқда нишонланадиган қуидаги христиан байрамлари Пасха, Исо Масихдинг арш-аълога кўтарилиши, Биби Марямнинг туғилиши, Исо Масих хочини тиклаш каби байрамлар нишонланади.

Фарғона шаҳридаги “Сергей Родонежский” черкови 1952-йилдан бери фойдаланиб келинмоқда. Фарғонадаги ушбу черков 1930-1952-йилларда ўз фаолиятини тўхтатган бўлиб, унгача бўлган муддатда немис лютеран черкови бўлган. Таъмиrlашдан кейин 1952-йилдан бошлаб янги ном билан фаолиятини бошлаган. Унинг 3 қаватли иконаси Троский черкови билан боғлиқ бўлиб, ушбу икона 1952-1954-йилларда Мария Соколовий томонидан яратилган. Черковда хафтанинг ҳар шанба ва якшанба кунлари диний ибодатлар амалга оширилади. Кунлик ибодатларда 80-100 нафаргача, байрам кунлари эса 100 нафардан кўпроқ ибодат қилувчилар черковга ташриф буюришади. Ҳозирда черковга Ходиров Игор Вадимович раҳбарлик қилади.

Кўқон шаҳридаги иккинчи йирик православ черкови 1998-йил 13-августда адлия бўлимдан рўйхатдан ўтган. Черков Кўқон шаҳар “Ўрда таги” кўчаси 70-йуда жойлашган. Ибодатхона биноси 1908-йилда қурилган. Хафтанинг жума, шанба ва

якшанба кунлари ибодат маросимлари амалга оширилади. Кунлик ибодатларга 20-50 нафар, байрам кунлари эса, 100 нафардан кўпроқ ибодат қилувчилар черковга ташриф буюришади. Бугунги кунда черковга Хабаров Дмитрий Александрович раҳбарлик қиласди.

Қувасой шаҳридаги “Авлиё Иоанн Кронштадтский” черкови 2002-йил 24-апрелда адлия рўйхатидан ўтказилган. Черков Қувасой шаҳар “Мустақиллик” кўчаси 21-ўйда жойлашган. Ҳафтанинг шанба ва якшанба кунлари диний ибодатлар амалга оширилади. Кунлик ибодатларда 40 нафаргача, байрам кунларида эса 40 нафардан кўпроқ эътиқод қилувчилар черковга ташриф буюришади. Бугунги кунда черковга Биренбаум Алексей Игоревич раҳбарлик қиласди.

Хулоса қилиб айтганда, Фарғона вилоятидаги православлик черкови тарихи, фаолияти тадқиқ қилинганда унинг хатти-ҳаракатларида ҳокимият қонун қоидаларига ҳурмат билан ёндашиш, миссионерлик фаолиятига зўр берилмаганлиги намоён бўлди. Бу эса православлик черковига хос бўлган хусусият хукumat қарорларига бағрикенглик билан ёндашув узоқ тарихдан шаклланганига ишора қиласди.

## УРАВНЕНИЕ ШРЕДИНГЕРА ДЛЯ ПРОСТЕЙШИХ СИСТЕМ

Есиргапов Илёскон Бобокант угли

Магистр Джизакского государственного педагогического института

Джизакская область, Джизакский город

государственная специализированная школа № 22

Учитель математики

### Свободная частица, движущаяся вдоль оси $x$

Потенциальная энергия равна нулю:  $U(x)=0$ , и производные по  $y$  и  $z$  в операторе Лапласа исчезают.

$$-\frac{\hbar^2}{2m} \cdot \frac{d^2}{dx^2} \psi(x) = E\psi(x). \quad (1)$$

Введем волновой вектор  $\vec{k}$ , обозначив

$$E = \frac{\hbar^2 k^2}{2m}, \quad (2)$$

и перепишем уравнение в виде

$$\frac{d^2}{dx^2} \psi(x) + k^2 \psi(x) = 0. \quad (3)$$

Существуют, как известно, два линейно независимых решения уравнения , (1) так что общее решение есть суперпозиция двух волн — или **стоячих**:

$$\psi(x) = A \sin kx + B \cos kx, \quad (4)$$

или **бегущих**:

$$\psi(x) = A \exp(ikx) + B \exp(-ikx) \quad (5)$$

(первый член — волна бежит направо, второй — налево; постоянные  $A$  и  $B$  произвольны). Аналогия: такие же решения описывают колебания свободной струны. Поскольку возможны волны с произвольным значением волнового числа  $k$ , энергия частицы ( $E = \hbar^2 k^2 / 2m$ ) также может принимать любые значения, то есть, в данном случае свободного инфинитного движения — не квантуется. Для частицы, движущейся в произвольном направлении вдоль произвольно направленного волнового вектора  $\vec{k}$ , справедливы те же решения при замене  $kx \rightarrow \vec{k} \cdot \vec{r}$ .

При решении большинства задач квантовой механики следует обратить внимание на то, что волновая функция всегда должна быть непрерывной — вероятность пребывания частицы не может меняться скачком от точки к точке. Кроме того, если потенциальная энергия непрерывна или имеет скачки, но только первого рода (конечные скачки) и не имеет бесконечных скачков (скачков второго рода), то из

уравнения Шредингера следует, что и первая производная волновой функции также непрерывна.

### **Частица в бесконечно глубокой потенциальной яме**

Потенциальная энергия в этой задаче имеет вид

$$U(x) = \begin{cases} 0, & \text{если } 0 \leq x \leq l \\ +\infty, & \text{если } x < 0 \text{ или } x > l \end{cases}$$

Такая система соответствует частице, движущейся вдоль прямой линии и отскакивающей от абсолютно отражающих препятствий в точках  $x=0$  и  $x=l$ . В область бесконечного потенциала частица проникнуть не может, следовательно,  $\psi(x)=0$  за пределами отрезка  $[0, l]$ . Внутри ямы  $U(x)=0$ , и стационарное уравнение Шредингера имеет тот же вид, как для свободной частицы. Получается те же решения в виде суперпозиции стоячих (или бегущих) волн, но в отличие от предыдущего случая добавляются граничные условия. Именно, в точках  $x=0$  и  $x=l$  волновая функция должна обращаться в нуль (поскольку она непрерывна и равна нулю вне ямы). В классической механике точно такие граничные условия имеет уравнение для струны с закрепленными концами.

Общее решение имеет вид

$$\psi(x) = A \sin kx + B \cos kx. \quad (6)$$

Используем сначала первое граничное условие

$$\psi(0) = B = 0. \quad (7)$$

Мы получили, что решение уравнения Шредингера должно иметь вид

$$\psi(x) = A \sin kx. \quad (8)$$

Если продолжить нашу аналогию, то можно сказать, что на струне, закрепленной в одной точке, бегущих волн не бывает: отражение от неподвижной точки обязательно порождает стоячую волну. Однако на длину волны никаких ограничений не накладывается.

Теперь наложим второе из граничных условий:

$$\psi(l) = A \sin kl = 0. \quad (9)$$

Здесь есть два типа решений. При  $k$  получаем

$$\psi(x) \equiv 0,$$

что означает отсутствие частицы в яме (вероятность найти ее всюду равна нулю). Поэтому нас интересует второе – нетривиальное – решение, когда

$$\sin kl = 0.$$

Это возможно лишь при некоторых значениях волнового вектора:

$$k_n = \frac{\pi n}{l} \quad (n = 1, 2, 3, \dots).$$

**JAMIYAT TARAQQIYOTINING G’OYA, MAFKURALAR BILAN O’ZARO  
BOG’LIQLIGI**

**Soatova Sevinch Jahongir qizi**

**Suvanova Ma’mura Mardon qizi**

*JDPI “Tarix fakulteti” MG’MA va HT yo’nalishi talabalari*

**Annotatsiya:** Jamiyatda insonlar ongi, ularning jamiyatda bo’ladigan o’zgarishlarga munosabatlari, fikrlashlari , yoshlarni ezgu g’oyalar ruhida tarbiyalash va yoshlarning o’zaro munosabati .

**Kalit so’zlar:** mafkura, g’oya, ta’lim-tarbiya, jamiyat taraqqiyoti, maqsad.

G’oyaning voqelik va hayot ta’sirida vujudga keladigan, uni aks ettirish asosida shakllanadigan dunyoni bilishning o’ziga xos shakllaridan biridir .U birlashtiradi, yuushtiradi, safarbar etadi.

G’oya - ijtimoiy fikr sifatida shakllandi.

G’oya - muayyan tarzda namoyon bo’ladi.

G’oya - biror-bir maqsadni ifodalaydi.

G’oya - amaliy harakatga undaydi.

G’oya - muayyan mafkuraning asosi bo’ladi.

G’oyaning namoyon bo’lish xususiyatlari:

1. Dunyoni bilishning muayyan bosqichi va o’ziga xos shakli
2. Hayotiy va ilmiy dalillarga asoslanishi
3. Muayyan mafkura uchun asos bo’lishi
4. Ijtimoiy Voqelikning in’ikosi
5. Biron-bir farazni ifodalash
6. Muayyan,maqsad sari safarbar qilish

7.Nazariya va amaliyot bilan bog’liqligi

Darhaqiqat, inson va jamiyat hayoti muayyan fikrlar, g’oyalar bilan uzviy

bog’liq mafkura inson hamda jamiyat taraqqiyotida muhim rol o’ynaydi va uzlusiz takomillashib, rivojlanib, davrlar o’tmishi bilan o’zgarib boradi. Shu sababli, inson,jamiyat taraqqiyotida g’oya va mafkuraning o’rni hamda ta’sirini o’rganish barchadavrarda muhim ahamiyatga ega. Har qanday jamiyat o’z taraqqiyotida muayyan fikrlar, g’oyalar va mafkuralar bilan o’zaro bog’iq holda faoliyat ko’rsatishi tabiiy va qonuniy jarayondir.

Mazmuni va namoyon bo’lish shakliga qarab, g’oyalarni bir qancha turlarga ajratish mumkin:

Ilmiy g’oyalar; falsafiy g’oyalar; diniy g’oyalar; badiiy g’oyalar; ijtimoiy-siyosiy g’oyalar; milliy g’oyalar; umuminsoniy g’oyalar va h.k.

Milliy g’oya – inson va jamiyat hayotiga ma’no-mazmun baxsh etadigan, uni

ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar, g’oyalar majmuidir. Ozodlik va mustaqillik, adolat va haqiqat, tinchliksevarlik va insonparvarlik g’oyalari shular jumlasidandir.Asrlar

mobaynida bunday buyuk, o'lmas g'oyalar xalqlarga kuch-quvvat va ilhom bag'ishlab, ularni o'z erki uchun kurashga safarbar etib kelgan.

Birinchi Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, millat taraqqiyotiga, uning yuksalishiga xizmat qiladigan, xalqlarni jipslashtirib, oliy maqsadlarga safarbar etadigan g'oyalar yuksak g'oyalardir. Odamlar orasiga nifoq, xalqlar o'rtasiga nizo soladigan, kishilarni turli taraflarga ajratib, adovat qo'zg'aydigan tuban buzg'unchi g'oyalarga misol bo'ladi. Aslida, bunday qabih niyat va soxta shiorlarni g'oya deb atash ham shartlidir. Qaysi ijtimoiy birlik yoki qatlam orasida tarqalgan, qanday aholi guruhlari yoki elat-millatlarni harakatga keltirayotganiga qarab ham g'oyalarni turlarga ajratish mumkin. «Mafkura» tushunchasi adabchadagi «mufakkir» «mufakkiratun» so'zlaridan olingan bo'lib, chuqur ma'noni, teran mazmunli fikr demakdir. Mafkura tushunchasini ta'riflashda falsafiy adabiyotlar va lug'atlarda bir qancha fikrlar beriladi. Mafkura tushunchasiga faylasuf olimlar tomonidan berilgan ta'riflar shakl va mazmun jihatidan har xil.

Mafkuraning diniy ildizlari – inson ongi va ruhiyati bilan uzviy bog'liq ekani

va shu bois uning g'oyaviy ildizlari diniy ta'limotlariga borib taqalishi tushuniladi.Ya'ni, ko'pgina mafkuralarda Avesto, Veda ыiv Upanishadlar, Injil va Qur'on kabi kitoblarda zikr etilgan ezgu g'oyalar muayyan darajada o'z ifodasini topganini ko'ramiz.G'oya va mafkura bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.SHuning uchun avallo g'oymiz doimo ezgu bo'lshi shart. Ezgu g'oyalar Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin, Rumiy, Mirzo Abdulqodir Bedillar ijodida chuqur o'rinni egalladi va o'zbek davlatchiliginining rivojlanishida ham muhim omil bo'lib xizmat qildi.Bilim va aql-idrok orqali ezgu ishlar qilish to'g'risida Yusuf Xos Xojibning quyidagi fikrlari e'tiborga molik: «Tabiat kimga zakovat, aqidrok,bilim bersa, u ezgu ishlar qilishga qo'l uradi»,1 - deb yozgan edi «Qutadg'u bilig» (XI) Amir Temurning «Temur tuzuklari», Nizomulmulkning «Siyosatnomá» kitoblarida davlat idorasi va ahli fuqaroga munosabatda adolat, insof, diyonat, el-yurt tinchligi va obodligi bosh g'oya sifatida ilgari surildi.

Bu g'oyalar Temuriylar davlati g'oyaviy prinsiplarning ustuvor yo'naliishi edi. Amir Temurning bunyodkorlik g'oyalari va amaliy faoliyati katta ahamiyatga ega bo'lib, uning asosiy maqsadi bunyodkorlik va yaratuvchanlik edi.Jumladan, u «Temur tuzuklari» da: «Agar fuqaroden birining uy imorati buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, kerakli uskunalarni yetkazib berib, unga yordam berilsin», deb ko'rsatma beradi. Shu o'rinda, Yurtboshimizning Amir Temur o'z davlatini aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora etgan desak adolatdan bo'ladi, degan fikrlari nihoyatda o'rinnlidir. Zero, Sohibqiron o'z bunyodkorlik maqsadiga erishish uchun sobitqadamlik bilan harakat qilgan. Jumladan, bu haqda «Temur tuzuklari»da yozganidek, «Biror ishni bajarishni o'ylasam butun zehnim, vujudim bilan bog'lanib,bitirmagunimcha undan qo'limni tortmadim»,2 - degan so'zlari bugun ham ibratlidir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. «Milliy g'oya» o'quv- uslubiy majmua Tuzuvchilar: prof.Yaxshilikov J ass.Samadov A Samarqand
2. Ёдимги ёикматлар. – Т.: F.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987, 94-бет
3. Темур тузуклари. – Т.: F.Люлом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996, 70-бет.

**KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA  
MONPOLIYAGA QARSHI BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH  
YO'LLARI**

Maxmudov Shoxzod Urol o'g'li

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti magistranti*

**Xoliqulov Anvar Nematovich**

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti, i.f.n*

**Annotatsiya:** *Maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida korxonlarning o'rni, korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish, korxonalarни moliyaviy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish mexanizmlari, korxonalarни davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va monopoliyaga qarshi boshqaruv tizimini takomillashtirish masalalari muhokama qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *iqtisodiyot, moliyaviy holat, raqobatbardoshlik, korxona muammolari, monopoliya.*

O'zbekistonning iqtisodiyoti yildan-yilga yuqori sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Aholi turmushini yanada farovonlashtirish va iqtisodiy muammolarni kengroq miqyosda hal etish uchun iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini yanada oshirishga to'g'ri keladi.

Iqtisodiyotning rivojlanishi hozirda ko'proq marketingga bog'liqdir. O'zbekistonning oldida ishlab chiqarishni kengaytirish, mahsulotlami sotishni ko'paytirish, xizmatlaming hajmini oshirish, tovarlar va xizmatlaming raqobatbardoshligini kuchaytirish, tashqi bozorlarga chiqish, tovarlar va xizmatlami uzlusiz yangilab turish, va shuningdek, xizmatlaming sifatini keskin oshirishdek ulkan vazifalar turibdi.

Mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida sanoat korxonalarida, jumladan, yengil sanoat korxonalarida zamonaviy boshqaruv tizmini tashkil etish, mavjud muammolar yuzasidan kerakli chora-tadbirlarni ishlab chiqilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, inqirozning eng og'ir bosqichi ortda qolganiga qaramay, hali-beri davom etadigan moliyaviy-iqtisodiy inqirozning butun bir davrini boshdan kechirishga to'g'ri keladi. Inqirozdan chiqish va inqirozdan keyin iqtisodiyotni sog'lomlashtirish jarayoni uzoq davomli va o'ta murakkab bo'lishi mumkin. Shuningdek, korxonalarda raqobatbardoshligini oshirishda monopolyaga qarshi samarali boshqaruvni yo'lga qo'yish tamoyillari, restrukturizatsiya qilish va tashkiliy tarkibini ishlab chiqish bo'yicha nazariy asoslar yetarli emas.

O'zbekistonda eng ilg'or texnologiyalar bilan jihozlangan, raqobatbardosh tovarlarning har xil turlarini ishlab chiqara oladigan zamonaviy korxonalar qurilgan. Asosiy masala shundan iboratki, marketing texnologiyalariga tayangan holda tovarlarni ko'p hajmda sotishni tashkil etish va xizmatlar ko'rsatish hajmini, ham respublikada ham tashqi bozorlarda ko'paytirishdan iborat.

Mamlakatda iqtisodiy o'sishni ta'minlash, raqobatbardoshlikni oshirish, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish jarayonlarini chuqurlashtirish, investitsiyalarni,

avvalambor iqtisodiyotning bazaviy va tarkibiy asosini tashkil etuvchi sohalarga jalg qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Bunda, iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish, fond bozorini rivojlantirish va sog‘lom raqobat muhitini yaratish faol investitsiya siyosatini olib borish, jamiyat va davlat faoliyatining barcha sohalarini jadal va barqaror rivojlantirish uchun asos hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotni real sektori korxonalarini qo’llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta’minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to’g’risida Farmoni 2008-y.

2. “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini takomillashtirish masalasi” R. Qo’rg’onova – O’zbekiston respublikasi Oliy Majlisi Senatining Tashqi siyosat masalalari qo’mitasi a’zosi ma’ruzasidan. 2011-yil.

3. Vazirlar Maxkamasining amalga oshirilayotgan iqtisodiy nochor korxonalarni tarkibiy o’zlashtirish va moliyaviy sog’lomlashtirish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari” (yangi tahririda) (188-sonli qarori 18.03.2003,2011-2012y.yangi tahrirda).

4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to’grisida” Farmoni.19.07.2012.